
PAYOZ MUSAYEV, JAHONGIR MUSAYEV

GEOGRAFIYA

O‘ZBEKISTONNING IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
8-sinfi uchun darslik

To‘ldirilgan oltinchi nashr



O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasdiqlagan

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT – 2019

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

UO‘K: 91(575.1)(075)
KBK 65.04ya721
M – 97

T a q r i z c h i l a r:

N. SAFAROVA, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining «Geografiya va uni o‘qitish metodikasi» kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi;

A. JABBOROV, Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika institutining «Geografiya o‘qitish metodikasi» kafedrasi dotsenti;

Sh. XOLMURODOV, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining «Geografiya va uni o‘qitish metodikasi» kafedrasi katta o‘qituvchisi;

S. BERDIYEVA, Toshkent shahar Mirobod tumani 213-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining geografiya fani o‘qituvchisi.

M – 97 **Musayev, Payoz.**

O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik / Mualliflar: P.G‘.Musayev, J.P.Musayev.– T.: «Sharq», 2019. – 176 b.

I. Muallifdosh.

UO‘K: 91(575.1)(075)
KBK 65.04ya721

Darslik mavzulariga joylashtirilgan ushbu QR – kod belgilarini skaner qilish orqali mavzularga oid internet ma’lumotlaridan foydalanishingiz mumkin.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ijara uchun chop etildi.

ISBN 978-9943-26-917-0

© P. Musayev, J. Musayev, 2004, 2014, 2019.
© «Sharq» NMAK Bosh tahririyati, 2004, 2014, 2019.

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

I BOB. O‘ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI

1-dars

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi nimani o‘rganadi?

Siz endi oldingi sinflarda olgan bilimlaringiz asosida Yer yuzi, shu jumladan, mamlakatimiz tabiati haqida boshqalarga ham ma’lumot bera olasiz. Ulardan tashqari shunday bilimlar ham borki, ular kishilar faoliyati, hayot tarzi va ishlab chiqarishning hududiy farqlanishi kabi insoniyat, jamiyat hayoti bilan bevosita bog‘liqdir. Ana shu bilimlarni o‘rganadigan fan ***iqtisodiy va ijtimoiy geografiya*** deb yuritiladi. U aholi faoliyatining hududiy tashkil etilishi bilan bog‘liq iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni muayyan mamlakat bo‘yicha ham, butun jahon miqyosida ham o‘rganadi. Ushbu o‘quv yilida jonajon Vatanimiz – ***O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi***ni o‘rganasiz.

Darhaqiqat, zavod, fabrika, firma, shifo maskani, ta’lim muassasasi yoki maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari puxta o‘ylanmasdan duch kelgan joyda barpo qilinsa, kishilarni sarsongarchilikka, mehnat va mablag‘ni behuda sarflashga majbur qiladi. Oxir-oqibatda bu ijtimoiy mehnat unumdorligining oshishiga salbiy ta’sir etadi.

Ijtimoiy mehnat unumdorligi – moddiy ishlab chiqarishda band bo‘lgan har bir ishlovchi hisobiga hosil qilingan milliy daromad miqdori.

Mehnat unumdorligi ishlab chiqarishning mashinalar, malakali ishchilar, elektr energiya, tabiiy boyliklar bilan ta’minlanganiga, korxona va aholi punktlarining kishilarga qulay hamda tabiiy muhit toptalmaydigan joyda barpo etilganiga, mehnatkashlarning yashash sharoitlari, dam olishi hamda ularga madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatilishiga ham bog‘liq.

Agar xomashyo, yoqilg‘i, energiya manbalari va ishchilar o‘zaro yonmayon joylashsa, ishlab chiqarishda yuqori samaradorlik ta’minlanadi. Biroq bunday qulay joylashish kamdan kam uchraydi. Ba’zi joylarda xomashyo yetishmasa, boshqa joyda yoqilg‘i, energiya tanqisligi kuzatiladi. Ana shuning uchun ham mamlakatni rivojlantirishning milliy dasturlarida aholini, ishlab chiqarishni joylashtirish hamda tabiat boyliklaridan foydalanish masalalarini hududiy yaxlit tashkil etishga alohida e’tibor beriladi.

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди



O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini aholi va tabiiy sharoit bilan o‘zaro aloqador holda o‘rganib, uni hududiy tashkil etishning umumiy tamoyillarini ilmiy jihatdan asoslaydi.

8-sinf geografiyasi sizni mamlakatimizda ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirishga, tabiiy resurslarni muhofaza qilishga va umuman aholi turmushining farovonlashuviga yordam beruvchi geografik bilimlar bilan qurollantiradi. Shuningdek, geografik bilimingizni oshirishda turli manbalardan mustaqil foydalanish usullarini tarkib toptiradi.

Bu fan xulosalari uchun asos bo‘lgan ma’lumotlar – daliliy ashyolar zamon bilan hamnafas o‘zgarib boradi. Darslikda keltirilgan raqamli ma’lumotlar, rasm, xarita-sxemalardagi ma’lumotlar va hatto joy nomlari ham ertaga bugungidan farqlanishi mumkin. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga xos bu jihat kundalik voqea va hodisalardan muntazam xabardor bo‘lib turishni taqozo etadi.

Yurtimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tishdek murakkab va keng qamrovli jarayon kechmoqda. Bunday paytda mamlakatda, har bir shahar yoki qishloqda muayyan muammolar vujudga kelishi tabiiy. Darslik sizni shunday muammolar bilan tanishtiradi hamda ularning yechimini topishga o‘rgatadi.

Xalqimiz taraqqiyot yo‘lida matonat ko‘rsatib mehnat qilmoqda. Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda, ayniqsa, siz yoshlar faollik ko‘rsatishingiz va kelgusidagi faoliyatingiz barakali bo‘lishi zarur. ***Zero, mehnat unumdorligi bozor munosabatlariga o‘tishda eng muhim va eng asosiy omil hisoblanadi***. O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o‘rganish bu vazifaning muhimligini tushunishga, demakkim, o‘z fuqarolik burchingizni bajarishingizga, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etishingizga yordam beradi.

Qo‘lingizdagi darslik mamlakatimiz milliy iqtisodiyoti bilan tanishtiribgina qolmasdan, geografik mazmundagi turli adabiyotlardan, birlamchi manbalardan foydalanishga imkon beruvchi ko‘nikma va malakalar bilan ham qurollantiradi. Siz ushbu darslikdan iqtisodiy geografik obyekt, hodisa va jarayonlarni tasvirlash, bayon etish usullarini ham o‘rganib olasiz.



1. Darslik muqovasining ikkinchi betida berilgan iqtisodiy va ijtimoiy tushuncha hamda atamalardan kamida ikkitasini izohlashga urinib ko‘ring!
2. Sizningcha, ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda qaysi omillar muhim hisoblanadi? Javobingizni asoslashga harakat qiling.

2-dars

O‘ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O‘RNI

Geografik o‘rin deganda nima tushuniladi?

Muayyan mamlakat, hudud, viloyat, shahar, tuman, mahalla va hatto hovlining o‘ziga xosliklaridan biri ularning Yer yuzidagi betakror o‘rnidir. Bular geografik o‘rin deb ataladi. Geografik o‘rin mohiyatan ***tabiiy geografik o‘rin, iqtisodiy geografik o‘rin va siyosiy geografik o‘rin*** tarzida guruhlanadi.



Tabiiy geografik o‘rin, asosan, okean, dengiz, daryo, tog‘, cho‘l, o‘rmon, adir singari yirik tabiiy obyektlarga nisbatan joylashgan o‘rniga ko‘ra belgilansa, ***iqtisodiy geografik o‘rin*** jahonning erkin iqtisodiy mintaqalari, jahon savdo yo‘llari, yirik savdo-sanoat markazlari va tabiiy boyliklardan foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi. ***Siyosiy geografik o‘rin*** esa muayyan davrda alohida davlatning harbiy mojarolar ro‘y berayotgan yoki ro‘y berishi mumkin bo‘lgan hudud va davlatlarga nisbatan qanchalik aloqadorligiga ko‘ra baholanadi.

Geografik obyektlar o‘zaro aloqador bo‘ladi. Ana shu aloqadorlik ko‘lamiga muvofiq geografik o‘rin mikro, mezo, makro miqyosda namoyon bo‘ladi. Endi Vatanimiz O‘zbekistonning geografik o‘rnidagi o‘ziga xos jihatlar, uni belgilovchi omillarni ko‘rib chiqaylik.

Tabiiy geografik o‘rni. O‘lkamiz ob-havosi yilning talay qismida ochiq va quruq bo‘ladi. E’tibor qilinsa, O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi «Serquyosh hur o‘lkam...» deya boshlanadi. Tabiiy geografik o‘rin sharofati ila serquyosh va issiq kunlarning uzoq davom etishi mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi, transport va maishiy hayotda mehnat va moliyaviy sarf-xarajatlarning tejalishiga imkon beradi. Bulutsiz osmonimiz astronomik tadqiqotlarda ham qo‘l keladi. Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bekdek koinot bilimdonlari bizning yurtdan chiqqani bejiz emas.

Iqtisodiy geografik o‘rni. Har qanday davlatning rivojlanishini tashqi iqtisodiy aloqalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Tashqi iqtisodiy aloqalar miqyosi esa xalqaro mehnat taqsimoti, qolaversa, iqtisodiy geografik o‘rin imkoniyatlariga bog‘liq. Insoniyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida yirik xalqaro savdo yo‘llari muhim omil bo‘lgan.

Iqtisodiy geografik o‘rin imkoniyatlari davr o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Bunga siyosiy voqealar, yirik tabiiy boylik zaxiralarining topilishi va ishlab chiqarilishi, transport vositalarining takomillashuvi kabilar sabab

bo‘ladi. Buni yurtimiz iqtisodiy geografik o‘rnida ro‘y bergan o‘zgarishlar misolida ko‘rib chiqamiz.

Ma’lumki, miloddan avvalgi II asrdan to milodiy XVI asrgacha Sharqni (Hindiston, Xitoy) G‘arb (Yevropa mamlakatlari) bilan bog‘lab turgan asosiy savdo yo‘li – «Buyuk Ipak yo‘li» O‘rta Osiyo orqali o‘tgan. Natijada O‘rta Osiyo bozorlarida mol ayirboshlash avj olib, u hunarmandchilik va dehqonchilikning taraqqiyoti, shaharlar, fan, madaniyat ravnaqiga jiddiy turtki bo‘lgan. Keyinchalik Sharq bilan G‘arb o‘rtasidagi savdo yo‘llari quruqlikdan dengiz-okeanlarga ko‘chgach, O‘rta Osiyo iqtisodiy geografik o‘rnidagi qulaylik barham topgan.

XIX asr oxirlarida O‘rta Osiyoda temiryo‘l qurildi. Natijada Samarqand, Toshkent kabi yirik shaharlar temiryo‘l orqali Rossiyaning markaziy rayonlari bilan bog‘lanib, O‘zbekiston hududining iqtisodiy geografik o‘rni yana qulaylik kasb eta boshladi. Ammo sho‘ro davrida iqtisodiy geografik o‘rin qulayliklaridan asosan sobiq Ittifoq manfaatdor edi.

Ma’lumki, O‘zbekiston ochiq dengiz (okean)ga bevosita chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan, dunyo okeaniga chiqish uchun kamida ikki davlatning hududini kesib o‘tish zarur bo‘lgan dunyodagi ikki mamlakatning biri hisoblanadi. Ikkinchisi Lixtenshteyn davlatidir. Shuning uchun O‘zbekiston transport tuzilmasini takomillashtirib, dunyo okeaniga chiqishning eng maqbul va ishonchli yo‘nalishlarini tanlash borasida chora-tadbirlar olib bordi.




Mustaqillik tufayli O‘zbekiston xorijiy davlatlar bilan erkin aloqa o‘rnatish huquqini qo‘lga kiritdi. Tarixan qisqa vaqtda uni azaliy janubiy qo‘shnilari Afg‘oniston, Pokiston, Eron hamda g‘arbdan Turkiya, sharqdan Xitoy va boshqa davlatlar bilan bog‘lovchi quruqlik va havo yo‘llari ochilib, O‘zbekiston iqtisodiy geografik o‘rnini yaxshilab oldi.

Ayniqsa, O‘zbekistonning «Bir makon, bir yo‘l» loyihasida ishtirok etishi natijasida qadimiy Ipak yo‘li ruhiyatini qayta tiklash, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, mamlakatlarning transport infratuzilmasini birlashtirish imkoniyati kuchaydi.

Ba’zan qo‘shni davlatlar hududidagi ayrim imkoniyatlar ham mamlakat iqtisodiy geografik o‘rniga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, Turkmaniston bilan Eronni bog‘lovchi temiryo‘l qurilgach, undan O‘zbekiston tashqi aloqalarda foydalana boshladi.

Demak, har qanday hududning iqtisodiy geografik o‘rnini baholashda



1-rasm. O‘zbekistonning makrogeografik o‘rni.

uning yirik transport tugunlariga, shu jumladan, dengiz yo‘llariga nisbatan qanday joylashganligi e’tiborga olinar ekan. Shu jihatdan O‘zbekistonning iqtisodiy geografik o‘rni tobora qulaylashib bormoqda.

Iqtisodiy va ijtimoiy hayotda davlatning ***siyosiy geografik o‘rni*** ham muhum omil sanaladi. O‘zbekiston suverenitetini jahon hamjamiyati e’tirof etib, u bilan 130 dan ortiq davlat diplomatik aloqalar o‘rnatgan, ko‘pchiligi elchixonalar ochgan. O‘z navbatida ko‘plab davlatlarda O‘zbekiston elchixonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekistonning turli xalqaro tashkilotlarga, xususan, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zoligi, O‘zbekiston bilan chegaradosh, tarixida umumiylik rishtalari ustuvor bo‘lgan Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikistonning ham aynan ushbu xalqaro tashkilotlarga a’zo ekanliklari mamlakatimizning siyosiy geografik o‘rnini belgilaydigan ijobiy omillardir.

1. Sizningcha, mamlakatimiz viloyatlaridan qaysi birining iqtisodiy geografik o‘rni eng qulay? Javobingizni asoslang.
2. Maktabingiz joylashgan tumanning iqtisodiy geografik o‘rnini quyidagi reja asosida ta’riflab yozing:
   a) tuman chegarasining xususiyatlari;
   b) qo‘shni tumandagi qanday omillar tumaningiz xo‘jaligi yuksalishiga hissa qo‘shayotganligi;
   d) tumaningiz transportning qaysi turi vositasida boshqa tumanlar bilan aloqada bo‘layotganligi.
3. Mamlakatimiz okeanlardan qancha olisdaligini 8-sinf o‘quv atlasidan aniqlang.

3-dars

O‘ZBEKISTONNING MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI

O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi, hudud sarhadlarining qiyofasi uni boshqarish va yuksaltirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining hududi 448,9 ming kv.km bo‘lib, dunyoning eng rivojlangan davlatlari hisoblangan Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya kabi davlatlar hududidan katta (2-rasm). Poytaxti Toshkent shahri.


O‘zbekiston ma’muriy-hududiy tuzilishi 3 pog‘onadan tashkil topgan. Birinchi pog‘onada Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri joylashgan. O‘z navbatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlar ularga bo‘ysunuvchi tuman va shaharlardan tashkil topgan. Toshkent shahri esa shahar ichidagi tumanlardan iborat.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar tumanlari ularga bo‘ysunuvchi shaharlar, shaharchalar, qishloq fuqarolar yig‘inidan iborat (3-rasm).

Mamlakatimizdagi viloyatlar Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg‘ona, Qashqadaryo va Xorazm deb nomlanishidan xabardorsiz. Viloyatlar hududi va aholi soni bo‘yicha bir-biridan katta farq qiladi. Mustaqillik yillarida viloyatlarning soni hamda nomlanishida o‘zgarishlar yuz bermadi. Tuman, shahar, shaharcha, qishloq va ovullar soni hamda nomlanishi esa hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga mos ravishda doimiy o‘zgarib bordi.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasining maydoni (2018-yil holatida).



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi.

O‘zbekistonda viloyat, tuman, shahar, shaharcha, qishloq, ovullarni tuzish, tugatish, ularning chegaralarini o‘zgartirish, ma’muriy markazlarini ko‘chirish hamda aholi punktlarini shahar, shaharchalari turkumiga o‘tkazish Qonun asosida tartibga solinadi.

Viloyat va tumanlarni tuzish va tugatish, ular chegaralarini o‘zgartirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining chegarasi faqat uning roziligi bilan Jo‘qorg‘i Kenges qaroriga asosan Oliy Majlis tomonidan o‘zgartirilishi mumkin. Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi tumanlarni tuzish va tugatish Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining roziligi bilan amalga oshiriladi (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasi).

Qishloqlar, ovullarni tuzish va tugatish, chegarasini o‘zgartirish tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan xalq deputatlari viloyat kengashlari tomonidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa – Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Mamlakatimizdagi shaharlar ham bo‘ysunuviga ko‘ra 3 toifaga:

1. O‘zbekiston Respublikasi bo‘ysunuvidagi;

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘ysunuvidagi;
3. Tuman bo‘ysunuvidagi shaharlarga bo‘linadi.

Mamlakatimiz poytaxti – Toshkent shahri O‘zbekiston Respublikasi bo‘ysunuvidagi yagona shahar hisoblanadi.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘ysunuvidagi shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, kamida 30 ming aholisi bo‘lgan, muhim ma’muriy ahamiyat kasb etadigan, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar deb hisoblangan shaharlar kiritilishi mumkin.

Xiva va Shahrisabz shaharlari viloyat bo‘ysunuviga o‘tkazilgan eng yangi shaharlar hisoblanadi (2017-yil). Bu choralar O‘zbekiston hududida joylashgan ushbu qadimgi shaharlarga sayyohlar oqimini sezilarli oshirish imkonini beradi.



Tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar turkumiga, qoida tariqasida, kamida 7 ming aholisi bo‘lgan, sanoat korxonalari va rivojlangan infrastrukturasi mavjud aholi punktlari kiritilishi mumkin.

Shaharchalarni, qishloq aholi punktlarini tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar turkumiga kiritish, ularni qayta tuzish tegishli viloyat hokimlarining iltimosnomasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga muvofiq Oliy Majlis tomonidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa – tegishli tuman hokimlarining iltimosnomasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi hukumatining taklifiga muvofiq Jo‘qorg‘i Kenges tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalar turkumiga sanoat korxonalari, qurilishlar, temiryo‘l stansiyalari va boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan hamda qoida tariqasida kamida 2 ming aholisi bo‘lgan aholi punktlari kiritilishi mumkin.




1. Qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda maydoni bo‘yicha O‘zbekistondan katta va kichik bo‘lgan mamlakatlarni imkon qadar ko‘proq topib, daftaringizga yozing.
2. O‘zbekiston viloyatlarining qaysi birida aholi eng ko‘p va qaysi birida eng kam, qaysinisining maydoni eng katta va qaysinisiniki eng kichikligini darslik 1-ilovasidagi jadvaldan aniqlang.
3. 8-sinf yozuvsiz xaritasida ma’muriy-hududiy tuzilishi xaritasini bo‘yang. O‘zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxtlari va viloyatlar markazlari bo‘lgan shaharlarni belgilang.

IJTIMOIY-IQTISODIY XARITALAR

Siz 5–7-sinf tabiiy geografiya darslarida turli tabiiy xaritalar bilan ishladingiz. Endi 8-sinfda aholi va iqtisodiyotga oid bilimlarni o‘rganishda ijtimoiy-iqtisodiy xaritalardan foydalanasiz. Bu xaritalarda aholi punktlari, foydali qazilma konlari, sanoat markazlari, qishloq xo‘jaligi va aloqa yo‘llarining hududiy joylashuvi ko‘rsatiladi. Ularni xaritalarda tasvirlash uchun nuqtalar, kartodiagramma, kartogramma kabi o‘ziga xos usullardan foydalaniladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar – ijtimoiy, xo‘jalik, hodisa va jarayonlarni aks ettiradi. Bunday xaritalarning mavzulari turli xil bo‘lib, ular tarixiy, aholi, xo‘jalik va uning tarmoqlari, xizmat ko‘rsatish sohasi, ta’lim va madaniyat, rekreatsion, transport, tashqi iqtisodiy aloqalar va boshqalarga ajratiladi (4-rasm).

Bunday xaritalarning eng yirik guruhlaridan biri bu ***sanoat xaritalaridir***. Chunki ular bir tarafdan har bir sanoat turlari haqida ma’lumot bersa, ikkinchi



4-rasm. Temiryo‘llarning uzunligi va zichligi (2018-yil).

tarafdan alohida bir hudud, mamlakat yoki jahonning sanoat ishlab chiqarishi haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, bunday xaritalar sanoatning rivojlanish tarixi va bosqichlarini ham aks ettira oladi.

Qishloq xo'jaligi xaritalari mazkur sohaning geografik joylashuvi, uning rivojlanish shart-sharoitlarini, atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini ifoda etadi. Ushbu sohada dehqonchilik, chorvachilik va kompleks xaritalarni alohida o'rganish mumkin. Bunday xaritalarda qishloq xo'jalik mahsulotlari ekilgan yerlarning maydoni, ekinlarning hosildorligi, chorvachilik turlari va ularning mahsuldorligi, qishloq xo'jaligini yuritish shart-sharoitlari aks etadi. Shuningdek, bunday xaritalarda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash yo'nalishlari hamda ushbu sohaning rayonlashtirish masalalarini o'rganish mumkin.



Aholi xaritalari, asosan, aholi soni, dinamikasi, geografik joylashuvi, zichligi, aholining jins va yosh tarkibi, demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va boshq.), aholi migratsiyasi, uning kasbiy faolligi va turli sohalarda bandligi, aholining milliy tarkibi kabi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy xaritalarning amal qilish doirasi jadal sur'atlarda kengayib, iqtisodiy xaritalardan ko'ra ijtimoiy xaritalar ko'payib bormoqda. Masalan, bugungi kunga kelib elektoral (ya'ni, saylov va ovoz berish) masalalarini yoritadigan, shuningdek, huquqbuzarlik ko'proq qaysi hududlarda sodir bo'layotganligini ko'rsatadigan xaritalar yaratilmoqda.

XXI asr texnologiyalar asri bo'lib, qadimdan qo'llanilib kelingan bosma xaritalar o'rnini elektron xaritalar tezlikda egallab kelmoqda. Bugungi kunda aholi orasida keng ommalashib, foydalanish darajasi ortib borayotgan Google Maps, GPS dasturlari shular jumlasidandir. Bunday elektron xaritalar orqali ijtimoiy-iqtisodiy obyekt (shahar, sanoat korxonasi, restoran, sartaroshxona va boshq.)larni joylashgan o'rnini aniqlash, ularni bir yo'la fotosuratlarini ko'rish, unga olib boradigan eng qisqa yo'llarni aniqlash imkoni mavjud.



1. 8-sinf o'quv atlasida «sug'oriladigan yer», «aholisi 100 mingdan ortiq shahar» va «gaz quvurlari» qanday belgilarda ko'rsatilganini daftaringizga yozing.
2. O'quv atlasi yordamida 8-sinf yozuvsiz xaritasining biror-bir mavzuli xaritasini bo'yang. Shartli belgilarning qo'yilishiga ahamiyat bering.
3. Xaritadan mamlakatimizda hafta kunlari bilan ataladigan joylarni toping. Ular qaysi viloyatlarda joylashganligini geografiya daftaringizga yozing.

II BOB. O‘ZBEKISTONNING TABIIY BOYLIKLARI, AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

5-dars

O‘ZBEKISTONNING TABIIY SHAROITI VA TABIIY BOYLIKLARI

Tabiiy sharoit tabiiy boyliklardan nimasi bilan farq qiladi?

O‘zbekiston yerusti tuzilishi betakrordir. Shunga monand tabiati ham, boyliklari ham xilma-xil.

Qulay ***tabiiy sharoit*** ishlab chiqarish samaradorligining muhim tabiiy omilidir.

Tabiiy sharoit, ayniqsa, ***qishloq xo‘jaligi***, ***foydali qazilmalar*** qazib chiqarish va ***transport harakati***da yaqqol bilinadi. Tog‘ relyefi, sho‘rxoklar, cho‘llar, taqirlar, jarliklar hududni xo‘jalik jihatdan o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi. Qurg‘oqchil yillarda daryo suvlari kamayib, ekinlarni suv bilan ta’minlash og‘ir kechadi. Lekin fan-texnika taraqqiyoti tufayli ishlab chiqarishning tabiiy sharoitga bog‘liqligi yengib kelinmoqda. Ayni vaqtda insonning tabiatga ta’siri kuchayib, salbiy oqibatlarga ham olib kelmoqda.


Tabiiy boyliklar tabiiy sharoitdan farq qilib, ishlab chiqarishga bevosita aloqador, ya’ni uning xomashyo va energetika bazasini tashkil etadi.

Eng muhim tabiiy boyliklardan biri – bu ***yerosti boyliklari (mineral resurslar)***. Ulardan sanoatda, maishiy ehtiyojlarda keng miqyosda foydalaniladi (5-rasm).

O‘zbekiston katta yerosti boyliklariga ega bo‘lgan mamlakatdir. Ammo mamlakat iqtisodiyotining xomashyoga va yoqilg‘iga bo‘lgan ehtiyoji to‘xtovsiz ortib bormoqda. Hozirda tabiiy boyliklarning yarmiga yaqinidan foydalanilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, tabiiy boyliklar zaxirasidan tejab foydalanishimiz zarur. Chunki yerosti boyliklari tugaydigan va tiklanmaydigan boylikdir.

Tiklanmaydigan boyliklardan oqilona foydalanishning asosiy shartlari:

- konlardan qazilmalarni to‘liq qazib olish;
- atrof-muhitning buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- barcha qimmatli moddalardan majmuali-mukammal foydalanish;
- geologik qidiruv ishlarini tadrijiy davom ettirish;
- mahsulot birligiga sarf bo‘ladigan xomashyo va yoqilg‘ini tejaydigan texnika va texnologiyani qo‘llash.



5-rasm. Tabiiy boyliklarning ishlatilishi va turlari.

Tiklanmaydigan boyliklardan oqilona foydalanish kerak. Toki kelajak avlod ham bu boyliklardan bahramand bo‘lsin.

Eng muhim tabiiy boyliklardan yana biri – ***suv***. Qishloq xo‘jaligida ko‘p miqdorda suv sarflanadi. Sanoat korxonalari uchun ham ko‘p suv talab qilinadi. Korxonalar eng katta shaharlar aholisi iste’mol qiladigan suvdan ko‘proq suvni «ichib» qo‘ymoqda. Suv – tiklanadigan tabiiy boylikdir.

Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan ***unumdor tuproq (yer),*** aholi ehtiyoji uchun zarur ***o‘simlik*** va ***hayvonot*** dunyosi (baliq, yovvoyi hayvonlar), inson hayoti uchun zarur bo‘lgan ***havo*** ham tugaydigan va tiklanadigan tabiiy boylikka mansubdir. Toshkent, Farg‘ona, Navoiy kabi shaharlar, ayrim sanoat rayonlari hududida havo tarkibidagi kislorod aholi ehtiyojini qondira olmayapti. Holbuki, kislorod manbayi bo‘lgan o‘simliklar o‘nlab yillarda tiklanadi. Unumdor tuproq esa undan ham sekin tiklanadi.

O‘lkamiz hududi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun qulay iqlim sharoitiga ega. Bu ***agroiqlimiy*** boyligi tugamaydigan tabiiy boylikdir.

Mamlakatimiz hududi bitmas-tuganmas ***quyosh energiyasi*** boyligiga ega. Quyosh energiyasi tugamaydigan tabiiy boylikdir. Quyoshdan kelayotgan issiqlikni elektr energiyasiga aylantirish istiqbollari juda kattadir.

1. Tabiiy sharoit va boyliklar milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda qanday ahamiyatga ega?
2. Tabiiy boyliklarning qanday turlarini bilasiz?
3. Tabiiy boyliklar ahamiyati qanday baholanadi?
4. Mamlakatimiz tabiiy boyliklarini o‘zlashtirishga qayerlarda sharoit qulay ekanini xaritadan aniqlang.

6-dars

TABIIY SHAROIT VA TABIIY BOYLIKLARNING MILLIY IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI

1. O‘zbekiston hududida qanday tabiat mintaqalari bor?
2. O‘zbekistondagi foydali qazilmalar haqida nimalarni bilasiz?

Mamlakatimiz hududini tabiiy sharoiti va xo‘jalikdagi ahamiyatiga ko‘ra cho‘l, adir, tog‘, yaylovlarga bo‘lish mumkin.


O‘zbekistonda dengiz sathidan 400 metr balandlikkacha bo‘lgan joylar ***cho‘l mintaqasi*** hisoblanadi.

Bu yerlardan yaylov chorvachiligida foydalaniladi, ammo cho‘lning ozuqa boyligi juda kam. Bitta qo‘yni boqish uchun 2–3 gektar o‘tloq talab etiladi. Shu hisobdan O‘zbekiston cho‘llarida 10 mln boshgacha qo‘y boqsa bo‘ladi. Biroq cho‘llarning samarasi har gektar hisobida obikor yerlardagidan 100 marta kam.

Cho‘l mintaqasida neft, gaz, oltingugurt, oltin kabi mineral boyliklarning zaxiralari aniqlangan (6-rasm). Jumladan, gaz zaxirasi 2 trillion kub metrdan oshadi. Surxondaryo vohasida va Qizilqumda fosforit konlari bor. Oltingugurt, natriy va magniy tuz konlari kimyo sanoatining muhim xomashyosidir. Shag‘al, qum singari binokorlik xomashyosi ham juda ko‘p uchraydi.

Respublikamizda dengiz sathidan 400–1200 metrgacha baland bo‘lgan qismi ***adir mintaqasini*** tashkil etadi.

Adir iqlimi cho‘l iqlimidan mo‘tadilroq bo‘ladi. O‘simlik turi ko‘p va zich. Tuprog‘i chirindiga boy. Bu yerlardan, asosan, obikor, dengiz sathidan 1000 metrdan baland yerlarda lalmikor dehqonchilik yuritiladi. Adirlar dehqonchilik uchun eng qulay joy bo‘lganidan odamlar qadimdan shu yerlarda



6-rasm. O‘zbekiston hududidagi foydali qazilmalar.

qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanaverib, uning yer yuzasini ham, o‘simlik va hayvonot olamini ham o‘zgartirib yubordi.

Tog‘ mintaqasi O‘zbekistonda adirdan baland joylarga, ya’ni dengiz sathidan 1200 metrdan baland bo‘lgan joylarga to‘g‘ri keladi.

Tog‘larda yoz nisbatan qisqa, yog‘ingarchilik ko‘p bo‘ladi. Tuprog‘i nihoyatda chirindiga boy. Tog‘larda betaga, ravoch, zira, tog‘ yalpizi, yuqoriroqda na’matak, zirk, dukcho‘p kabi butalar, undan ham yuqoriroqda bodom, pista, do‘lana, zarang, olma, yong‘oq, nok, olcha kabi mevali daraxtlarning yovvoyi turlari o‘sadi. Ravoch, tog‘ yalpizi, zirk kabilar ovqatga ishlatiladi. Bodom va pista terib olinadi. Yovvoyi mevali daraxtlarga madaniy mevalar payvand qilinishi natijasida tog‘larning xo‘jalikdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Tog‘ mintaqasining shifobaxsh iqlimi hamda beqiyos go‘zal tabiatidan dam olish va hordiq chiqarishda foydalaniladi.

Tog‘lardan ko‘plab foydali qazilmalar topilgan. Ohangaron vodiysi atrofidagi tog‘larda o‘tga chidamli loy, qo‘ng‘ir ko‘mir, mis rudasi, oltin konlari aniqlangan. Nurota tog‘larida marmar (G‘ozg‘on marmari), volfram konlari bor.

Baland tog‘larning yonbag‘irlarida, past tog‘larning tepa qismida ***yaylov mintaqasi*** mavjud.

Yaylov mintaqasida yilning ko‘p qismida havo sovuq, yer ustini qor qoplab yotadi. Yoz qisqa bo‘lib, yog‘in ko‘p yog‘adi. Yaylovning qulay joylaridan chorvachilikda foydalaniladi.

Suv boyliklari. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, sanoati va aholisini suv bilan ta’minlashda tog‘lardagi qorlar asosiy suv manbayi xizmatini o‘taydi. O‘lkamizdagi daryolarning deyarli hammasi tog‘lardan boshlanadi.

Daryolardagi yillik suvning 70–95 foizi 3–4 oy davomida bahor oylariga va yoz boshiga to‘g‘ri keladi. Daryo suvlari barpo etilgan ***suv omborlari***ga yig‘ilib, yil davomida tejab sarflanadi.

Oqar suvlarni ifloslantirmaslik uchun sanoatda hamda maishiy-kommunal xo‘jalikda foydalaniladigan suvlar tozalab chiqariladi. O‘zbekistonda suv tabiiy boylikkina emas, balki milliy qadriyat ham hisoblanadi.

Daryolarimiz sug‘orishdan tashqari, elektr energiya manbayi sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Endilikda daryolarga qurilgan GESlardan yiliga o‘rtacha 5 mlrd kW·h elektr energiya olinmoqda. O‘zbekiston sharoitida sun’iy suv ombori barpo etish maqsadida daryoni to‘g‘on bilan to‘sish tufayli bir yo‘la GES qurish imkonidan foydalanilmoqda.

Yer boyliklari. O‘zbekistonning umumiy yer maydoni 44,4 mln gektarni tashkil etadi. Buning qariyb yarmi qishloq xo‘jaligiga tegishli maydonlardir.

O‘lkamiz katta yer boyligiga ega bo‘lsa-da, undan ham omilkorlik bilan foydalanish kerak. Aks holda yerlar sho‘rxokka, jarlikka va cho‘lga aylanishi mumkin. Zovur qazib, yerosti suvlarini qochirish, vaqti-vaqti bilan tuproqni yuvib turish, almashlab ekishga rioya qilish kabi melioratsiya va agrotexnika choralari yerdan to‘g‘ri foydalanishning muhim tadbirlari hisoblanadi.

1. Tabiiy sharoitning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi ahamiyatini tushuntiring.
2. O‘lkamiz hududidagi foydali qazilma konlarini yozuvsiz xaritaga belgilang.
3. Maktabingiz joylashgan tumanni quyidagi reja asosida geografik ta’riflang: a) geografik o‘rnining xususiyatlari; b) dehqonchilik va chorvachilikda foydalanish mumkin bo‘lgan yerlar; d) qo‘shimcha yerlarni o‘zlashtirish istiqbollari; e) mavjud yem-xashaklar chorvachilik ehtiyojini qay darajada qondira olishi; f) tabiat boyliklarini muhofaza qilish va ulardan to‘g‘ri foydalanish yuzasidan qanday tadbirlar o‘tkazilayotganligi.

7-dars

O‘ZBEKISTON AHOLISI

O‘zbekiston kelajakda buyuk davlat bo‘lishi uchun qulay tabiiy sharoit ham, xilma-xil tabiiy boyliklar ham yetarlidir. Ammo bu boyliklar odamlarning aqliy va jismoniy mehnati orqaligina kishilar ehtiyojiga, jamiyat ravnaqiga xizmat qilishi mumkin. Millionlar mehnatini oqilona tashkil etish uchun aholi soni, tarkibi va mamlakat bo‘ylab joylashishi hisobga olinishi lozim.


O‘zbekiston aholi va inson omili (mehnat resurslari)ni takror ishlab chiqaruvchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining aholisi 2019-yil 33,2 mln kishidan ortgan (7-rasm).

Birlashgan Millatlar Tashkilotining aholishunoslik jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra (2018-y.) O‘zbekiston aholi soni bo‘yicha jahonda 44-o‘rinda turadi. Aholi o‘lganlar soniga nisbatan tug‘ilganlar sonining ortiqligi hisobiga doimo ko‘payib boradi. Bunday ko‘payish aholining ***tabiiy ko‘payishi*** deyiladi. Aholi ***migratsiya*** hisobiga ham ko‘payadi. Buni aholining ***mexanik ko‘payishi*** deyiladi (8-rasm).


Migratsiya – ko‘chish degan ma’noni bildiradi. Migratsiya ichki migratsiya va tashqi migratsiyaga bo‘linadi. ***Ichki migratsiya*** – aholining mamlakat ichkarisida, uning rayonlari o‘rtasida yoki qishloq joylardan shaharlarga ko‘chib yurishi. ***Tashqi migratsiya*** – mamlakatdan ko‘chib ketish (***emigratsiya***) yoki mamlakatga ko‘chib kelish (***immigratsiya***).



7-rasm. O‘zbekiston aholisining ko‘payishi (mln kishi hisobida).



8-rasm. Aholining tabiiy va mexanik ko‘payishi (2018-yil, ming kishi hisobida).



9-rasm. O‘zbekiston aholisining umr davomiyligi (yosh).

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda aholining tug‘ilishi va o‘lim ko‘rsatkichlarida ham o‘zgarishlar kutildi. 1991-yilda respublikada 723,4 ming nafar bola tug‘ilgan bo‘lsa, keyingi yillarda tug‘ilish soni kamayib, 2001-yilda tug‘ilish 513 ming nafarni tashkil etdi. Keyinchalik aholi sonining ortishi, uning turmush farovonligi ko‘tarilishi bilan tug‘ilish soni ham ko‘paydi va 2017-yilga kelib 716 mingdan ortiq chaqaloq dunyoga keldi. Ayni paytda O‘zbekiston aholisi yiliga yarim mln dan ortiq kishiga ko‘payib bormoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, mustaqillikning dastlabki 10 yilligida tug‘ilganlar soni kamayish tendensiyasiga ega bo‘lsa, ikkinchi o‘n yillik va undan keyingi davrda tug‘ilishlar soni ko‘paygan.

Aholi tabiiy ko‘payishining yuqori sur’atlari aholi zichligi (1 kv.km hududga to‘g‘ri keladigan aholi soni)ning ortishida ham o‘z ifodasini topmoqda. Bundan I asr avval mamlakatimiz bo‘yicha aholining zichligi har bir kvadrat kilometrga 10–11 kishini tashkil etgan bo‘lsa, endilikda bu ko‘rsatkich 70 kishidan oshib ketdi.

Aholining yashash sifati ko‘rsatkichlaridan biri bu tug‘ilishda kutilgan umr davomiyligi hisoblanadi. Mamlakatimizda 2016-yil mazkur ko‘rsatkich 73,8 yoshni tashkil etgan (9-rasm).

Tug‘ilishda kutilgan umr davomiyligi ko‘rsatkichi so‘nggi yillarda o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib, jumladan, 1991-yilda ushbu ko‘rsatkich 66,4 yoshni tashkil etgan bo‘lsa, 2000-yilda 70,8 yoshni, 2010-yilda 73,0 yoshni tashkil etdi.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan barcha sohalar kabi tibbiyot sohasida ham jiddiy islohotlar olib borish ishlari boshlandi. Tibbiyot sohasida davlatimiz tomonidan ko‘plab qonun, farmon, qaror va

dasturlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etila boshlandi. Mazkur chora-tadbirlar natijasida respublikada o‘lim darajasi, jumladan, bolalar va onalar o‘limi ko‘rsatkichlari pasaydi va bu o‘z navbatida respublika aholisi o‘rtasida umr davomiyligi ko‘rsatkichini o‘sishiga ta’sirini ko‘rsatdi.

1. Darslik ilovasidagi 1-jadvaldan foydalanib, aholi qaysi viloyatda zich va qaysinisida siyrak joylashganligini aniqlang hamda sababini tushuntiring.
2. Inson omili nima? Uning iqtisodiyot rivojlanishi va joylanishiga ta’siri nimalarda ko‘rinadi?
3. Iqtisodiyotning inson omiliga bo‘lgan ehtiyoji qanday to‘ldiriladi?


8-dars O‘ZBEKISTON AHOLISINING TARKIBI

Mehnat resurslari. Aholining hammasi mehnatga yaroqli hisoblanmaydi. Erkaklarning 16 yoshdan 60 yoshgacha, ayollarning 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lganlarigina mehnatga yaroqli hisoblanadi. Ishlab chiqarishning ba’zi sohalarida 50 yosh, hatto 40 yoshdan nafaqaga chiqariladi. Ayni vaqtda nafaqa yoshidagilar xohlasa ishlashlari ham mumkin. Shuningdek, 15 yoshga to‘lgan o‘quvchilar o‘qishdan bo‘sh vaqtlarida ishlashlariga ruxsat etilgan.

Mehnatga yaroqlilar mamlakat jami aholisining yarmidan ortig‘ini tashkil etadi. Mehnatga yaroqlilarning asosiy qismi sanoatda, qishloq xo‘jaligida, qurilishda band. Ular foydali qazilmalar, mashinalar, oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaradi, paxta, g‘alla, kartoshka, uzum yetishtiradi, binolar bunyod etadi, ya’ni moddiy boylik yaratishadi. Ta’lim, fan, madaniyat, tibbiyot xodimlarining mehnat natijalari boshqacharoq. Ularning mehnat natijalari ham foydali va zaruriydir (10-rasm).

Kishilarning mehnat faoliyati ikki sohaga – moddiy ne’mat ishlab chiqaruvchi va moddiy ne’mat ishlab chiqarmaydigan sohalarga bo‘linadi.

Fan va texnikaning rivojlanishi bilan moddiy ne’mat ishlab chiqarmaydigan sohaning roli va bu sohada ishlovchilar soni ortib boradi. Buning uchun, avvalo, ishlab chiqaruvchi sohada mehnat unumdorligi o‘sishi zarur. Faqat shundagina ishlab chiqaruvchi sohadagi mehnatga yaroqli aholining bir qismi ishlab chiqarmaydigan sohalarga o‘tishi




10-rasm. Mehnatda band aholining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi (2017-yil).


mumkin. Mehnatga yaroqlilarning soni va malakasi qatori ma’naviy yetukligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Aholining jinsiy tarkibi. Aholi tarkibiga jins va yosh jihatdan yondashish katta ahamiyatga ega (11-rasm). Chunki aholini va inson omilini takror ishlab chiqarish xuddi ana shu jihatlarga bog‘liq.

Ikkinchi jahon urushining asorati tufayli 1945–1960-yillarda O‘zbekiston aholisi tarkibida erkaklar soni ayollar sonidan ancha kam edi. Yillar o‘tishi bilan bu tafovut qisqara bordi. 1959-yilga kelib ayollar 52 foizni, erkaklar 48 foizni tashkil etdi. Hozirgi vaqtda aholi tarkibida erkaklar va ayollar soni deyarli o‘zaro tenglashdi.



11-rasm. Aholining yosh va jins tarkibi (mln kishi hisobida).



12-rasm. Aholining milliy tarkibi (foiz hisobida).

Aholining milliy tarkibida ham so‘nggi o‘n yilliklarda turli millat vakillarida tug‘ilishning turlicha miqdorda ekanligi hamda migratsiya hisobiga sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi (12-rasm). O‘zbeklar salmog‘i 1989-yilda 71,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilga kelib qariyb 84 foizga yetdi. Shuningdek, mamlakatda qoraqalpoq va tojiklarning salmog‘i ham oshdi.

Aholining milliy tarkibiga hamohang ***diniy tarkibi*** ham xilma-xil. Uning asosiy qismini musulmonlar tashkil etadi.

1. Ishlab chiqaruvchi sohadagi kishilar faoliyati ishlab chiqarmaydigan sohadagi kishilar faoliyatidan nimalar bilan farq qiladi?
2. 12-rasmdan aholi milliy tarkibini tahlil qiling. Turli millat vakillari salmog‘ida qanday o‘zgarish kechayotganini aniqlang.
3. Aholining yosh va jins piramidasini tahlil qiling. Unda daf’atan erkaklar, 25 yoshdan oshgan aholida esa ayollar salmog‘i ortiqligi sabablarini izohlang.

9-dars

AHOLI PUNKTLARI

Tabiiy sharoit, kishilar mashg‘uloti hamda turli iqtisodiy-ijtimoiy, tarixiy omillar ta’sirida shahar, shaharcha, qishloq, ovul ko‘rinishidagi aholi punktlari tarkib topgan.


Mamlakatimizda ***119 ta shahar***, ***1071 ta shaharcha*** hamda ***11 mingdan ortiq qishloq*** va ***ovul*** bor (2019-yil).

Shahar qiyofasidagi Samarqand, Qo‘qon, Buxoro, Xiva, Toshkent kabi aholi punktlari hunarmandchilik va savdo-sotiq paydo bo‘lganidan so‘ng vujudga kelgan. Ular dunyodagi eng qadimiy shaharlardan hisoblanadi.


XX asr boshlarida O‘zbekiston hududida 20 ga yaqin shahar bo‘lgan, ular daryo hamda soy bo‘ylarida yoki karvon yo‘llarida vujudga kelgan. Jahongashta arab sayyohi Ibn Battuta o‘rta asrdagi shaharlarimiz go‘zalligini tasvirlagan, undan zavq olgan: «*Biz sahroni kesib o‘tib Xorazmga keldik. Bu turkiylarning katta, muhim, chiroyli va ulug‘vor shahri bo‘lib, ajoyib bozorlari, keng ko‘chalari juda ko‘p, imoratlari jozibador, ko‘rkam joylari bor. Shaharda hayot qaynaydi, aholisi shunchalik ko‘pki, u mavjlanib turgan dengizni eslatadi*». Ibn Battuta Samarqand shahri bo‘ylab sayr etarkan, uni shunday ta’riflaydi: «*Samarqand – juda yirik va g‘oyat go‘zal shaharlardan biridir. U Voha al-Qassirin daryosining qirg‘og‘ida joylashgan. Daryo qirg‘og‘ida shunday ulkan saroylar va binolar qad ko‘tarib turadiki, ular Samarqand aholisining yuksak mahorat sohibi ekanligidan dalolatdir*».

Endilikda qadimiy shaharlarda turli davr me’morchilik namunalari bilan ko‘p qavatli ko‘rkam binolar, to‘g‘ri va keng ko‘chalar uyg‘unlashib ketdi.

Shaharlar aholi soniga qarab katta shaharlar (aholisi 100 mingdan ortiq), yirik shaharlar (aholisi 250 mingdan ortiq), juda yirik shaharlar (aholisi 500 mingdan ortiq) va «millioner shaharlar»ga ajratiladi (13–14-rasmlar).



13-rasm. O‘zbekiston shaharlari.



14-rasm. Aholisi 100 ming kishidan ko‘p bo‘lgan shaharlar (ming kishi hisobida).

Ular bir qancha vazifalarni (funksiyalarni) bajaradi. Bunday shaharlar ***ko‘p funksiyali shaharlar*** deyiladi. Masalan, Toshkent – mamlakat poytaxti, sanoat shahri, transport tuguni, tarixiy-madaniy markaz. Samarqand esa viloyat markazi, sanoat markazi va tarixiy-madaniy markazdir.

Ko‘p funksiyali shaharlar juda tez rivojlanadi, ular yonida ***yo‘ldosh shaharlar*** vujudga kelib, ***aglomeratsiya***larni hosil qiladi. Toshkent mamlakatimizda eng katta shahar aglomeratsiyasidir.

Aholi punktining shahar maqomini olish sharti turli mamlakatlarda turlichadir.



O‘zbekistonda aholi punkti ***shahar*** maqomini olishi uchun uning aholisi 7 ming va undan ko‘p bo‘lishi, yashayotgan aholining 2/3 qismi ishchi va xizmatchilar hamda ularning oilalaridan iborat bo‘lishi kerak.

Aholi punktiga shahar maqomini berishda unda shahar turmush tarzining holati ham hisobga olinadi (15-rasm).

Shaharchalar sanoat rivojlanayotgan, tabiiy boyliklar o‘zlashtirilayotgan joylarda vujudga keladi. Iskandar, Kegayli, Ulug‘bek, G‘ozg‘on, Zomin shaharchalari shular jumlasidandir. Bunday shaharchalarning ko‘pchiligida aholining aksariyati muayyan tarmoqdagina xizmat qiladi (neftchilar shaharchasi, konchilar shaharchasi).

Yangi shaharlar (Angren, Bekobod, Olmaliq, Chirchiq, Navoiy, Uch-



15-rasm. Shahar turmush tarzi ifodalanadigan sohalar.

quduq, Taxiatosh, Zarafshon va boshqalar) asosan foydali qazilmalar va suv boyliklari mavjud hududlarda bunyod bo‘lgan. Tohchiyon shaharchasi (Surxondaryo viloyati) ko‘mir koni negizida vujudga kelgan. Yangi yerlarni o‘zlashtirish, qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlovchi sanoat negizida Yangiyo‘l, Guliston, Yangiyer kabi shaharlar qad ko‘tardi.

Aholi punktlarini yuksaltirishda quyidagilar e’tiborda bo‘ladi:

- shaharlarni rejalashtirishda kishilarning turar joyi bilan ish joyi orasi 4–5 km dan uzoq bo‘lmasligi;
- qadimiy shaharlarni zamonaviy qulayliklarga ega qilib qayta qurish;
- yirik shaharlarda aholi ko‘payib ketishi hamda ekologik vaziyatning buzilishiga sabab bo‘ladigan korxonalar qurilishini cheklash va bor-larini ko‘chirish.

Qishloq aholi punktlari. Aholisining asosiy faoliyat turi qishloq xo‘-jaligini yuritish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash va boshqa qishloq joylarga xos bo‘lgan faoliyatni yuritish hisoblanadigan joylar qishloq aholi punktlari deb yuritiladi.

Qishloq aholi punktlari aholisi soniga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi:


Yirik aholi punktlari – aholisi soni 5 ming kishidan ko‘p;

Katta aholi punktlari – aholisi soni 3 ming kishidan 5 ming kishigacha;

O‘rta aholi punktlari – aholisi soni 1 ming kishidan 3 ming kishigacha;

Kichik aholi punktlari – aholisi soni bir ming kishigacha.

Tabiiy, iqtisodiy va tarixiy sabablarga ko‘ra mamlakatimizda qishloqlar bir-biriga yaqin joylashgan va aholisi ko‘p. Mamlakatimizda aholining o‘sish sur’atlari qishloq aholi manzilgohlarining soni va maydonining



16-rasm. Qishloq va shahar aholisi salmog‘ining o‘zgarishi.

kengayishiga olib kelmoqda. Katta qishloqlarda zamonaviy binolarga ega ta’lim muassasalari, madaniy-maishiy muassasalar, shifoxonalar jadal qurilmoqda. Ular tabiiy gaz, ichimlik suvi, elektr energiya bilan uzluksiz ta’minlanmoqda. Shu tariqa qishloq aholisining turmush sharoiti shaharliklarning turmush tarziga yaqinlashmoqda.

O‘z navbatida qishloq aholi punktlarining kengayishi qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarni kamayishiga olib kelmoqda. Shu sababli qishloq aholi punktlari chegarasini belgilash va o‘zgartirish tuman hokimiyati organlari tomonidan, ularning rejalashtirilishi, qurilishi hamda xo‘jalik ichidagi yer tuzilishi loyihalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Qishloq joylarda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi tufayli ko‘plab sanoat korxonalari barpo etilmoqda. Yuqoridagi omillar tufayli endilikda ko‘pgina qishloq aholi punktlariga shaharcha maqomi berildi, natijada mustaqillikkacha 60 foiz aholisi qishloqda istiqomat qilgan agrar respublika aholisining yarmidan ortig‘i shaharlarda yashamoqda (16-rasm).

1. O‘zbekistonda shaharlarning vujudga kelishiga ko‘proq qanday omillar ta’sir qilmoqda?
2. Xaritadan foydalanib:

a) foydali qazilma konlari; b) transport tugunlari; d) qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi asosida tarkib topgan shaharchalarning nomlarini daftaringizga yozib oling.

3. Siz yashayotgan yoki sizga yaqin bo‘lgan shahar qanday funksiyalarni (vazifalarni) bajaradi?
4. Siz aholi punktlarining qanday turlarini bilasiz?
5. Aholi mashg‘uloti uning geografik tarqalishi va zichligiga aloqadorligini misollar bilan tushuntiring.


III BOB. MILLIY IQTISODIYOTNING TARKIBIY TUZILISHI

10-dars


O‘ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTINING TUZILISHI

Jahonning siyosiy xaritasida 1991-yil 1-sentabr kuni yangi mustaqil davlat – O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘ldi. Shu kundan boshlab u «o‘ziga xos va o‘ziga mos» taraqqiyot yo‘lini tanladi. Bu yo‘lning o‘ziga xosligi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning 5 tamoyilida yaqqol ifodalangan.

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish tamoyillari: **1.** Iqtisodning



17-rasm. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining tuzilishi.



18-rasm. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (yalpi ichki mahsulotga nisbatan foiz hisobida).

siyosatdan ustun turishi. **2.** Davlat islohotlar tashabbuskori. **3.** Barcha sohalarda qonun ustuvorligi. **4.** Kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish. **5.** Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan O‘zbekiston iqtisodiyotining tuzilishi butkul o‘zgarmoqda. Yaqin o‘tmishdagi qishloq xo‘jaligi yetakchi bo‘lgan mamlakatimizda sanoatning, xususan, og‘ir sanoatning salmog‘i oshmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq qishloq xo‘jaligida paxta yakkahokimligini bartaraf etishga kirishildi. Sanoat esa avtomobilsozlik, kompyuter texnikasi, mobil telefonlar, keng turdagi maishiy elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaradigan yangi tarmoqlar hisobiga ko‘p tarmoqli bo‘la boshladi. Mamlakatimizda **2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi** qabul qilingach, milliy iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish yangi bosqichga ko‘tarildi. Jumladan, Harakatlar strategiyasining «Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish» deb nomlangan uchinchi ustuvor yo‘nalishida milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko‘rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko‘paytirish vazifasi qo‘yilgan. Shu sababli mamlakatimizda sanoatning, birinchi navbatda og‘ir sanoatning ulushi jadal o‘sib bormoqda. Ana shunday o‘zgarishlar natijasida ***yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 30,6 foizdan ziyodni tashkil etmoqda*** (2018-y.). Holbuki, bu ko‘rsatkich 2000-yilda 14,2 foizdan iborat edi. Endilikda

mamlakatimiz iqtisodiyoti o‘zaro bog‘langan sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, qurilish, aloqa, savdo, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi tarmoqlarni o‘zida birlashtiradi (17-rasm).

Og‘ir sanoat, ayniqsa, mashinasozlikning jadal yuksalishi qishloq xo‘jaligi, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari unumli-samarador mashina va mexanizmlar bilan qayta jihozlanishiga, mamlakat mudofaa quvvatining kuchayishiga imkon beradi. Eng muhimi, mamlakat texnik qaramlikdan qutuladi.

Mamlakatning bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tishining yana bir sharti kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Kichik biznesni har tomonlama qo‘llab-quvvatlanishi va yanada rivojlantirish natijasida uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi muttasil oshmoqda (18-rasm).

Mustaqillikka qadar O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, asosan, ***ekstensiv*** yo‘l bilan rivojlandi.

Ekstensiv xo‘jalik yuritish – ishlab chiqarishni fan-texnika yutuqlari va zamonaviy mexanizatsiya imkoniyatlari o‘rniga tabiiy boyliklarni jadal o‘zlashtirish hisobiga yuksaltirish usuli.

Ekstensiv xo‘jalik yuritish usuli natijasida yoqilg‘i, energiya, inson omili, ayniqsa, suv ko‘p sarflandi. Suv sarfining ko‘payishi Orol fojiasini keltirib chiqargan sabablardan bo‘ldi. Yerdan foydalanishdagi xatoliklar esa tabiatning ifloslanishi va tuproq unumdorligining pasayishiga olib keldi.

Demak, ***ekstensiv yo‘l*** muayyan vaqt taraqqiyotini ta’minlasa-da, uning jiddiy salbiy oqibatlari ham bo‘ladi. Shu sababli davlatimiz intensiv xo‘jalik yuritish usuliga o‘tish vazifasini ilgari surmoqda.

Intensiv xo‘jalik yuritish – fan va texnika yutuqlarini iqtisodiyotga tezkor joriy etuvchi, xomashyo va boyliklarni tejab-tergab, chiqindi chiqarmay to‘liq foydalanish usuli.

Intensiv xo‘jalik yuritish usulidan foydalangan holda xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda zamonaviy texnologiyaga asoslangan qo‘shma korxonalar tashkil qilinmoqda.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining ***intensiv yo‘l***dan rivojlanishi mehnat unumdorligi, mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligining jahon darajasiga yetishini ta’minlaydi.

1. Ishlab chiqarishni intensivlashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Ekstensiv yo‘l qanday natijalarga olib keladi?
3. Qaysi sohalar moddiy ne’mat ishlab chiqarmaydigan sohalar hisoblanadi?


11-dars

SANOAT – MILLIY IQTISODIYOTNING TAYANCH TARMOG‘I


Mustaqillikkacha yurtimiz, asosan, paxtachilik va qorako‘lchilikkagina ixtisoslashgan bo‘lsa, endilikda O‘zbekiston iqtisodiyoti yuzlab ixtisoslashgan tarmoqlarga ega (19-rasm).

Sanoat – milliy iqtisodiyotning moddiy ne’matlar ishlab chiqaruvchi muhim tarmog‘idir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida texnika taraqqiyoti sanoatga bog‘liq. Sanoatning rivojlanishi bilan yangi aholi punktlari, transport yo‘llari vujudga keladi. Qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo-sotiqning taraqqiyot darajasi o‘sadi, sanoatning rivojlanishi bilan tabiatdan foydalanish ham jiddiy o‘zgaradi.

Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari singari sanoat ham turli joylardagi korxona (zavod, kon, elektr stansiya kabi)lardan iborat. Sanoat korxonalarining aksariyat qismi davlat mulki bo‘lib keldi va bugungi kunda ular xususiylashtirilmoqda. Xususiylashgan sanoat korxonalari bozor munosabatlariga xos talab va taklif asosida ishlaydi. Bu jarayon sanoatning rivojlanish dinamikasiga



19-rasm. Muhim sanoat tugunlari.



20-rasm. Sanoat tarmoqlarining mahsulot ishlab chiqarish tarkibi (foiz hisobida).

ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston sanoatida gaz qazib chiqarish, rangli metallurgiya, mashinasozlik va metallga ishlov berish, yengil va oziq-ovqat sanoatlari yetakchilik qilmoqda (20-rasm).

Sanoat, qishloq xo‘jaligi va transportning hududiy joylashuviga bir qator omillar ta’sir etadi. Shulardan eng muhimi fan-texnika kashfiyotlaridir: energiya va xomashyoning yangi turlari, yangi texnologik jarayonlar, yangi transport vositalaridan foydalanish orqasidan ishlab chiqarishni joylashtirish tamoyillari ham takomillashadi. Korxonalar xomashyo, yoqilg‘i, energetika, suv va hatto ishchi kuchi (inson omili)dan foydalanishi bo‘yicha ko‘p xomashyo, ko‘p energiyatalab, ko‘p suv va ko‘p mehnattalab sifatlarda guruhlanadi. Ularning har biriga xos tayanch korxona doirasida o‘nlab mayda korxonalar ishlab chiqarish bo‘yicha aloqador bo‘ladi. Buni ***ishlab chiqarishning kombinat shakli*** deyiladi.

Korxonalar har xil kattalikda bo‘ladi. Masalan, aksariyat tikuvchilik korxonalari birgina binoga joylashsa, neftni qayta ishlash va metallurgiya kombinatlari kabi korxonalar o‘rtacha kattalikdagi shahar maydoniga teng hududni egallaydi.

Texnika taraqqiyoti davrida mehnat unumdorligini oshirishda ishlab chiqarishni markazlashtirishdan foydalanildi.

Ishlab chiqarishning markazlashuvi – ishlab chiqarishning yirik korxonalarda to‘planishi.

Biroq o‘tgan asrning o‘rtalarida vujudga kelgan ishlab chiqarishni tashkil etishning bu shakli endilikda ijtimoiy va ekologik muammolarning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda.

Ma’lumki, mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi qishloqlarda yashaydi. Qishloq aholisini ish bilan ta’minlash uchun ixtisoslashgan korxonalarni ko‘proq qishloq joylarda barpo qilgan ma’qul. Shu bois, ulkan kombinatlardan ko‘ra tor ixtisosdagi o‘rtacha hamda kichik korxonalar barpo etishga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Buning natijasida ***ixtisoslashuv***, ya’ni ishlab chiqarishning asosan bir xil mahsulot chiqaradigan tashkiliy shakli vujudga keladi. Ixtisoslashgan korxonalarda ishchilarning mehnat malakalaridan yaxshiroq foydalaniladi, mahsulot birligiga qilinadigan sarf kam bo‘ladi va pirovard natijada mehnat unumdorligiga erishiladi. Bunday ixtisoslashgan korxona o‘ziga xomashyo, detallar, mashina qismlari va boshqalarni yetkazib beradigan boshqa korxonalar bilan ***kooperativlashuv*** aloqalarini o‘rnatadi.



Kooperativlashuv (hamkorlik) – tayyor mahsulot tayyorlashda bir qancha korxona qatnashadigan ishlab chiqarish shakli.

Ixtisoslashuv va kooperativlashuv ijtimoiy mehnat unumdorligini oshiradi. Fan-texnika kashfiyotlarini ishlab chiqarishga peshma-pesh tatbiq qilish uchun ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari tashkil qilinadi. Bunda mashinalar va materiallarning yangi turlarini yaratuvchi ilmiy tadqiqot institutlari bilan ularni ishlab chiqaruvchi korxonalar o‘zaro birlashadi. Shu bilan birga turli tarmoqlar o‘rtasida ishlab chiqarish aloqalarining kuchayishi ro‘y beradi. Ishlab chiqarish jarayoni o‘zaro bog‘langan tarmoqlardan tarmoqlararo majmualar tarkib topadi.



Majmua – ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy samaradorlikka qaratilgan muhim shakli.

Majmuada qaysi tarmoq muhim, yetakchi bo‘lsa, tarmoqlararo majmua shu nomda ataladi. Hozirda O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida bir necha tarmoqlararo majmualar shakllangan. Keyingi mavzularda ularni birma-bir ko‘rib chiqamiz.




1. Ishlab chiqarishning yiriklashishi deb nimaga aytiladi?
2. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperativlashuvi deganda nimani tushunasiz? Ixtisoslashgan korxonalar qanday afzalliklarga ega?
3. Mustaqillikdan keyingi davrda o‘rtacha va kichik korxonalar qurilishiga e’tibor qaratilganligining boisi nimada?

12-dars

YOQILG‘I-ENERGETIKA MAJMUASI

Bu majmuaga yoqilg‘i (yoqilg‘ini qazib olish va unga ishlov berish) va elektroenergetika sanoatlari kiradi (21-rasm). Elektr energiyasini ishlab chiqarish va undan foydalanish mamlakat iqtisodiyoti yuksalishining muhim omili hisoblanadi. Olimlar quyosh, shamol, geotermal energiya kabi bitmas-tuganmas energiya manbalaridan keng miqyosda foydalanish yo‘llarini izlamoqda.



21-rasm. Yoqilg‘i-energetika majmuasi tarkibi.

Energetika boyliklariga ***yoqilg‘i boyliklari*** (ko‘mir, neft, gaz, torf, slanes, o‘tin) va ***gidroenergiya boyligi*** (daryoning yuqoridan tushayotgan suvining energiyasi) kiradi. Yoqilg‘i boyliklari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha tarmoqlari uchun energiyaning asosiy manbayidir. Yoqilg‘i turli xillarining salmog‘ini taqqoslash uchun ular shartli yoqilg‘iga aylantiriladi.

Shartli yoqilg‘i deb 1 kg toshko‘mir yonganda hosil bo‘ladigan (7 mln kal) energiyaga aytiladi. Uning issiqlik koeffitsient darajasi 1 ga teng. Boshqa yoqilg‘ilar yonganda hosil qiladigan issiqlik 1 kg toshko‘mirning issiqlik koeffitsienti, ya’ni 1 ga qiyosan baholanadi (22-rasm).

Issiqligi (kaloriyasi) kam bo‘lgan yoqilg‘ilar (torf, slanes, qo‘ng‘ir ko‘mir) qazib olingan joyda foydalanilishi maqsadga muvofiq. Chunki ular uzoq masofalarga tashilganda tannarxi qimmatlashadi. Shu sababli ular mahalliy yoqilg‘i hisoblanadi. Yoqilg‘i boyliklarining qiymati faqat

Yoqilg‘i turi	1 kg yoqilg‘i yonganda chiqadigan issiqlik		Issiqlik koeffitsienti
	Joulda	Kaloriyada	
Tabiiy gaz	$4{,}4 \cdot 10^7$	$10{,}6 \cdot 10^6$	1,5
Neft	$4{,}4 \cdot 10^7$	$10{,}6 \cdot 10^6$	1,5
Toshko‘mir	$2{,}9 \cdot 10^7$	$7{,}0 \cdot 10^6$	1,0
Qo‘ng‘ir ko‘mir	$1{,}3 \cdot 10^7$	$3{,}1 \cdot 10^6$	0,45
Yonuvchi slanes	$1{,}8 \cdot 10^7$	$2{,}1 \cdot 10^6$	0,30
Torf	$1{,}4 \cdot 10^7$	$3{,}4 \cdot 10^6$	0,48
Quruq o‘tin	$1{,}0 \cdot 10^7$	$2{,}4 \cdot 10^6$	0,34

22-rasm. Turli xil yoqilg‘ilarning yonish issiqligi.

kaloriyasigagina bog‘liq bo‘lmay, foydalanish imkoniyatiga, qazib chiqarish xarajatiga ham bog‘liq. Eng tejamli yoqilg‘i neft va gazdir, chunki ularni qazib chiqarish va ishlatiladigan joyga quvurlar orqali yuborish arzon tushadi. Shunga ko‘ra turli xil yoqilg‘ini qazib chiqarish va undan foydalanish ko‘lami davriy o‘zgarib turadi (23-rasm).

Turli xil yoqilg‘ilarni qazib chiqarish va ishlab chiqarilgan energiya (kirim) hamda ulardan iqtisodiyotda foydalanish (sarf qilish) nisbati ***yoqilg‘i-energetika balansi*** deyiladi.



23-rasm. Yoqilg‘i sarfi dinamikasi (1995-yildagiga nisbatan foiz hisobida).

1. Energetika boyliklarining asosiy turlarini aytib bering.
2. Yoqilg‘i-energetika balansi deganda nimani tushunasiz?
3. O‘zbekiston yoqilg‘i-energetika balansida qanday o‘zgarishlar bo‘lmoqda va bunga sabab nima?

NEFT VA GAZ SANOATI

11-dars mavzusidan yoqilg‘i sanoatining yalpi sanoat mahsulotidagi salmog‘ini aniqlang.

Gaz sanoati. Yoqilg‘i sanoatining eng yosh tarmog‘i bo‘lgan gaz sanoati keyingi yillarda jadal rivojlanmoqda. Gaz – yoqilg‘ining juda arzon turi. Gazdan sanoatda ham, maishiy hayotda ham foydalaniladi. Gaz qimmatbaho kimyoviy xomashyo hamdir. Yoqilg‘ining boshqa turlariga qaraganda gaz havoni eng kam ifloslantiradi.

Mamlakatimizda ko‘mir va neftga nisbatan tabiiy gaz ancha ko‘p. Gaz konlari neft konlari bilan yonma-yon joylashgan. Gazning ozroq qismi (yo‘ldosh gaz) neft bilan birga qazib chiqariladi, lekin gazning asosiy qismi sof gaz konlaridan olinadi. Respublikamizda o‘tgan asrning o‘rtalarida dastlab Farg‘ona vodiysidagi neft konlarida uchraydigan yo‘ldosh gazdan sanoatda va aholining maishiy ehtiyojida foydalanila boshlandi. O‘sha paytda O‘zbekistonda yiliga o‘rtacha 9 mln kub metr tabiiy gaz qazib chiqarilgan bo‘lsa, endilikda yiliga qazib olinayotgan gaz 60 mlrd kub metrga yaqin bo‘lmoqda. Tabiiy gazdan foydalanish tufayli mamlakat yoqilg‘i balansida jiddiy o‘zgarish yuz berdi.

Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti – OPEKning rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekiston tabiiy gaz qazib oluvchi mamlakatlar reytingida 14-o‘rinni egallaydi (24-rasm).

№	Mamlakat	Yiliga mlrd metr³	Ulushi (%)	№	Mamlakat	Yiliga mlrd metr³	Ulushi (%)
1	AQSH	751,063	20,66	10	Turkmaniston	81,765	2,25
2	Rossiya	642,242	17,66	13	BAA	61,084	1,68
3	Eron	226,905	6,24	14	O‘zbekiston	57,700	1,59
4	Qatar	182,830	5,03	15	Avstraliya	56,293	1,55
5	Kanada	174,051	4,79	16	Niderlandiya	50,543	1,39
6	Xitoy	136,628	3,76	18	Buyuk Britaniya	43,022	1,18
8	Saudiya Arab.	110,860	3,05	22	Meksika	41,227	1,13
Manba: OPEK, 2017-y.				26	Hindiston	31,139	0,86

24-rasm. O‘zbekistonning tabiiy gaz qazib oluvchi mamlakatlar orasidagi o‘rni.

Farg‘ona vodiysidan tashqari Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidan boy tabiiy gaz konlari topilishi natijasida O‘zbekiston gazni eksport qila boshladi (25-rasm).

Gaz quvurlar orqali yuborilishi sababli transport xarajati har qanday yoqilg‘ini tashishdan arzon tushadi.

Gaz quvurlarining uzunligi tez oshib bormoqda. Dastlabki tabiiy gaz quvurlari Farg‘ona vodiysida qurilgan edi. O‘zbekistonda issiq kunlar ko‘pligidan faqat qish kunlari gaz ko‘p talab qilinadi. Gazni ko‘p iste’mol qiladigan Toshkent, Farg‘ona, Andijon kabi shaharlarda yozda tejalgan gazni yerosti omborlariga yig‘ib qo‘yib, qishda foydalaniladi. Gaz sifatli yoqilg‘igina emas, balki kimyo sanoatining qimmatli xomashyosi hamdir. Gazga bo‘lgan talab kimyo, issiqlik elektr stansiyalari va maishiy xo‘jalikda tobora ortib bormoqda. Shunga ko‘ra qo‘shimcha gaz chiqarish yo‘llari izlanmoqda, gaz quvurlarining gaz o‘tkazish imkoniyati oshirilmoqda.

Neft sanoati. Neftsiz hozirgi zamon iqtisodiyotini yuritish mumkin emas. Neft xom holida ishlatilmaydi. Qayta ishlash natijasida undan turli xil yoqilg‘i, ya’ni kimyoviy mahsulotlar olinadi. Neftni qazib chiqarish xarajati ko‘mirni qazib chiqarish xarajatidan o‘rta hisobda 4 barobar kam. Milliy iqtisodiyotda neftdan keng foydalanish juda ko‘p mablag‘ni tejashga imkon beradi.



Mahsulot birligini olish (aytaylik, 1 t neft qazib chiqarish) uchun ketadigan pulda ifodalangan hamma xarajat ***mahsulot tannarxi*** deyiladi.

Neftning tannarxi u qanday chuqurlikdan olinayotganligidan ko‘ra konning neftga qanchalik boyligiga bog‘liq. Neft qazib olishning eng arzon usuli fontan usuli bo‘lib, bunda neft quduqlardan kondagi bosim tufayli otilib chiqadi. Bosim kamaygan holda uni turli usullar bilan ko‘tarib turiladi. Neftni nasoslar yordamida chiqarib olish ham keng tarqalgan. Gaz singari neftni ham quvurlar orqali yuborish uni tashishning eng arzon va xavfsiz usulidir *(temiryo‘lda tashishga nisbatan 4 barobar arzonga tushadi).* Quvur transporti neftni iste’molchilarga bir maromda yetkazib berishni ta’minlaydi. Turli transport vositalariga ortish-tushirishdagi muqarrar isrofgarchilikka barham beriladi.



25-rasm. Muborak gazni qayta ishlash korxonasi.

Ilgarigi vaqtda neft qayerda qazib chiqarilsa, o‘sha yerda qayta ishlanar edi. Hozirda neftni qayta ishlash sanoati mahsulotlari



26-rasm. Neft-gazli mintaqalar.

qayerda ko‘p iste’mol qilinsa, neft o‘sha yerga yetkazilib, qayta ishlanadi. Bunday qilinmasa, neft mahsulotlarining har bir turini yuborish uchun alohida quvurlar kerak bo‘lib, transport xarajatlari qimmatlashib ketadi.

Mamlakatimizda olib borilgan geologiya qidiruv ishlari natijasida ko‘plab gaz-neft konlari topilmoqda (26-rasm). Jumladan, 1992-yilda Namangan viloyatida Mingbuloq neft koni ochildi.

Neftga bo‘lgan ehtiyojning uzluksiz ortayotganligini hisobga olib, Buxoro viloyatida yiliga 5 mln tonna neftni qayta ishlay oladigan zavod qurildi. Bu korxona 1997-yildan mahsulot bera boshladi. Hozir 50 turdan ortiq neft mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

O‘zbekistonda iste’molga yetishmayotgan neft xorijdan import qilinmoqda. Hozirda neftni qayta ishlash korxonalari bir yilda 11 mln tonna neftni qayta ishlash quvvatiga ega.

Rivojlangan mamlakatlarga qiyoslaganda bizda energiya iste’moli tarkibida neft mahsulotlarining ulushi ancha yuqori. Yoqilg‘i-energetika balansida neft mahsulotlari ulushi kelgusida kamayishi zarur. Buning uchun mavjud avtomobil va traktorlarni yangi tejamkor texnologiya bilan jihozlash kerak bo‘ladi. Bu ko‘p mablag‘ talab etadigan va ancha murakkab vazifa. Binobarin, yaqin o‘n yilliklarda ham yoqilg‘i-energetika balansida neftning ulushi barqaror saqlanib turadi.

1. Dastlabki ishga tushirilgan gaz konlarini geografiya daftaringizga yozing.
2. Gaz quvurlari qaysi shaharlarga qaysi kondan kelishini xaritadan aniqlang.
3. Neft olinadigan konlarni xaritadan aniqlang.
4. Gaz va neftni qayta ishlash korxonalarini joylashtirish qanday umumiylikka ega?

KO‘MIR SANOATI

Bu sanoat tarkibida bir nechta ko‘mir koni mavjud. Ulardagi ko‘mir zaxirasi 2 mlrd tonnani tashkil etadi. Dastlabki ko‘mir Angren konidan 1950-yillarda qazib olingan. Ko‘mir koni yer sirtiga yaqin joylashgan. Unda ko‘mirning 9/10 qismini ochiq usulda qazib olinmoqda (27-rasm).



27-rasm. Angren konida ko‘mirning ochiq usulda qazib olinishi.


Ochiq usulda har bir shaxtyorning qazib oladigan ko‘miri shaxta usulida qazib olinadigandan 6 barobar unumli bo‘ladi. Shu bilan birga, karyer (havza) qancha katta bo‘lsa, xarajat shuncha kam bo‘ladi. Angren ko‘miri sifati past – qo‘ng‘ir ko‘mirdir. Shunday bo‘lsa-da, O‘zbekistondagi boshqa ko‘mir konlaridagiga nisbatan ko‘mir zaxirasi katta hamda iste’molchiga yaqin va yuza joylashganligidan ko‘mir qazib chiqarish jadal o‘sdi. Ko‘mirning asosiy qismi kon yaqinidagi IESda ishlatiladi. Bir qismi esa yer ostida gazga aylantiriladi. Ko‘mir tarkibida nodir va tarqoq elementlar hamda ko‘plab gilmoya uchraydi, bir yo‘la ulardan foydalanish esa konning samaradorligini yana ham oshiradi. Biroq ko‘mir ochiq usulda qazib olinishi oqibatida katta-katta yer maydonlarini kon chiqindilari band qilib, tutun va qurumdan qishloq xo‘jaligi jiddiy zarar ko‘rmoqda.

Bunday noxush holatning chorasi sifatida ko‘mir sanoatidan zavol ko‘rgan maydonlar ***rekultivatsiya*** qilinmoqda, ya’ni qayta tiklanmoqda, shaxtalar chiqindisidan vujudga kelgan tepaliklarni o‘simliklar bilan qoplash, ko‘mirni quvurlar orqali tashish choralari ko‘rilmoqda.

Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida 1950-yili Sharg‘un ko‘mir koni ishga tushirilgan. Kondagi ko‘mir yuqori sifatli toshko‘mir bo‘lib, shaxta usulida qazib olinadi. Ko‘mirning maydasi qazib olingan joyda briket qilinadi.

Briket – ko‘mir kukunini bosim ostida yoki yopishqoq moddaga aralashtirib zoldir shakliga keltirilgan mahsulot.

Ko‘mir tog‘lar osha uzunligi 17 km dan ortiq osma sim yo‘l vositasida temiryo‘lga yetkazib beriladi. Angren, Sharg‘un va Boysun konlaridan



28-rasm. Milliy iqtisodiyotda ko‘mirdan foydalanish.

yiliga 4 mln tonnaga yaqin ko‘mir qazib olinmoqda. Lekin bu miqdor O‘zbekistonning ko‘mirga bo‘lgan ehtiyojini qondira olmaydi. Zero, metallurgiya, kimyo kabi sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ko‘mirga bo‘lgan ehtiyojni oshirib yubormoqda (28-rasm).

Shunday qilib, O‘zbekistonda ko‘mirning asosiy zaxiralari Angren, Sharg‘un va Boysun konlarida joylashganligini bilib oldik.

Ko‘mir sanoatiga tegishli yana bir ma’lumotni bilib qo‘ying. Mamlakatimizda qazib olinayotgan ko‘mirning deyarli hammasi (97,4 foizi) qo‘ng‘ir ko‘mir, qolgan qismi toshko‘mirdir. Mamlakatimizda ko‘mir qazib olishning o‘ziga xos yana bir xususiyati shundaki, uning 90–95 foizi ochiq usulda qazib olinadi.

Tabiiy gaz sanoati endigina shakllanayotgan yillarda (1961-yilda) Angren ko‘mir konida yerosti gazogeneratorlarida ko‘mirni yuqori bosimdagi havo oqimi yordamida gazga aylantiradigan «Yerostigaz» stansiyasi ishga tushirilgan edi. Hozirda undan unumli foydalanib, qo‘ng‘ir ko‘mirning bir qismi yer ostida gazga aylantirilmoqda. Shu tariqa ochiq usulda qazib olinadigan ko‘mirning ham ahamiyati ortib bormoqda.


1. Mamlakatimizning ko‘mir, neft, gaz konlari qayerlarda joylashgan?
2. Yoqilg‘i sanoati tarkibi kelajakda qanday o‘zgaradi?
3. Sharg‘un ko‘mir koni bilan Angren ko‘mir konining o‘ziga xosliklari nimada?

11-dars mavzusidan elektroenergetikaning yalpi sanoat mahsulotidagi salmog‘ini aniqlang.

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun elektr energiyasi ishlab chiqarishni boshqa tarmoqlarga qaraganda tezroq o‘stirish lozim.

Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining ***90 foiziga yaqinini issiqlik elektrostansiya (IES)lari*** bermoqda.

O‘zbekistonda Sirdaryo, Toshkent, Angren, Yangi Angren, Navoiy, Taxiatosh, Talimarjon kabi yirik IESlari mavjud (29-rasm). IES ancha tez va arzon quriladi. Iqtisodiyot uchun elektr energiya tannarxining past bo‘lishi muhimdir. Elektr energiyaning tannarxi, avvalo, elektr stansiyalarda ishlatiladigan yoqilg‘ini qazib olish va tashib keltirish xarajatlariga bog‘liq. Shuning uchun elektr stansiya qurish uchun joy tanlanayotganda yoqilg‘ini tashib kelishga va elektr energiyasini uzatib berishga ketadigan xarajatlar qiyoslab ko‘riladi.



29-rasm. O‘zbekistondagi asosiy elektr stansiyalar va elektr uzatkich liniyalari.

Agar yoqilg‘ini tashib kelish xarajati elektr energiyasini uzatish xarajatidan ortiq bo‘lsa, elektr stansiyani yoqilg‘i manbayiga yaqin joyda qurish, agar energiyani uzatish qimmatga tushsa, uni iste’molchiga yaqin joyda qurish foydalidir (chizmaga qarang).

Yoqilg‘i ⟷ IES ⟷ Iste’molchi
Yoqilg‘i ⟷ IES ⟷ Iste’molchi

(*Asoslang! Nega shunday?*)

Elektr energiyasini uzatish masofasi fan-texnika rivojlanishi bilan yil sayin uzayib bormoqda. Elektr energiyasining simlar orqali uzatilishi uning afzalliklaridan biridir. Iqtisodiyotning hamma jabhalarida elektr energiyasidan foydalanilishi elektr energiyaning ikkinchi muhim afzalligidir. Mahalliy yoqilg‘idan keng foydalanish mumkinligi uchinchi afzallik va nihoyat elektr energiyasini qudratli elektr stansiyalarda ishlab chiqarish imkoniyati to‘rtinchi afzallikdir.

Angren va Yangi Angren IESlarini ko‘mir koni yaqinida joylashtirilganligi nimani anglatadi?

Elektr energiya juda ko‘p iste’mol qilinadigan joylarda elektr stansiyalar boshqa joylardan keltiriladigan yoqilg‘iga mo‘ljallab quriladi. IESlarning juda ulkanlari boshqa viloyatlarni ham elektr bilan ta’minlaydi.



30-rasm. Talimarjon IES.

Birgina Sirdaryo IESning o‘zi yiliga 13 mlrd kW·h elektr energiya beradi. Istiqlol yillarida Qashqadaryo viloyatida Talimarjon IESining 800 MWli birinchi blokining ishga tushirilishi tizimdagi ulkan loyihalardan biri sifatida e’tirof etildi (30-rasm).

Ko‘pchilik IESlar elektr energiya bilan bir vaqtda issiqlik energiyasi ham ishlab chiqaradi.



Bir vaqtda issiqlik energiyasi ham ishlab chiqaradigan elektr stansiya ***issiqlik elektr markazi (IEM)*** deb ataladi.

Ularda elektr energiya ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘lgan issiq suvdan issiqxonalarni, binolarni isitishda va boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlarida foydalaniladi. Lekin issiq suv 20 km dan olis masofada sovib qoladi. Shu sababli IEMlar yirik korxonalar yaqinida va yirik shaharlardagina quriladi. O‘zbekistonda Farg‘ona, Muborak va Toshkent IEMlari mavjud.

Gidroelektrostansiyalar (GES)da energiya ishlab chiqarish tabiiy suv oqimi kuchiga asoslanadi. GESlar ishlab chiqargan elektr energiyaning tannarxi arzon bo‘ladi (quvvati teng bo‘lgan IESlardagidan 4 barobar arzon). Tog‘ daryolariga qurilgan GESlarda eng arzon elektr energiya ishlab chiqarilmoqda.


O‘zbekistonda suv quvvati manbalarining mavjudligi va ayni vaqtda issiqlik elektr stansiyasida ishlatishga yoqilg‘i bo‘lmaganidan dastlab, asosan, GESlar qurilgan. Mamlakatimizda birinchi GES 1926-yili Bo‘zsuv kanalida qurildi. Keyinchalik qurilgan Xishrav, Tuyamo‘yin, Farhod, Xo‘jakent GESlari mamlakat sanoatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. O‘zbekistonda GES qurish bilan bir yo‘la elektr energiya ishlab chiqarish, yerlarni sug‘orish, xo‘jaliklarni suv bilan ta’minlash, baliqchilikni rivojlantirish imkoniyatlari yaraladi.

Tezoqar daryolarda GESlarni bir-biriga yaqin qurish mumkin. Natijada Chirchiq – Bo‘zsuv energetika inshootidagi singari GESlar kaskadi (pog‘onasi) shakllanadi. Bu kaskad GESlar soniga (19 ta) ko‘ra jahonda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi (31-rasm).




O‘zbekistondagi yirik issiqlik elektrostansiyalar va gidroelektrostansiyalarning ***umumiy soni 37 ta*** ni tashkil etadi. Elektr stansiyalarda yiliga 60 mlrd kW·h atrofida elektr energiya hosil qilinmoqda (32-rasm).

Elektr energiya hosil qilishning zamonaviy yo‘llari. Dunyoning turli mamlakatlarida geografik o‘rni hamda tabiiy sharoitidan kelib chiqib elektr energiyani an’anaviy usullar bilan bir qatorda noan’anaviy yo‘llar orqali hosil qilish ham kuchayib bormoqda. Jumladan, atom elektrostansiyalari



31-rasm. Chirchiq–Bo‘zsuv gidroenergetika kaskadi.



32-rasm. Elektr energiya ishlab chiqarishning o‘sishi (mlrd kW·h).

(AES), shamol energiyasi, quyosh energiyasi, dengiz suvining qalqishidan olinadigan energiyalar shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda aholi sonining yil sayin o‘sib borayotganligi va unga hamohang ravishda elektr energiyaga ham bo‘lgan ehtiyojni ortayotganligi energiya hosil qilishning noan’anaviy yo‘llaridan ham foydalanishni taqozo etmoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda O‘zbekistonda elektr energiyasiga bo‘lgan talab 69 milliard kW·h ni tashkil etadi. Yuqorida elektr energiyasining asosiy qismini issiqlik elektrostansiyalarida hosil qilinayotganligi aytildi. Buning uchun yiliga 16,5 milliard kub metr tabiiy gaz, 86 ming tonna mazut va 2,3 million tonna ko‘mir sarflanmoqda (2018-y.).

Kelgusida iqtisodiyot o‘sishi, aholi soni va turmush darajasi oshishi evaziga elektr energiyasiga bo‘lgan talab yanada ortishi kutilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev elektr energiyasi ishlab chiqarish borasida so‘zlab: «Bu sohada faqat tabiiy gaz va ko‘mirdan foydalanishni davom ettiraversak, ularning mavjud zaxirasi ma’lum vaqtdan keyin tugab qolishi mumkin. Bu esa kelajak avlod oldida kechirib bo‘lmaydigan xato va jinoyat bo‘ladi», degan fikrlarni bildirdi.

Shu bois, O‘zbekiston tarixida ilk bor mamlakatimiz hududida AES qurilishi kutilmoqda. AES, asosan, elektr yoxud issiqlik energiyasi ishlab chiqarishga mo‘ljallangan, yadro reaktori va boshqa zarur tutash qurilmalarni o‘z ichiga olgan yirik majmuadir. Boshqa issiqlik elektr stansiyalaridan farqli ravishda, AESlarda elektr quvvatini olishda faol radioaktiv unsur – uran atomlaridan foydalaniladi.

1 kg uran (shartli uran yoqilg‘isi) 2,5 ming tonna ko‘mir yonganda beradigan miqdorda issiqlik beradi. Xalqaro atom energiyasi agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda jahonning 31 mamlakatida AESlar ishlab turibdi.

Shu bois, O‘zbekistonda tinch maqsadlarda foydalanish uchun atom energetikasini barpo etishga kirishildi. Rossiyaning «Rosatom» davlat korporatsiyasi bilan hamkorlikda atom elektr stansiyasini qurish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Mazkur kompleks 2 ta energoblokdan iborat, har birining quvvati 1 ming 200 megavatt bo‘lishi ko‘zda tutilmoqda. Atom elektr stansiyasi uchun dunyodagi eng xavfsiz va zamonaviy energoblok tanlab olingan. Uni 2028-yilgacha ishga tushirish rejalashtirilgan.

Atom elektr stansiyasi barpo etilishi natijasida yiliga 3,7 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi. Bu manba qayta ishlanib, yuqori qo‘shilgan qiymatli neft-kimyo mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Atom energiyasi ekologik toza ham. Bunday stansiyalar zararli is gazini hosil qilmaydi. Natijada tabiiy gazni yoqishdan hosil bo‘ladigan va atrof-muhitga tarqaladigan is gazi hajmi yiliga 3 million tonnaga kamayadi.

Energiyaning yangi manbalarini topish va o‘zlashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ana shunday izlanishlar natijasida Toshkent viloyatining Parkent tumanida ***Quyosh energiyasi***dan foydalanadigan «Fizika–Quyosh» inshooti faoliyat ko‘rsatmoqda.

Elektrlashtirishning yuqori darajasi energetika tizimlarining bunyod etilishidir. ***Energetika tizimi*** tufayli yil fasllaridan va sutkaning qaysi vaqtidan qat’i nazar iste’molchilar elektr energiya bilan bir maromda ta’minlanadi.



Turli xildagi elektr stansiyalarning yuqori voltli elektr uzatish liniyalari bilan birlashtirib, bir markazdan boshqarib turilishi ***energetika tizimi*** deyiladi.

O‘zbekistondagi barcha yirik elektr stansiyalar o‘zaro birlashtirilib, yagona energetika tizimi bunyod etildi. Davlatlararo elektr energiya import-eksporti O‘zbekiston energetika tizimi vositasida qulay amalga oshmoqda.

O‘zbekiston o‘z ehtiyojidan ortgan elektr energiyasini Tojikiston, Qozog‘iston va Afg‘onistonga eksport qilmoqda.




1. Tabiiy gaz bilan ishlaydigan IESlardan 5 tasining nomini va qayerda joylashganligini ayting.
2. «Mahsulot tannarxi» deb nimaga aytiladi? O‘zbekistonning turli joylarida ishlab chiqarilgan elektr energiya tannarxi bir xil emasligiga sabab nima?
3. Energetika tizimi nima? U qanday iqtisodiy foyda keltiradi?
4. Uyingizni yoritayotgan elektr quvvati qaysi elektr stansiyasida hosil qilinayotganligini o‘ylab ko‘ring.

KIMYO SANOATI

11-darsdan kimyo va neft-kimyo sanoatining yalpi sanoat mahsulotidagi salmog‘ini aniqlang.

O‘zbekistonda kimyo sanoatining shakllanishi 1932-yilda Sho‘rsuv oltingugurt koni ishga tushirilishi bilan boshlandi. Uning mahsuloti ko‘proq mashinasozlik (plastmassa, oyna), to‘qimachilik sanoati (tola, bo‘yoqlar), qishloq xo‘jaligi (o‘g‘itlar, zaharli ximikatlar), transport (motor yoqilg‘isi, surtish moyi, sintetik kauchuk), qurilish (yopishqoq plyonka, oyna, plastik) kabilarda ishlatiladi.

Kimyo sanoati tarkibida ***mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarish*** salmoqli o‘rin egallaydi. Shuningdek, qishloq xo‘jalik zararkunandalariga qarshi defoliantlar ham ishlab chiqariladi. U ko‘plab tarmoqlarni xomashyo va materiallar bilan ta’minlar ekan, o‘z navbatida boshqa tarmoqlardan energiya, jihozlar va transport vositalarini oladi. Kimyo sanoati gaz hamda paxta sanoati xomashyosini va rangli metallurgiya chiqindilarini qayta ishlaydi. Demak, kimyo sanoati tarmoqlararo ikki tomonlama aloqadorlikda bo‘lib, ko‘plab tarmoqlarning rivojlanishi va hududiy joylashishiga ta’sir ko‘rsatadi (33-rasm).



33-rasm. Kimyo sanoati tarkibi.



Kimyo sanoati sifat jihatdan tabiiy mahsulotlardan ustun turuvchi ***sun'iy materiallar*** yaratadi. Bunday materiallar tufayli kishilar mehnati ham, qishloq xo‘jaligi xomashyosi ham tejaladi.

Masalan, kapron ishlab chiqarish uchun tabiiy ipak tayyorlashga qaraganda 20 barobar kam mehnat sarf qilinadi. Shuningdek, kimyo sanoati tufayli ishlab chiqarishni ***kombinatlashtirish*** istiqbollari yaratildi. Chunonchi, ko‘mir, neft, gaz singari yoqilg‘i xomashyolaridan energiya hosil qilishda ham, kimyo mahsulotlari (benzin, parafin) olishda ham foydalanilishi energetika-kimyo kombinatlari qurishga olib keldi.



Kombinatlashtirish – sanoatning texnologik jarayon jihatidan o‘zaro bog‘langan, ba’zan turli tarmoqlarga taalluqli bo‘lgan bir qancha ishlab chiqarish korxonalarining bir korxonaga birlashtirilishidir.

Kimyo sanoatining xomashyo bazasi boy va xilma-xil. U turli foydali qazilmalardan, ishlab chiqarish chiqindilaridan, yog‘och, suv, hatto havodan foydalanadi. Turli xil xomashyolardan foydalanish imkoniyatining cheksizligi kimyo sanoati korxonalarini hamma joyda qurishga imkon beradi. Biroq kimyo korxonalari energiya va suvni ko‘p ishlatishi, ayniqsa, tabiatga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi sababidan ularni hamma joyda ham qurish maqbul bo‘lavermaydi.

Kimyo sanoatining yirik korxonasi – Chirchiq elektr-kimyo kombinati 1940-yilda ishga tushgan. Chirchiq elektr-kimyo kombinati dastlab havo tarkibidagi azotdan elektr energiyasi vositasida azotli o‘g‘it ishlab chiqargan. Buxoro viloyatida topilgan tabiiy gaz quvur orqali Chirchiqqa keltirilgach, kombinat gazdan xomashyo o‘rnida foydalanadigan bo‘ldi. Bu mahsulot ishlab chiqarishning keskin ko‘payishi va tannarxning arzonlashishiga olib keldi. Kombinatda azotli o‘g‘itdan tashqari, magniy xlorit (g‘o‘za bargini to‘kishda qo‘llaniladigan kimyoviy modda) hamda plastmassa va sintetik tola olish uchun organik sintez mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Tabiiy gazdan azotli o‘g‘it va kimyoviy tola ishlab chiqaradigan zavodlar Farg‘ona va Navoiy shaharlarida ham barpo etildi. 1946-yilda Qo‘qonda, 1957-yilda Samarqandda superfosfat zavodi ishga tushdi. 1998-yilda Qizilqum fosforit kombinati ishga tushirildi. Unda 2,7 million tonna fosforit konsentrati olinadi. Shuningdek, mustaqillik yillari Qashqadaryoda Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar zavodi, Qoraqalpog‘istonda Qo‘ng‘irot soda zavodlari ishga tushdi.

Mamlakatimiz osh tuzi konlariga ham boy. Xo‘jaykon, Borsakelmas,

Boybichakon va Oqqal'a kabi konlarda 90 milliard tonna xomashyo bor. Olmaliqda yuqori sifatli ammofos ishlab chiqaruvchi zavod barpo etildi. Angrenda rezina ishlab chiqaradigan kimyo korxonalari mavjud. Muborakda tabiiy gaz tarkibidagi oltingugurtni ajratib oladigan zavod qurildi. Rangli metallurgiya korxonalari chiqindisidan sulfat kislota olinadi. Popdagi rezina zavodida kalish, rezina quvurlar hamda mashina va mexanizmlar uchun turli xil rezina qismlar ishlab chiqarilmoqda. Jizzaxdagi zavodda esa polietilen plyonkalar hamda plastmassa quvurlar tayyorlanadi.



34-rasm. Sho'rtangaz kimyo majmuasi.

Qazib olinayotgan oltingugurt kolchedani, marganes, bariy, talk, ohaktosh singari minerallar kimyo sanoatining turli tarmoqlari ehtiyojini qondirmoqda. Lok-bo'yoq sanoati, sun'iy tola va to'qimalar (Farg'onada), sun'iy charm va sun'iy jun ishlab chiqaradigan zavodlar quvvati oshirildi.

Kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorga muvofiq 2018–2030-yillarda kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni 4,5 barobarga oshirish rejalashtirilmoqda.

Gidroliz korxonalari o'tgan asrning 50-yillarida qurila boshladi. Yangiyo'l biokimyo, Andijon gidroliz zavodlarida asosiy xomashyo – chigit qoldig'i va sholi qobig'idan texnik etil spirti, furfurol, ozuqa achitqilari (xamirturush) kabi mahsulotlar ishlab chiqarilgan. 90-yillar boshidan bu zavodlarda g'alladan etil spirti ishlab chiqarila boshlandi. Natijada oziq-ovqat, tibbiyot, atir-upa va boshqa sanoat tarmoqlariga zarur spirtni chetdan keltirishga barham berildi.

O'zbekistonda tabiiy gazdan yoqilg'i o'rnida ham, xomashyo o'rnida ham foydalanish samaralidir. Tabiiy gazdan kimyoviy tola ishlab chiqarish Rossiyadagidan 40–50 foiz arzonga tushadi. Gazli, Muborak, Uchqir, Odamtosh, Sho'rtan kabi tabiiy gaz konlaridan olinayotgan gaz yuqori kondensatliligi bilan ajralib turadi (34-rasm). Gaz kondensati organik sintezning asosidir. Uning har tonnasidan 50 kg sun'iy kauchuk, 150 kg plastik massa, 150 kg sun'iy tola, 100 kg erituvchi modda, 400 kg motor yoqilg'isi olish mumkin.

1. Kimyo sanoatining tarmoqlararo aloqasini modelda ifodalang.
2. Kimyo korxonalarini joylashtirishda qanday omillar hisobga olingan?
3. Viloyatingizdagi kimyo sanoati korxonasi qanday xomashyodan foydalanadi?
4. Yozuvsiz xaritaga kimyo sanoati korxonalari joylashgan shaharlarni belgilang.


QORA METALLURGIYA

11-dars mavzusidan qora metallurgiyaning yalpi sanoat mahsulotidagi salmog‘ini aniqlang.

Metallurgiya majmuasi ikki tarmoqni: qora metallurgiya va rangli metallurgiyani o‘z ichiga oladi.

Qora metallurgiya – temir rudasi qazib chiqarish, cho‘yan, po‘lat eritish, prokat va ferroqotishmalar ishlab chiqarishdan iborat.

Hozirgi zamon metallurgiyasi uchun, birinchidan, metallning asosiy qismini metallurgiya kombinatlarida ishlab chiqarish xarakterlidir (35-rasm). Metallurgiyada xomashyoga ketma-ket ishlov beradigan kombinatlarning



35-rasm. Metallurgiya kombinatidagi sexlar sxemasi.

hissasi katta bo‘ladi. Chunki kombinatlarda bir yo‘la temir rudasidan domna pechlarida cho‘yan eritib olinadi, suyuq cho‘yan va temir-tersakdan (metallomdan) po‘lat erituvchi (marten, konverter, elektr) pechlarda po‘lat eritiladi, po‘latdan esa tayyor mahsulot – prokat olinadi.

Fan-texnika taraqqiyoti metall eritishning chiqindisiz texnologiyasini, metall olishning yangi, serunum usullarini joriy qilishga olib kelmoqdaki, bu po‘lat sifatini oshirishni va prokatning xilma-xil turlarini olishni ta’minlamoqda. Metall olishning eng yangi usuli metallni domnasiz, ya’ni rudani eritmay undan metallni ajratib olishdir.



36-rasm. Metallurgiya zavodi.

Qora metallurgiyada ishlab chiqarish uzluksiz markazlasha boradi.



Metallurgiya kombinatlari ko‘p miqdorda xomashyo va yoqilg‘i ishlatadi. Shu sababli ular xomashyo yoki yoqilg‘i bazalari yaqinida, ba’zan ular oralig‘ida quriladi. Bu metallurgiya korxonasi (kombinat)ni joylashtirishning eng muhim shartidir.

Bunda suv, elektr energiya, tabiiy gaz bilan ta’minlash va tabiatni muhofaza qilish imkoniyatlari ham e’tiborga olinadi.

Birinchi metallurgiya korxonasi – Bekobod metallurgiya zavodi 1946-yilda ishga tushirilgan (36-rasm). Zavodda po‘lat va prokat ishlab chiqarish ortib bormoqda. 1950-yilda 119 ming tonna po‘lat eritilgan, 76 ming tonna tayyor prokat ishlab chiqarilgan bo‘lsa, hozirda bu ko‘rsatkich bir necha barobarga oshgan. Ammo zavod mahsuloti mamlakatning metallga bo‘lgan ehtiyojini qoplay olmayotir. Natijada qo‘shni davlatlardan ko‘plab metall keltirishga to‘g‘ri kelmoqda.

Ayni paytda xorijdan keltirilayotgan elektrotexnik po‘lat, tunuka (list), turli profillardagi prokatlar, simlar, cho‘yan mahsulotlariga talab ortmoqda. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun zarur bunday mahsulotlarni chetdan olib kelish kelgusida ham davom ettirilsa, sarf-xarajatlar ko‘payib, ularning raqobatbardoshligi pasayadi. Bu mamlakat iqtisodiy manfaatlari va xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zero, hozir qora metallurgiya tarmog‘ini rivojlantirishni ta’minlovchi innovatsion tadbirlarni amalga oshirish davr talabiga aylanmoqda. Bunday

sharoitda innovatsiyaning asosiy yo‘nalishlari tarmoqni ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish, mahsulotlar assortimentini kengaytirish, sifatini yaxshilash, hajmini ko‘paytirish orqali rivojlantirish hisoblanadi. O‘zbekistonda buning uchun yirik hamda minizavodlarda po‘lat tayyorlashda unumdorligi yuqori elektr pechlardan foydalanish, tarmoq faoliyatini po‘lat-prokat ishlab chiqarish sxemasi bo‘yicha tashkil etish, rudadagi temir miqdori nisbatan kam konlarni ham o‘zlashtirishga to‘g‘ri keladi.

Metallurgiya agregatlarining quvvati oshishi ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga, texnologiyalarni takomillashtirishga olib keladi, mahsulot tannarxini arzonlashtirib, mehnat unumdorligini 20–30 foizga ko‘taradi.

Qora metallurgiyani rivojlantirish asnosida yurtimizda mavjud temir rudasi konlarini o‘zlashtirish, rudalarni qayta ishlashning samarador texnologiyalarini tanlash va amaliyotda qo‘llash bilan bog‘liq muammolar uchraydi. Bizda mehnat, gaz, energiya resurslari yetarli, tarmoq mahsulotlariga ehtiyoj yuqori ekanligi Rossiya, Qozog‘iston va Ukrainadan keltirilayotgan qora metallar o‘rnini bosuvchi qo‘shimcha prokat ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilish afzalligini isbotlaydi.

Yirik sanoat korxonalari mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Toshkentda barpo etilayotgan ***Toshkent metallurgiya zavodi*** shulardan biridir. Umumiy yer maydoni 100 gektardan iborat bo‘lgan korxonaning qurilish ishlarini 2 yilda yakunlash rejalashtirilgan. Zavodga Italiya, Germaniya, Avstriya kabi davlatlarda ishlab chiqarilgan ilg‘or va zamonaviy uskunalar keltiriladi. Korxonada avtomobillarga kuzov ishlab chiqarish uchun metall listlar, qurilishda ishlatiladigan turli metall cherepitsalar, profnastil hamda maishiy texnikalar uchun metall listlar tayyorlanadi.

Korxona to‘liq quvvatda ishga tushirilgach, yiliga 500 million dollarlik mahsulot ishlab chiqarilishi, 1000 dan ziyod ish o‘rni yaratilishi kutilmoqda.

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti va sohaga ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlarida mazkur korxona uchun mutaxassislar tayyorlash ko‘zda tutilgan.



1. Qanday metallurgiya korxonasiga to‘la sikldagi zavod yoki kombinat deyiladi?
2. Tumaningizda to‘plangan temir-tersak qayerga, qanday transportda tashilishini o‘ylab ko‘ring. So‘ng temir-tersak bosib o‘tadigan yo‘lni xaritada aniqlang.

RANGLI METALLURGIYA

11-dars mavzusidan rangli metallurgiyaning yalpi sanoat mahsulotidagi salmog‘ini aniqlang.

Rangli metallurgiya: a) rangli metall rudalarini qazib chiqarish; b) boyitish; d) eritish; e) qotishmalar ishlab chiqarishni o‘zida birlashtiradi. Rangli metallurgiya mamlakatni elektrlashtirish, uning mudofaa qudratini mustahkamlash, atom texnikasi, samolyotsozlik, raketasozlikni rivojlantirish, umuman, mashinasozlik va kimyo sanoati uchun juda zarurdir.

Rangli metallar bir qancha guruhlarga bo‘linadi. Bu bo‘linish asosida rangli metallurgiya – og‘ir metallar metallurgiyasi, yengil metallar metallurgiyasi va boshqalarga bo‘linadi (37-rasm).

Asosiy guruhlar			Boshqa guruhlar	
Og‘ir metallar	Yengil metallar	Qimmatbaho metallar	Qiyin eruvchi metallar	Nodir metallar
Mis, qalayi, qo‘rg‘oshin, nikel, rux	Aluminiy, magniy, titan	Oltin, kumush, platina	Volfram, molibden	Uran, germaniy va boshqalar


37-rasm. Rangli metallarning guruhlarga bo‘linishi.

Ilgari O‘zbekistonda faqat qimmatbaho metallar qazib chiqarilgan. Endilikda og‘ir metallarni ham, qiyin eruvchi metallarni ham ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Ularni olishda juda ko‘p elektr energiyasi sarflanadi. Bunday ishlab chiqarishlar ko‘p energiya talab qiladigan ishlab chiqarish deyiladi.

Mamlakatimizda oltin, mis, qo‘rg‘oshin, rux, volfram, molibden va boshqa rangli metall rudalarining zaxirasi ko‘p. Faqat mis konlarining o‘zi 15 tadan ortadi.

Xaritadan mis konlarining o‘rnini aniqlang.

Angren–Olmaliq kon sanoati rayoni mamlakatimiz rangli metallurgiya sanoatida alohida ahamiyatga ega. ***Mis rudasi*** tarkibida molibden, oltin, kumush kabilar birga uchraydi. Bu yerda mis eritish zavodi va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati ishlab turibdi. Kombinat Qalmoqqirkon, Qo‘rg‘oshinkon konlari, qo‘rg‘oshin-rux ***boyitish fabrikasi,*** elektr stansiyasi va bir qancha yordamchi korxonalardan iborat (38-rasm). Konchilarning obod shahri – Olmaliq kon o‘zlashtirilishi jarayonida barpo bo‘lgan.



38-rasm. Aluminiy ishlab chiqarish.

Boyitish fabrikasi – rudaning keraksiz qo'shilmalarini chiqarib tashlash yoki yangi moddalar qo'shish yo'li bilan foydali sifatlarini orttiruvchi korxona.

Rangli metallurgiyaning mahsulotlari – ***volfram*** va ***molibden*** ishlab chiqarish tez rivojlanmoqda. Volframning erish harorati juda yuqori (3370°C). Yuqori haroratli pechlarning qizdiradigan elementlari va elektr lampochkaning qiziydigan simlari volframdan yasaladi. Chirchiq shahridagi qiyin eriydigan qattiq qotishmalar zavodi mamlakatdagi nihoyatda muhim korxonalardan hisoblanadi. Bu korxona mahsulotidan elektrotexnika, mashinasozlik, asbobsozlik va boshqa sanoat tarmoqlarida keng foydalaniladi.

Rangli metallar qimmatli xususiyatlarga ega. Ularning ba'zilari (qalayi, qo'rg'oshin, nikel) zanglash (korroziya)ga chidamli, boshqalari (titan, volfram) issiqqa bardoshli yoki elektr tokini yaxshi o'tkazadi (aluminiy, mis, kumush, oltin). Ohangaron ko'mir havzasida aluminiy xomashyosi – kaolin gilining ulkan zaxirasi mavjud. O'rta Chirchiq plavik shpat kombinatida esa aluminiyni elektroliz usulida olishda ishlatiladigan plavik shpat tayyorlanadi.

Oltin – noyob metall. U yer ostida ham, namlikda ham o'z xususiyatini yo'qotmaydi. Ammo uni izlab topish va tog' jinslaridan ajratib olish juda ko'p mehnat, mablag' talab etadi. Oltin siz bilgan zargarlikdan tashqari elektronika, kompyuter ishlab chiqarishda, kosmik kemalarda, atom reaktorlarida ko'p qo'llaniladi. Bitta atom reaktorining ichki devori 16 kg oltin bilan qoplanadi.

Samarqand bilan Buxoro oralig'idagi tog'lardan ikki ming yil burun ham oltin qazib olingan. X–XIII asrlarda kon sanoati o'z zamonasiga xos yuksak

rivojlangan. XIX asrda Rossiya imperiyasi Turkistonni bosib olgach, mavjud konlarni xaritalarga tushirdi. Oltin qidiruv ishlarini barcha joylarda kuchaytirdi. XX asr o‘rtalaridan o‘zbek olimlarining izlanishlari asosida ***Muruntov, Chodak, Zarmitan, Qo‘shbuloq, Qizilolma, Marjonbuloq*** oltin konlari aniqlandi. 1969-yilda dastlabki oltin yombisi quyildi. Shu vaqtdan oltin qazib olish sanoati shakllandi.

O‘zbekiston oltin qazib chiqarish bo‘yicha dunyoda ***yettinchi***, MDH davlatlari ichida esa ***ikkinchi o‘rinda*** turadi.

Mamlakatimizda oltin qazib olish sanoatining yana bir yirik markazi – Navoiy kon-metallurgiya kombinatidir. Muruntov koni O‘zbekistondagina emas, Yevrosiyodagi oltin konlari ichida eng kattasi bo‘lib, ruda qazib olingan joy hajmi 2×4 km va chuqurligi 400 metrdan ortiq afsonaviy o‘rani eslatadi (39-rasm).



39-rasm. Muruntov oltin koni.

Oltindan keyin turadigan qimmatbaho metall – bu ***kumush***dir. Qurama tog‘ tizmalarida yirik kumush konlari topilgan. Toshkent oldi rayonida kumush katta miqdorda ajratib olinmoqda. Qizilqumda kumush ishlab chiqarishni ko‘paytirish borasida keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunga kelib tarkibida oltin va kumush bo‘lgan 30 dan ortiq ruda konlari aniqlangan.

Metallar iqtisodiyotda turli maqsadlarda ishlatiladi. ***Mis*** sof holida ham, qalayi bilan (bronza), nikel bilan (melxior), aluminiy bilan (duraluminiy), rux bilan (latun) qotishma holda ham elektrotexnikada va mashinasozlikda keng foydalaniladi. ***Qo‘rg‘oshin*** akkumulatorlar, elektr kabellari ishlab chiqarishda ishlatiladi. Temir buyumlar zanglamasligi uchun rux bilan sirlanadi. Qalayidan oq tunuka va podshipniklar yasashda foydalaniladi. Mamlakatimizda kumush, uran, volfram va boshqa qimmatbaho ruda konlari ham bor.

1. Geografiya atlasidan O‘zbekistonning qaysi hududlarida qanday rangli metallar qazib chiqarilishini aniqlang.
2. Rangli metallurgiya xomashyosiga majmuali ishlov beruvchi kombinatlarni qurishning foydali ekanligiga sabab nima?
3. O‘quv atlasidan foydalanib, yozuvsiz xaritaga rangli metallurgiya markazlarini belgilang.

19-dars

MASHINASOZLIK VA UNING TARMOQLARI


11-dars mavzusidan mashinasozlikning yalpi sanoat mahsulotidagi salmog‘ini aniqlang.

Mashinasozlik majmuasi – iqtisodiyotning barcha sohalari uchun mashina va asboblar ishlab chiqaruvchi, aholini televizor, muzlatkich singari xilma-xil iste’mol buyumlari bilan ta’minlovchi sanoat tarmoqlari uyg‘unligidir.

Mashinasozlik mamlakat iqtisodiyotining ustuvor majmuasi hisoblanadi (40-rasm). Chunki iqtisodiyotning hech bir tarmog‘i mashinalar bilan ta’minlanmay turib rivojlana olmaydi. Hozirgi zamon mashinasini tayyorlash uchun ko‘p miqdorda metall, plastmassa, bo‘yoqlar, rezina, gazlama, yog‘och-taxta kerak bo‘ladi.


Mashinalar minglab detallardan tayyorlanadi. Bu qadar xilma-xil detallarni bittagina zavodda yasash noqulay va samarasizdir. Shu sababli mashinasozlikda ***detallar yasashga ixtisoslashish***, ya’ni tayyor mahsulotning ayrim detallari va qismlarini yasash keng rivojlangan.

Binobarin, mashinalar uchun ayrim detallarni ishlab chiqaruvchi ko‘pdan ko‘p mashinasozlik zavodlari bir-biri bilan, shuningdek, metall, plastmassa, rezina va hokazolarni yetkazib beruvchi (boshqa tarmoq) korxonalari bilan ishlab chiqarish aloqalari bo‘lishini, ya’ni ***kooperativlashish***larini talab qiladi. Ammo bunday ishlab chiqarishni transportsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Shu sababli mashinasozlik tarmoqlarini joylashtirishda qulay transport magistrallarining mavjudligi, albatta, hisobga olinadi.



40-rasm. Mashinasozlik majmuasi tarmoqlari.

Mashinasozlik korxonalari uchun malakali ishchi va ilmiy-texnik mutaxassislar yetarli bo‘lishi kerak. Shu sababli mashinasozlik korxonalarini joylashtirishda iste’molchining yaqinligi va metallurgiya bazasi ham hisobga olinadi.



41-rasm. Mashinasozlik zavodining tarkibi.

Mashinasozlik buyumlari murakkab dastgohlar vositasida, yuqori malakali mehnat evaziga yaratiladi. O‘rta hisobda har bir mashinaning tannarxi unga sarflangan xomashyo – metall tannarxidan yuzlab marta ortiq bo‘ladi (41-rasm).

Mashinasozlikning turli tarmoqlari bir xil miqdorda metall ishlatmaydi. Agar bir dona mashinani yasash uchun ko‘p metall (yoki boshqa material ko‘p) kerak bo‘lsa, bunday mashinasozlikni ***ko‘p metall yoki ko‘p material talab qiluvchi mashinasozlik*** deyiladi. Kon va metallurgiya asbob-uskunalari, temiryo‘l vagonlarini ishlab chiqarish bunga misol bo‘ladi.

Shunday qilib, sarf qilinadigan material va malakali mehnat miqdori, xomashyo hamda tayyor mashinalarni tashish sharoiti mashinasozlik zavodlarini: a) transport magistrallari; b) malakali kadrlar; d) iste’molchilar; e) yirik metallurgiya korxonalari mavjud yerlarda joylashtirish tamoyillarini belgilab beradi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun an’anaviy ixtisosli sohalar hisoblangan paxta, pilla, kanop yetishtirish va ularni qayta ishlash qo‘l mehnatini ko‘p talab qiladi. Shu sababli qishloq xo‘jaligining ixtisoslashgan sohalarini mexanizatsiyalashni ta’minlovchi, ya’ni yer haydash, ekin ekish va ishlov berish, hosilni yig‘ib olish hamda tayyor xomashyoni qayta ishlashda qo‘llanadigan mashina va asboblar ishlab chiqaradigan qishloq mashinasozligi tarmoqlari vujudga keldi.

Toshkentdagi ***«Toshqishloqmash», «O‘zbekqishloqmash»*** va Chirchiqdagi ***«Chirchiqqishloqmash»*** kabi zavodlar qishloq xo‘jaligi mashinasozligining asosiy korxonalaridir.

Bu zavodlar paxtachilik uchun traktor seyalkalari, kultivatorlar, g‘o‘zapoya yuladigan, ko‘rak teradigan va chuviydigan, o‘g‘it aralashtiradigan, qishloq xo‘jaligi zararkunandalarini yo‘qotishda zaharli moddalarni purkaydigan mashinalar ishlab chiqaradi. 1994-yilda O‘zbek–Isroil qo‘shma korxonasida paxta teradigan mashinaning yangi modeli yaratildi (42-rasm).

Suv omborlari, kanallar qurilishi va ularni loyqadan tozalashda, suvni yuqoriga ko‘tarishda, umuman, irrigatsiyada qo‘llaniladigan mashinalar ishlab chiqaruvchi ***irrigatsiya mashinasozligi*** ham agrosanoat majmuasi ehtiyojiga ko‘ra vujudga keldi. Irrigatsiya mashinasozligining markazi Andijon viloyati hisoblanadi.

Paxtachilik rivojlangani sayin traktorlarga, paxta tashiydigan mashina va mexanizmlarga ehtiyoj orta bordi. Shuning uchun Toshkent traktor zavodi – TTZda universal traktorlar, paxtani qop-qanorsiz tashishga mo‘ljallangan ag‘darma tirkamalar ishlab chiqarila boshlandi.

Toshkent, Andijon, Samarqand va Kattaqo‘rg‘onda paxta tozalash hamda yog‘ sanoati uchun mashina va uskunalar ishlab chiqaruvchi mashinasozlik zavodlari joylashgan. Milliy iqtisodiyotda, ayniqsa, qishloq xo‘jaligida mashina va mexanizmlar ko‘plab qo‘llanilayotganidan ularga ehtiyot qismlar yetkazib beradigan hamda sozlaydigan korxonalar deyarli barcha viloyatlarda barpo etilgan. Samarqanddagi «Paxtamash» zavodi ehtiyot qismlar ishlab chiqaradigan korxonalarning eng yirigidir.

Bog‘dorchilik, uzumchilik va polizchilikda qo‘llaniladigan mashina va moslamalar «O‘rta Osiyoqishloqmash» birlashmasida ishlab chiqarilmoqda.



42-rasm. Paxta terish mashinasi.

O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab ***elektrotexnika sanoati*** alohida tarmoq tarzida shakllandi. O‘ndan ortiq elektrotexnika zavodlari ishladi. EHM ishlab chiqaradigan «Algoritm» zavodiga asos solindi. EHM uchun mikroelektronika elementlari, mikrosxemalar, masofadan turib boshqarish sistemalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan «Zenit» zavodi ishga tushirildi.

1990-yilda konsern «O‘zeltexsanoat» uyushmasiga aylantirildi. Uyushma tarkibida 50 dan ortiq korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Uyushma korxonalari bilan Rossiya, Turkiya, Janubiy Koreya, AQSH, Singapur va boshqa mamlakatlar firmalari hamkorligida 20 dan ortiq qo‘shma korxonalar tashkil etildi.



43-rasm. Maishiy texnika korxonasida.

Radioelektronika va elektrotexnika respublika mashinasozlik majmuasining jadal rivojlanuvchi, istiqbolli tarmog‘i (43-rasm). Mamlakatimizda oltin, kumush, mis, rux, kremniy, volfram, kaolin, kvars qumi, uran xomashyosi kabi nodir ruda konlari hamda yetarlicha ishchi kuchi mavjudligi tarmoqning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.



Hozirgi vaqtda mashinasozlik tarmoqlarida 100 mingga yaqin kishi mehnat qilmoqda.

To‘qimachilik sanoatining yuksalishi xomashyogagina bog‘liq bo‘lmay uni zamonaviy to‘quv dastgohlar, asbob-uskunalar bilan ta’minlashga ham bog‘liqdir. Bunday jihozlarni «O‘zbekto‘qimachilikmash» birlashmasida ishlab chiqariladi. Birlashma korxonalari Toshkent, Qo‘qon, Jizzax shaharlarida joylashgan.

Kimyo va neft-kimyo mashinasozligi 1941-yilda tashkil topgan. Uning yirik korxonasi Chirchiq shahridagi «O‘zbekkimyomash» zavodi dastavval kimyo, mikrobiologiya, selluloza-qog‘oz sanoati korxonalari uchun uskuna-jihoz ishlab chiqarar edi. Hozirda kimyo uskunalari, turbokompressorlar, ventilatorlar, nasoslar ishlab chiqarmoqda. Toshkent «Kompressor» zavodida qo‘shma kompressor stansiyalar ishlab chiqariladi. Namanganda esa neft va gaz quduqlari uchun jihozlar ishlab chiqariladi.

Kommunal xo‘jaligi mashinasozligi tarmog‘ida Samarqand liftsozlik zavodi ishlamoqda. Zavodda yo‘lovchi va yuk liftlari, yog‘ochga ishlov beradigan stanoklar ishlab chiqariladi.

Mashinasozlik korxonalarining istiqboli va hududiy joylashuvini inson omili belgilaydi. Qishloq aholisini ish bilan ta’minlash maqsadida mashina qismlarini ishlashga ixtisoslashgan kichik korxonalar qishloqlarda barpo etilmoqda.

O‘tgan asr o‘rtalarigacha O‘zbekiston mashinasozligi faqatgina qishloq xo‘jaligi mashinalari ishlab chiqargan va ularni ta’mirlash hamda paxtani

qayta ishlovchi korxonalarga mashina va uskunalar yetkazib bergan edi. Endilikda esa mashinasozlik majmuyining yarmigina agrosanoat majmuasi bilan bog‘liq.

Keyingi davrlarda O‘zbekiston mashinasozligida an’anaviy tarmoqlarni rivojlantirish bilan bir qatorda oz metall va ko‘p mehnattalab tarmoqlar jadal rivojlandi. Natijada ko‘p tarmoqli mashinasozlik tarkib topdi.

1. Mustaqillik yillarida mashinasozlikning qaysi tarmoqlari tez rivojlandi?
2. Transport mashinasozligi tarkibida qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi?
3. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi nima uchun aynan mashinasozlikda muhim va dolzarb hisoblanadi?
4. O‘zbekistonda daf’atan qishloq xo‘jalik mashinasozligi vujudga kelganini qanday izohlasa bo‘ladi?
5. Irrigatsiya mashinasozligining markazi qayerda?
6. Tumaningizda mashinasozlikning qanday korxonalari bor?


20-dars

AVTOMOBILSOZLIK

Avtomobilsozlik O‘zbekistonda mustaqillikdan so‘ng shakllandi. 1992-yilda O‘zbekiston Respublikasi Janubiy Koreyaning ***«DAEWOO»*** kompaniyasi bilan hamkorlikda Andijon viloyatining Asaka shahrida paxta tashiydigan tirkamalar zavodi negizida yengil avtomobillar ishlab chiqaradigan «Uz-Daewoo Avto» (bugungi kunda **«GM Uzbekistan»**) avtomobil zavodi qurila boshlandi. 1996-yilda dastlabki ***«Damas», «Tico», «Nexia»*** rusumli yengil avtomobillar zavod konveyeridan chiqa boshladi. Bu yosh va istiqbolli soha neft-kimyo, elektronika kabi boshqa milliy iqtisodiyotning yuqori texnologik sohalarining o‘ziga xos lokomotivi bo‘ldi.

Koreyalik, italiyalik, gollandiyalik va amerikalik hamkorlar bilan faoliyat yuritib, kompaniya doim respublikada ishlab chiqariladigan jamlovchi qismlar ulushini oshirib kelmoqda. Dastlabki yili avtomobil qismlarining 20 foizi O‘zbekistonda tayyorlangan bo‘lsa, 5 yil o‘tgach bu ko‘rsatkich 60 foizga yaqinlashdi. Endilikda bu ko‘rsatkich 85 foizni tashkil etib, avtomobilsozlik korxonalarining mamlakat doirasidagi ***kooperatsiyasi*** yuksak darajaga ko‘tarildi. Bugungi kunda respublikaning 250 dan ortiq korxonalari o‘z mahsulotlarini Asaka shahridagi avtozavod konveyeriga yetkazib bermoqda (44-rasm).

Mahalliylashtirish loyihalarini amalga oshirish tadbirkorlik ruhini rivojlantirishga yordam berib, qo‘shimcha ish joylari yaratildi.



44-rasm. Asakadagi avtomobil zavodining boshqa korxonalar bilan aloqalari.

O‘zbekiston jahonda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-davlatdir. «GM Uzbekistan» zavodi ***«Damas», «Nexia», «Lacetti», «Chevrolet Captiva», «Spark», «Malibu»*** kabi avtomobillarini ishlab chiqarmoqda.


Respublika yalpi ichki mahsulot umumiy hajmida avtomobilsozlarning ulushi yildan yilga ortib bormoqda.

Jahon bozorida kuchayib borayotgan raqobatchilik kompaniyadan doimiy ravishda, zamonaviy texnologiyalarni, ilmiy va dizaynerlik ishlanmalarini tatbiq etishni talab etmoqda. Kelajakda yosh mutaxassislarni tayyorlash, ixtisoslashgan kasb-hunar kollejlarini barpo etish, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish, ishchilarning intellektual imkoniyatlarini rag‘batlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan avtomobillarning eksport hajmi ortib, geografiyasi kengayib bormoqda (45-rasm). Birgina Rossiya Federatsiyasida 750 mingdan ortiq bizda ishlab chiqarilgan avtomobillar harakatlanmoqda. O‘zbekiston Rossiyaga avtomobil sotish bo‘yicha Chexiya, AQSH, Ukraina hatto Fransiyadan ham oldinda turadi.

Yengil avtomobillardan tashqari O‘zbekistonda Yaponiyaning ISUZU va Germaniyaning MAN korxonalari bilan birgalikda tashkil qilingan qo‘shma korxonalarda avtobuslar, yuk mashinalari, turli maxsus texnikalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi (46-rasm). Ayni paytda mazkur korxonalar avtotransport vositalarining 30 dan ortiq turini ishlab chiqaradi. Loyihani ishlab chiqish davrida «SamAvto» qo‘shma korxonasining ta’minotchisi bo‘lishi mumkin bo‘lgan korxonalar aniqlandi. Ular orasida: lok-bo‘yoq, o‘rindiq va detallar hamda ko‘plab boshqa buyumlar ishlab chiqarish bo‘yicha O‘zbekiston–Janubiy Koreya qo‘shma korxonalari bor. Istiqbolda mahalliy ishlab chiqarish ulushi avtobuslarning 56 va yuk mashinalarning 44 foizini tashkil etishi kerak. Bu mamlakatimiz mashinasozligi o‘zining mustahkam zaminiga va porloq istiqboliga ega ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekistonda avtomobilsozlik sanoati rivojlanar ekan, turli hududlarda sanoat korxonalari qurila bordi. Jumladan, «GM Uzbekistan» aksiyadorlik jamiyatining Xorazm viloyati filiali hamda Toshkentdagi «GM Powertrain Uzbekistan» avtomobil dvigatellari zavodlari ishga tushdi.



45-rasm. O‘zbekiston avtomobillarining eksporti.



46-rasm. O‘zbekistondagi avtomobilsozlikning yirik korxonalari.

Xorazm viloyati filiali mamlakatimiz avtomobilsozlik sanoati tarkibida iqtisodiyotimiz rivojiga salmoqli hissa qo‘shayotgan korxonalardandir. Filial yiliga 40 ming avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lib, «Damas», «Labo», «Orlando» rusumli avtomobillar ishlab chiqariladi.

Mamlakatimizda avtomobil sanoatini rivojlantirish borasida 2017-yil yana bir qadam qo‘yildi. «O‘zavtosanoat» AK va Fransiyaning «Pejo Citroen» guruhi o‘rtasida O‘zbekistonda yengil tijorat avtomobillarini ishlab chiqaruvchi qo‘shma korxona barpo etish bo‘yicha kelishuv imzolandi. Unga ko‘ra, yangi korxona «Jizzax» erkin iqtisodiy zonasida quriladi. Zavod «Peugeot» va «Citroen» brendlari ostida yo‘lovchi va yuk tashishga mo‘ljallangan yengil tijorat avtomobillarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtiriladi. Qo‘shma korxona har ikki tomonning teng ulushi asosida faoliyat yuritadi.

Qurilishi rejalashtirilayotgan qo‘shma korxonada yiliga 16000 ta avtomobil ishlab chiqariladi. Ularni O‘zbekistonda, shuningdek, uzoq va yaqin xorij davlatlaridagi eksport bozorlarida sotish rejalashtirilmoqda.

1. Asakada ishlab chiqarilayotgan avtomobil qismlarini butkul mamlakatimizda ishlab chiqarish bilan qanday muammolar yechimiga yo‘l ochiladi?
2. Avtomobil uchun qismlarning mamlakat hududi bo‘ylab kichik korxonalarda tayyorlangani ma’qulmi yoki barcha qismlarni Asaka shahrida ishlab chiqarish ma’qulmi? Javobingizni asoslang.

YOG‘OCHNI QAYTA ISHLASH SANOATI

11-dars mavzusidan yog‘ochni qayta ishlash sanoatining yalpi sanoat mahsulotidagi salmog‘ini aniqlang.

O‘rmon sanoati yog‘och tayyorlash va yog‘ochni qayta ishlash tarmoqlariga bo‘linadi. Yog‘ochni qayta ishlash hunarmandchilik turi sifatida qadimdan ma’lum. Hunarmandlar yog‘ochga ishlov berib, undan arava, egar, panjara, sandiq, eshik, beshik, rom kabilarni yasashgan, uylar qurishgan. Yog‘ochsozlik yillar davomida takomillasha borib, undan yangi-yangi sanoat tarmoqlari vujudga keldi (47-rasm). Ayniqsa, yog‘ochni kimyoviy qayta ishlash tufayli yog‘ochsozlikda tub (inqilobiy) o‘zgarish yasaldi.


Mamlakatning yog‘och-taxta xomashyosiga bo‘lgan yillik ehtiyoji 10 mln kub metrdan ortmoqda. Ammo yog‘och xomashyosi bo‘ladigan tabiiy o‘rmonlar bizda nihoyatda cheklangan. Shu bois, har yili millionlab nihol ekiladi, «ko‘kalamzorlashtirish oyligi» o‘tkaziladi. O‘rmonlar barpo etish va yog‘och boyliklaridan oqilona foydalanish bilan maxsus o‘rmon xo‘jaliklari shug‘ullanadi. Respublikamizda 100 ga yaqin o‘rmon xo‘jaligi korxonalari, qo‘riqxonalar va milliy bog‘lar bor.

O‘rmon sanoati mahsulotlaridan mashinasozlik, kimyo sanoati, yengil sanoat, transport va qurilishda foydalaniladi. O‘z navbatida o‘rmon sanoati ham boshqa tarmoqlardan loklar, bo‘yoqlar (mebel ishlab chiqarish uchun), soda, natriy, oqartiruvchi ximikatlar (qog‘oz tayyorlash uchun), avtomashinalar, traktorlar, stanoklar (yog‘och tayyorlash va ishlov berish uchun) oladi. Boshqacha qilib aytganda, o‘rmon sanoati bilan boshqa tarmoqlar orasida keng tarmoqlararo aloqalar mavjuddir.

Mustaqillik yillarida Toshkent va Asakada ***duradgorlik buyumlari zavodlari***, Toshkentdagi quyoshdan himoya uskunalari zavodida esa plastmassadan deraza romlari ishlab chiqaradigan sex ishga tushirildi. Toshkentda O‘zbekiston – Gretsiya qo‘shma korxonasi «O‘z Ellas» gugurt zavodi mahsulot bera boshladi.

Yog‘och xomashyosi tanqisligi sanoatga jiddiy qiyinchilik tug‘dirmoqda. Yog‘ochlardan tejamkorlik bilan foydalanish maqsadida selluloza sanoati ham rivojlanmoqda.

Selluloza – maydalangan va kimyoviy yo‘l bilan ishlangan yog‘och massasi, u sun’iy tola va qog‘oz ishlash uchun xomashyo bo‘ladi.



47-rasm. Yog‘ochsozlik sanoatining tarmoq doirasidagi aloqalari.

Mamlakatimizning turli burchaklarida selluloza va qog‘oz ishlab chiqaradigan kichik korxonalar ishga tushmoqda. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kegayli tumanida mahalliy xomashyo qamish, bug‘doy, sholi somoni, paxta g‘o‘zapoyasidan selluloza va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxona tashkil etiladi.

Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 8-fevraldagi *«Sanoat terakchiligini rivojlantirish va boshqa tez o‘suvchi yog‘ochbop daraxtzorlarni barpo etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»*gi maxsus Qarori o‘rmon sanoatida keskin o‘zgarish yasadi. Qarorga muvofiq terakzorlar maydoni har yili 10 ming gektarga kengaymoqda. Yaqin kelajakda har yili 5 mln metr kub sanoatbop yog‘och tayyorlanadi. Yog‘och tayyorlash korxonalari taxta tilish zavodlariga g‘o‘la yog‘och yetkazib beradi. Tilingan yog‘och, ya’ni taxta mebel sanoati uchun xomashyodir. Yog‘och tayyorlash va yog‘ochsozlik chiqindilari (shox-shabba, qipiq, payraha, po‘stloq)dan o‘rmon-kimyo sanoatida spirt, moylar, bo‘yoqlar ishlab chiqariladi. Shu sababli o‘rmon-kimyo kombinatlari qurish o‘ta samaralidir. Yog‘och xomashyosi taqchil O‘zbekistonda chiqindilarni to‘la qayta ishlaydigan yog‘ochsozlik kombinatlari, ayniqsa, o‘ta muhim hisoblanadi.

1. Atlasning «transport» xaritasidan viloyatingizga yog‘och qayerdan va qaysi transport turida keltirilishini aniqlang.
2. Yog‘och tanqisligini bartaraf qilish maqsadida tumaningizda qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda.
3. Terak yog‘ochining sifati hamda ekologik ahamiyatiga ko‘ra qanday afzalliklarga ega ekanini botanika darslaridan eslang.

QURILISH MATERIALLARI SANOATI

11-darsdagi mavzudan qurilish materiallari sanoatining yalpi sanoat mahsulotidagi salmog‘ini aniqlang.


Qurilish materiallari sanoati milliy iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari bilan aloqadadir. Zavod va fabrikalar, uy-joylar, yo‘llar hamda irrigatsiya inshootlarining ko‘plab barpo etilishi bilan qurilishbop materiallarga talab ham ortib boraveradi.

Binokorlik uchun muhim bo‘lgan sement Quvasoy, Ohangaron, Angren, Navoiy va Bekobod shaharlarida hamda Zafarobod shaharchasida ishlab chiqarilmoqda. Ohangaron va Navoiy sement kombinatlari eng yirik kombinatlar hisoblanadi. Angren gilmoyasi negizida bezakbop oq sement ishlab chiqariladi.

2018-yil Surxondaryoda yana bir yirik sement zavodi ishga tushdi. Sherobod tumanida «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyati tomonidan barpo etilgan sement zavodi foydalanishga topshirildi (48-rasm). Ushbu sement zavodi vohada qurilish sanoatini zamon talablari darajasida rivojlantirishda, zamonaviy qurilish materiallarini ko‘paytirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksportga yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologik qismi turkiyalik hamkorlar tomonidan amalga oshirilgan mazkur zavodning Sherobod tumanida bunyod etilishining o‘ziga xos afzalliklari bor. Chunki eng yirik, ya’ni 708 million tonna sement xomashyosi, shu jumladan, 530 million tonna ohaktosh va 178 million tonna tuproq (glina) mavjud konlar aynan shu hududda joylashgan. Ushbu investitsiya loyihasining amalga oshirilishi natijasida bu yerda yiliga 1,5 million tonna yuqori sifatli portlandsement ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Surxondaryo viloyatining geografik joylashuvi nafaqat yurtimizda amalga oshirilayotgan, balki qo‘shni davlatlar, shu jumladan, Afg‘oniston Respublikasida ham keng ko‘lamdagi qurilish-bunyodkorlik ishlari uchun zarur bo‘lgan sement mahsulotining ichki va tashqi bozorda o‘z xaridorini topish imkoniyatini beradi.



48-rasm. Sherobod sement zavodi.

O‘zbekiston chiroyli va pishiq marmarga boy. Yurtimizda topilgan 34 ta marmar konining 5 tasidan marmar qazib olinmoqda.

G‘ozg‘on koni marmar zaxirasining ko‘pligi, yuqori sifatliligi jihatidan jahondagi eng mashhur konlardan biridir. Undan qazib olingan marmar sobiq Ittifoq davrida boshqa mahsulotlar kabi Markazga tashib ketilardi. Moskva, Sankt-Peterburg shaharlaridagi metropolitenlarning ko‘plab bekatlari va boshqa inshootlar G‘ozg‘on marmari bilan bezatilgan. Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Opera va balet teatri, «O‘zbekiston», «Toshkent Palace» kabi mehmonxonalar, Toshkent metropoliteni hamda boshqa ko‘pgina ulug‘vor madaniy-maishiy binolar qurilishiga ham shu kon marmarlari ishlatilgan. Toshkent shahridan 74 km shimoli sharqda joylashgan Orkut-soy konida qora, oq va kulrang marmar uchraydi. Toshkent va G‘azalkent marmar zavodlarida marmarga pardoz beriladi.



Bezakbop toshlarning umumiy zaxiralari 85 mln kub metrdan ortadi. Ular toshni qayta ishlaydigan korxonalarni yuz yillar davomida xomashyo bilan ta’minlay oladi.

Chirchiq shahri yaqinida mahalliy xomashyo asosida ishlaydigan ***deraza oynalari ishlab chiqariladigan zavod*** faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuningdek, Jizzax viloyatida Xitoy kompaniyasi ishtirokida boshlangan oyna zavodi qurilishining birinchi bosqichi yakuniga yetdi (49-rasm). Zavod faoliyatining to‘liq yo‘lga qo‘yilishi 2019-yilga rejalashtirilgan. Shu tariqa Jizzax oyna zavodi Markaziy Osiyoda ushbu turdagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi eng yirik korxonaga aylanadi.

Qurilishning asoslaridan biri ***temir-betondir.*** Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Buxoro viloyatlarida temir-beton buyumlari ishlab chiqarilmoqda. Xorazm, Buxoro va Farg‘ona viloyatlarida ***silikat bloklari*** ishlab chiqaradigan zavodlar qurilgan. Jizzaxdagi silikat zavodi Mirzacho‘l xo‘jaliklari, shaharlari va shahar-chalari uchun devor bloklari, panellar, poydevorlar, zinapoyalar va boshqa silikat buyumlari tayyorlaydi. Bino, ko‘prik, yo‘l va boshqa inshootlar uchun barcha qismlar maxsus zavodlarda tayyorlanadi.



49-rasm. Jizzax oyna zavodi.

Binokorlikda tayyor qismlarni qurilish inshootiga tashib keltirish birmuncha qiyin bo‘lganidan ularni ishlab chiqaradigan korxonalarni joylashtirishda ikki yo‘ldan biriga amal qilinadi. Katta va og‘ir qismlar tayyorlaydigan korxonalarni, asosan, qurilish keng ko‘lamda olib boriladigan



50-rasm. Qishloqda qurilgan binolar.

yirik shaharlar, sanoat rayonlari yaqinida qurish maqsadga muvofiq. Yoki xomashyo to‘g‘ridan to‘g‘ri inshoot barpo etiladigan joyga keltirilib, ulkan qurilishlar quyma usulda ham tiklanadi. Bunda binokorlik materiallari tejaladi, texnikadan unumli foydalaniladi hamda qurilish sur’ati jadallashadi.

Mustaqillik sharofati bilan barcha viloyatlarda qurilish ishlari misli ko‘rilmagan darajada avj olib ketdi. Yangidan yangi ijtimoiy obyektlar, ishlab chiqarish korxonalari, avtomobil va temiryo‘llar qurila boshladi. Shahar va qishloqlarda zamonaviy binolar qad ko‘tarmoqda (50-rasm). Ayniqsa, mamlakatimiz poytaxti tanib bo‘lmas darajada go‘zallashdi.

Mamlakatimizda qishloq aholi punktlarining qiyofasini tubdan o‘zgartirish, namunaviy loyihalar asosida yangi uy-joylar qurish, qishloqda yangi infratuzilmani shakllantirish hisobidan qishloq ahlining hayotini yanada yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda 2009-yildan boshlab qishloq joylarda qulay va kommunal xizmat sharoitlariga ega bo‘lgan yakka tartibdagi turar joy massivlarini kompleks qurish ishlari boshlandi.



Mamlakatimizning barcha qishloq tumanlarida namunaviy loyihalar asosida 1200 dan ortiq ***yangi uy-joy massivlari*** barpo etildi, 117,5 mingdan ziyod yakka tartibdagi uy-joy foydalanishga topshirildi.

Binokorlik ishlarining avj olishi qurilish materiallari sanoatining yuksalishiga olib kelmoqda.



1. Qurilish materiallari sanoatiga xomashyo sifatida yana nimalarni qo‘shimcha qilasiz?
2. Qurilish materiallari korxonasini joylashtirishda tabiiy sharoit, xomashyo, ishchi kuchi, transport omillaridan qaysi biri ahamiyatsiz ekanini tushuntiring.
3. O‘zbekistonning tabiiy boyliklari xaritasida qurilish materiallari konlari qayerlarda joylashganligini aniqlang.
4. Geografiya daftaringizga qurilish materiallari sanoatining boshqa sanoat tarmoqlariga aloqadorligi tarhini chizing.

23-dars

SANOAT VA EKOLOGIK MUAMMOLAR

Sanoat tabiatga katta ta’sir ko‘rsatuvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi xo‘jalik tarmog‘i hisoblanadi. Chunki sanoat tabiiy xomashyoni olish va uni qayta ishlashdan to yakuniy mahsulotga ega bo‘lguncha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi, shuningdek, ushbu jarayonga sanoat chiqindilarini atrof-muhitga tashlanishi ham kiradi.

Sanoat tarmoqlarining atrof-muhitga ta’siri yo‘nalishiga ko‘ra farqlanadi:

– atmosferaning ifloslanishiga ta’sir qiluvchi tarmoqlar: issiqlik energetikasi, metallurgiya, neftni qayta ishlash, sement ishlab chiqarish;

– suv resurslarini ifloslanishiga ta’sir qiluvchi tarmoqlar: kimyo, neftkimyo sanoati, yog‘ochni qayta ishlash, ko‘mir, sut-go‘sht sanoati;

– yer resurslarini ifloslanishi va buzilishiga ta’sir qiluvchi tarmoqlar: tog‘-kon sanoati va qurilish mollarini ishlab chiqarish sanoati va boshqalar.

Bugungi kunda atrof-muhitni asrab qolishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar sanoatning ekologizatsiyasi deb atala boshlangan.

Sanoat korxonalarini joylashtirishda ekologik omillarni hisobga olish. Odatda, sanoat korxonalarini joylashtirishda xomashyo, yoqilg‘i, transport, energetika, suv va mehnat resurslari kabi bir qator an’anaviy omillar inobatga olinadi.

So‘nggi 10 yilliklarda esa ular qatoriga eng muhim omil sifatida ekologik omil ham qo‘shildi. Mazkur omil talablari quyidagicha bo‘ladi: qurilishi rejalashtirilayotgan sanoat korxonasi o‘z faoliyati davomida atmosfera va atrof-muhitga yetkazadigan zarari oldindan bashoratlanadi; suv va yer resurslariga yetkaziladigan zarar, sanoat korxonasi faoliyati davomida chiqaradigan chiqindilar miqdori, bunday chiqindilarning utilizatsiyasi masalalari va utilizatsiya jarayonida atmosfera, suv, yer resurslariga yetkaziladigan zarar miqdori aniqlanadi.

Ekologik omil ma’lum bir hududda ma’lum bir sohadagi sanoat turini ishga tushirish yoki tushirmaslikka to‘laqonli asos bo‘la oladi. Chunki iqtisodiy nuqtayi nazardan ma’lum sanoat korxonasi hududni rivojlantirishi mumkin bo‘lsa-da, ekologik jihatdan u keskin salbiy natija berishi mumkin.



51-rasm. Sanoat va ekologiya.

Har bir sanoat korxonasini joylashtirishdan oldin u yerda ekologik eks-



52-rasm. Ekologiyaga sanoat korxonalarining ta’siri.

pertiza o‘tkazilishi shartdir. Ekologik ekspertiza natijalariga ko‘ra, qurilishi rejalashtirilayotgan sanoat korxonasidan olinadigan foyda buzilgan tabiatni tiklash va ushbu korxona faoliyati natijasida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishga ketadigan sarf-xarajatlardan yuqoriroq bo‘lsagina, bunday korxonaga faoliyat yuritishiga ruxsat beriladi.

Metallurgiyaning atrof-muhitga ta’siri. Metallurgiya majmuasi mamlakatimizda tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo‘lishi bilan birgalikda atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchilardan ham hisoblanadi. Metallurgiya tabiiy majmualarning barcha tarkibiy qismlariga ta’sir etadi. Tog‘-kon sanoati tuproq qatlamini buzib, landshaftlarning «yo‘qolishiga» sabab bo‘ladi. Mazkur sanoat tufayli katta karyerlar va yer ostida g‘orlar paydo bo‘lmoqda. Ular bosib qolish va antropogen yer silkinishi xavfini tug‘diradi. Ko‘p yerlarni metallurgiya chiqindilari egallab yotibdi.

Boyitish fabrikalarida ishlatilgan suvni oqar suvlarga tashlash ushbu suvlarni yaroqsiz holga olib kelmoqda. Metallurgiya zararli moddalarning ko‘p miqdorini atmosferaga chiqaradi. Jumladan, gaz qoldiqlari (oltingugurt va boshqalar), tarkibida metall bo‘lgan chang va boshqa elementlar juda xavflidir.

Bularning barchasi atrof-muhitda temir, qo‘rg‘oshin, mis, simob miqdorining ko‘payishiga olib keladi. Ular tuproq, o‘simlik va hayvonlar tanasida yig‘ilib, inson a’zosiga o‘tganidan keyin asta-sekin uni zaharlay boshlaydi.

Og‘ir metallar kishilar organizmidagi immunitetni pasaytirib, kasallanish darajasining yuqori bo‘lishiga ta’sir etadi, aholi va tabiat uchun katta xavf-xatar tug‘diradi.

Metallurgiya sanoati chiqindilari atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishining oldini olish uchun bu chiqindilarga to‘liq ishlov berib, ularni foydali mahsulotlarga (masalan, shlakli qurilish materialiga) aylantirish, zararsizlantirish, atmosferaga va suv havzalariga chiqadigan chiqindilarni tozalash zarur.

1. Qaysi sanoat tarmog‘i atmosferaning ifloslanishiga eng ko‘p salbiy ta’sir ko‘rsatadi?
2. Metallurgiya majmuasiga aloqador korxonalardan qaysi biri ekologik muammoni nihoyatda keskinlashtirmoqda? Bu korxona tabiatni bulg‘amasligi uchun qanday tadbirni taklif qilasiz?

AGROSANOAT MAJMUASI


Agrosanoat majmuasi O‘zbekistonda tarmoqlararo majmualarning dastlabki va yetakchisidir. U qishloq xo‘jaligi negizida shakllangan.

Agrosanoat majmuasi (ASM) – qishloq xo‘jalik mahsulotini yetishtirish va uni iste’molchiga yetkazish jarayonida aloqador barcha tarmoqlar uyg‘unligidir.

Qishloq xo‘jaligi bilan u yetishtirgan mahsulotlarni qayta ishlaydigan yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari daf’atan ASM tuzilmasini tashkil etgan. Bularga qo‘shimcha ravishda qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan mexanizmlarni ishlab chiqaradigan va ularni ta’mirlaydigan korxonalar, mineral o‘g‘it hamda o‘simlik zararkunandalariga qarshi qo‘llaniladigan moddalar ishlab chiqaradigan kimyo sanoati tarmoqlari ham ASMga kiradi. Bu tarmoqlar aslida og‘ir sanoatga tegishli bo‘lsa-da, ammo ular ishlab chiqarish ko‘lami va samaradorligining belgilovchi omili ekanidan ASMda birinchi guruhni, qishloq xo‘jaligi ikkinchi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan tarmoqlar uchinchi guruhni tashkil etadi (53-rasm).

Iqtisodiyotda band aholining katta qismi ASM tarmoqlarida mehnat qiladi. Chakana savdoning asosiy qismini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yoki shu mahsulotlarni qayta ishlab tayyorlangan tovarlar savdosi tashkil etadi. Demak, xalqimiz farovonligi, dasturxonimiz to‘kinligi, yana ham muhimi, aholining ish bilan bandligi ASM holatiga bog‘liq.

Afsuski, mustaqillikkacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonda paxta



53-rasm. Agrosanoat majmuasi tarkibi.


yakkahokimligining hukmronligi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini uyg‘un rivojlantirish imkonini bermadi. Natijada sanoat mahsulotlari qatori ayrim oziq-ovqat mahsulotlari ham chetdan keltirildi. Endilikda bu nomaqbulchilikni ikki yo‘l bilan bartaraf etilmoqda.

Birinchidan, qishloq xo‘jaligida ekin maydonlari tarkibi tubdan o‘zgartirildi. Ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o‘ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo‘lmish paxta yetishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni bir necha marta ko‘paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘liq ta’minlashga zamin tug‘dirdi.

2017-yilda 2000-yilga nisbatan g‘alla yetishtirish 2 marta, kartoshka – 4 marta, sabzavot – 4,3 marta, uzum – 2,7 marta, go‘sht va sut – 3 marta, tuxum – 4,8 marta oshdi.

Ikkinchidan, yerga bo‘lgan mulk shakli o‘zgartirildi. Ma’lumki, mustaqillikdan oldingi davrda dehqonlar yerdan butkul mahrum edi. Natijada qishloq xo‘jaligida ishlashga ishtiyoq susayib, tadbirkorlik zavol ko‘rdi. Endilikda dehqon xo‘jaligi, fermer xo‘jaligi kabi mulkchilikning xilma-xil shakllari qaror topdi va qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning asosiy qismi ular hissasiga to‘g‘ri kelmoqda (54-rasm).

Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish bilan birga, ularni qayta ishlashda samarali faoliyat ko‘rsatmoqda.



54-rasm. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar tarkibi va hissasi.

Zero, sanoatsiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirib bo‘lmaydi. Qishloq xo‘jaligi sanoat (ishlab chiqarish vositalari, ma’danli o‘g‘itlar ishlab chiqarish)dan boshlanib, (yetishtirilgan xomashyoni qayta ishlash) sanoat bilan tugaydi. Bu ikki tarmoq o‘rtasidagi aloqa agrosanoat integratsiyasi atalib, u tobora chuqurlashib boraveradi.



1. Qanday omillar qishloq xo‘jaligini sanoat bilan integratsiyalashuvini taqozo qilmoqda?
2. ASMdagi asosiy tarmoqlarni ayting va asosiyligi sababini izohlang.
3. Tumaningizdagi ASMga tegishli korxonalarni daftarga yozing.



QISHLOQ XO‘JALIGI

Oldingi mavzudan ma’lumki, qishloq xo‘jaligi ASMning ikkinchi guruhini tashkil etadi. Qishloq xo‘jaligining ikki muhim tarmog‘i – dehqonchilik va chorvachilikda insonlarning doimiy zaruriyati bo‘lgan oziq-ovqat, sanoat uchun xomashyo yetishtiriladi.

Xomashyolar sanoatda mehnat predmeti, ularga ishlov beriladigan mashinalar esa mehnat vositasi hisoblansa, qishloq xo‘jaligida ***mehnat predmeti*** ham, ***mehnat vositasi*** ham yer hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligida hosildorlik ko‘p jihatdan yerning holatiga bog‘liq. Shu sababli ***melioratsiya*** tadbirlari o‘tkaziladi.



Melioratsiya – yerning holatini yaxshilash uchun tekislash, sug‘orish, sho‘rini yuvish, nihol o‘tqazish, tuproq hosildorligini oshirish kabi tadbirlar yig‘indisi.

O‘simliklarning o‘sishi va hayvonlarning rivojlanishi tabiat qonunlariga bo‘ysunadi. Shu bois, qishloq xo‘jaligida ko‘pgina ishlar mavsumiydir.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi texnika bilan yaxshi ta’minlangan. Dehqonchilik va chorvachilikdagi sermehnat ishlarni mashinalar bajarmoqda. Ko‘p ish jarayonlari elektrlashtirilgan, kimyoviy o‘g‘itlardan, o‘simlik zararkunandalariga qarshi zaharli kimyoviy moddalardan hamda chorva mollari kasalliklariga qarshi kurash vositalaridan keng foydalanilmoqda. Shuningdek, kartoshka va sabzavotlarning serhosil, tashishga chidamli navlari ekila boshlandi. Bog‘dorchilikda ishlov berish hamda terishga qulay meva navlari yaratildi. Natijada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va tayyorlash texnologiyasida tub o‘zgarishlar yuz berdi, mehnat unumdorligi ortdi. Bu hodisa ***«Yashil inqilob»*** deb baholandi.


«Yashil inqilob» – qishloq xo‘jaligini fan, texnika yutuqlari negizida tubdan o‘zgartirish.

Agar qishloq xo‘jalik yalpi mahsuloti ekin maydonlarini kengaytirish va chorva mollari sonini oshirish hisobiga ko‘paysa, bu ***ekstensiv qishloq xo‘jaligi*** deyiladi. Aksincha, qishloq xo‘jalik yalpi mahsuloti maydon birligida agrotexnika vositalaridan samarali foydalanish evaziga hosildorlikni oshirishga erishish va chorva zotlarini yaxshilash hisobiga uning mahsuldorligi oshsa, u ***intensiv qishloq xo‘jaligi*** deb ataladi.

Qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish va rekultivatsiya ishlari natijasida qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yer maydoni ortadi. Ayni vaqtda sanoat va transport yuksalishi, uy-joy massivlari ko‘payishi bilan qishloq xo‘jaligida foydalanilayotgan yerlar qisqaradi. Yerdan foydalanish qoidalariga rioya qilmaslik azaldan foydalanilayotgan yerlar sho‘rlanishi, hatto cho‘llashishiga sabab bo‘ladi (55-rasm). Binobarin, qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar kengayishi va ayni vaqtda qisqarishi ham mumkin.

Qishloq xo‘jaligi maqsadlaridagina foydalaniladigan yerlar ***qishloq xo‘jalik yerlari*** deyiladi.

Qishloq xo‘jaligidagi bosh vazifa – ishlab chiqarishni intensivlashtirish, ya’ni hosildorlikni va chorva mahsuldorligini oshirishdir. Yer va suv resurslari cheklanganini hisobga olib, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning yagona to‘g‘ri yo‘li – qishloq xo‘jaligini intensiv rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash, seleksiya ishlarini chuqurlashtirish, yuksak agrotexnologiyalarni joriy etish va suvdan oqilona foydalanishdan iborat.



55-rasm. Yerdan foydalanish dinamikasi.

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshib bormoqda. Shu bilan birga izchil yuqori o‘sish sur’atlari barobarida, yalpi ichki mahsulot hajmida qishloq xo‘jalik mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu mamlakatimiz iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishidagi ijobiy o‘zgarishlarning, ya’ni agrar respublikadan sanoati rivojlangan industrial davlatga aylanayotganidan dalolatdir.

1. Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning asosiy yo‘llarini aytib bering.
2. O‘zbekistonning yer boyligi dehqonchilik va chorvachilik o‘rtasida qanday taqsimlangan?
3. Sizning tumaningizda qanday meliorativ tadbirlar amalga oshirilmoqda?

26-dars

DEHQONCHILIK

Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining yarmidan ortiqrog‘i dehqonchilikdan, qolgani esa chorvachilikdan olinadi. Dehqonchilikda tuproq-iqlim sharoiti qat’iy hisobga olinadi.


Dehqonchilik ***dalachilik, bog‘dorchilik*** va ***uzumchilikdan*** iborat. Ekin turlari bo‘yicha don ekinlari, texnika ekinlari, yem-xashak, sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari xo‘jaliklariga bo‘linadi.

Ekinlar hosiliga o‘simlikning vegetatsiya davri, yorug‘lik, issiqlik va namlikning yalpi miqdori ta’sir ko‘rsatadi. ***Vegetatsiya davri*** – sutkalik o‘rtacha harorat +5 darajadan kam bo‘lmagan kunlar.

O‘zbekistonda sug‘orib dehqonchilik qilish keng tarqalgan. Sug‘oriladigan yerlar mamlakat yer boyliklarining 9,2 foizini tashkil etsa-da, qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan yalpi mahsulotning 98,5 foizi shu yerlarda yetishtiriladi.

Dehqonchilikda paxtachilik katta o‘rin egallaydi (56-rasm). O‘zbekistonda asosiy ***texnik ekin*** bo‘lgan paxta qishloq xo‘jaligining deyarli barcha sohalari va sanoatning ko‘pgina tarmoqlari yuksalishining bosh omilidir (57-rasm). Paxta barcha texnik ekin maydonlarining katta qismini egallaydi.

Paxtachilik yuksala borgani sari iqtisodiyotning turli tarmoqlari bilan uning ishlab chiqarish aloqasi kengayib, paxtachilik majmuasi vujudga keldi. Paxta beda, makkajo‘xori va sholi bilan almashlab ekilsa, tuproq tarkibi yaxshilana-




56-rasm. Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari tarkibi.

di, uning sho‘ri kamayadi, paxta kasallikka chalinmaydi. Beda, makkajo‘xori ekilishi tufayli chorva mollari uchun ozuqa ham olinadi.

Ayni vaqtda ***donli ekinlar*** ekishni rivojlantirishga ham katta e’tibor berilmoqda. Mustaqillikka qadar jami ekin maydonining 20 foiziga yaqin qismida donli ekinlar ekilgan bo‘lsa, endilikda donli ekinlar maydonlari hissasi 50 foizdan oshdi. Natijada mamlakatimiz don mustaqilligini ham qo‘lga kiritdi. Donning asosiy qismini bug‘doy, arpa, sholi, makkajo‘xori va oq jo‘xori tashkil qiladi. Bug‘doy va arpa ko‘proq bahorikor yerlarga ekiladi. Qishning yumshoq va nam kelishi hamda bahorgi yog‘ingarchilik kuzgi g‘alla uchun qulay sharoit yaratadi. Bug‘doyning kuzgisi lalmi bug‘doyga qaraganda serhosil bo‘ladi (58-rasm).

Donli ekinlar yetishtirishda sholikorlik ham kattagina o‘rin tutadi. Sholi vegetatsiya davri uzoq, serquyosh, suvga mo‘l yerlarda yaxshi o‘sadi. U



57-rasm. Paxtachilikning boshqa tarmoqlar bilan aloqasi.

hosildorlik jihatidan faqat makkajo‘xoridan keyin turadi. Sholi Xorazm, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent viloyatida, Zarafshon va Farg‘ona vodiylarida ko‘p ekiladi. Amudaryo quyi oqimi sohillaridagi unumdor qo‘riq yerlarni ishga solish va ularni sug‘orish uchun suv boyligidan foydalanish ko‘plab sholi yetishtirish imkonini bermoqda. Endilikda yetishtirilgan guruchni chetga eksport qilish imkoniyati tug‘ildi. O‘zbekistonda ko‘p yillik taran (teri oshlashda ishlatiladigan xomashyo), zig‘ir, kunjut, maxsar, tamaki ham o‘stirilmoqda.



58-rasm. Bug‘doy o‘rimi.

Sabzavotchilik, kartoshkachilik va polizchilik deyarli barcha viloyatlarda rivojlangan. U Toshkent, Samarqand, Andijon kabi yirik shaharlar atrofida katta maydonlarni egallaydi. O‘zbekiston qovunlari xushbo‘y va shirinligi bilan qadimdan mashhur. Ular Xorazm, Buxoro, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog‘istonda ko‘plab yetishtiriladi.

Bog‘dorchilik va uzumchilik tabiiy sharoit, xalqning asrlar bo‘yi to‘plagan boy tajribasiga muvofiq har bir viloyatda alohida tarmoq sifatida ixtisoslashgan. Quva (Farg‘ona viloyati) va Dashnobod (Surxondaryo viloyati) anorlari, Andijon uzumi, Samarqand mayizi azaldan mashhurdir. Oltiariqda uzumchilik va bodring yetishtirish, Farg‘ona viloyati adirlarida (O‘qchi, Rishton, Chimyon, Mindon) o‘rik, shaftoli yetishtirish, Oqqo‘rg‘onda (Buvayda) anjir yetishtirish rivojlangan. Xorazm, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog‘istonda bog‘ va tokzor maydonlar birmuncha kamroq.

Sabzavot-poliz ekinlari, meva va uzumlar mamlakatimizdan shimolda joylashgan yurtlardagiga nisbatan 60–70 kun erta yetiladi. Demak, bu sohada ham O‘zbekiston talay eksport imkoniyatlariga ega. O‘zbekistonda bog‘dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan ko‘plab xo‘jaliklar bor. Ularning aksariyati o‘zi yetishtirgan mahsulotni shu yerda qayta ishlab, sharbat va konserva tayyorlaydi. Ana shunday sanoat korxonalari bo‘lgan xo‘jaliklar negizida agrosanoat birlashmalari vujudga kelmoqda.

1. Sholi, kanop, moyli ekinlar, tamaki ekiladigan joylarni xaritadan toping.
2. Siz yashab turgan tuman yoki viloyatdan qanday mevalar qaysi viloyatlarga yuboriladi?
3. Siz yashab turgan tumanda qaysi tarmoqlar paxtachilik bilan bog‘langan?

CHORVACHILIK

Qishloq xo‘jaligining ***chorvachilik tarmog‘i:*** qoramolchilik, qo‘ychilik, pillachilik, yilqichilik va parrandachilikka bo‘linadi. Unga asalarichilik, cho‘chqachilik va baliqchilik ham kiritiladi.

Qishloq xo‘jalik yerlarining 2/3 qismidan chorvachilikda foydalaniladi. Mamlakatimizning dasht va cho‘llaridagi o‘tloq va butazorlar qorako‘l qo‘ylari va tuya boqish uchun qulay. Tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida anchagina sero‘t yaylovlar bor. Bu mintaqalarda qo‘y, mayin junli echki, go‘sht-sut uchun qoramol boqiladi hamda yilqichilik rivojlangan.

Chorvachilik paxtachilik bilan ko‘p tomonlama bog‘liq. Buni fermer xo‘jaliklarda paxtachilikdan olinadigan (kunjara, sheluxa singari) ozuqa yemdan foydalanishda yaqqol ko‘rish mumkin. Paxtani beda va jo‘xori bilan almashlab ekish go‘sht-sut chorvachiligini ozuqa bilan ham ta’minlaydi.

Mamlakatimizda ***qo‘y va echkilar***ning umumiy soni 16 mln dan ortiq, ularning asosiy qismi qorako‘l qo‘ylardir (59-rasm). Qorako‘l qo‘ylari (Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlaridan tashqari) barcha viloyatlarda boqiladi. Ulardan asosan teri, jun hamda go‘sht olinadi. Echkilar respublikaning deyarli barcha viloyatlarida, asosan, mayin tivit va jun uchun boqiladi (60-rasm).


Qoramol ham barcha viloyatlarda boqiladi. Qoramollar go‘sht va sut mahsulotlarini olish maqsadida boqiladi. Mamlakatimizda qoramollarning jami soni 9,6 mln boshdan ortiq.

Yilqilar Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog‘istonda boqiladi. Ularning soni 150 ming boshga yaqinlashdi. Ilgari paxtachilikdagi ko‘pgina yumush (yuk tashish, paxtaga ishlov berish va hokazo)larni bajarishda otlardan foydalanilgan. Zero, yilqichilik bilan paxtachilik o‘zaro aloqador bo‘lgan. Bu ishlar endilikda texnika vositasida bajarilayotganligi tufayli bugungi kunda otlar turli sport o‘yinlari, shaxsiy xo‘jalikda foydalanish, go‘sht va qimiz olish maqsadida boqilmoqda. Cho‘llarda tuya boqiladi. Tuyadan ishchi hayvon sifatida foydalaniladi, shuningdek, ulardan jun, sut olinadi.



59-rasm. Qorako‘l qo‘ylari.

Pillachilik ham mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining eng qadimgi tarmoqlaridan biri



60-rasm. O‘zbekistonning chorvachilik keng tarqalgan rayonlari.

bo‘lib, paxtachilik bilan bog‘liq. Ipak qurtining ozuqasi – tut daraxti paxta paykallari chekkalarida, ariq va kanallar hamda yo‘l yoqalarida o‘stiriladi. Tut daraxti g‘o‘zani kuchli shamoldan, ariq va kanallar qirg‘og‘ini yuvilishdan saqlaydi. Pillachilikning paxtachilik bilan bog‘liqligi shu bilangina cheklanmaydi. Ma’lumki, ipak qurti asosan aprel–may oylarida boqiladi. Bu vaqtda paxtachilikda ishlar kamayib, bo‘shagan ishchi kuchidan qurt boqishda foydalaniladi.

Parrandachilik inkubator stansiyalari go‘sht va tuxum yetishtirishga ixtisoslashgan parrandachilik fermalarida tashkil etilgan.

Toshkent, Buxoro va Xorazm viloyatlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasining ko‘l va suv omborlarida baliq urchitilmoqda hamda suv parranda fermalari tashkil etilmoqda. Suv havzalarida, daryo bo‘ylarida qimmatbaho mo‘ynali kichik hayvonlar – nutriya va ondatra qo‘riqxonalari tashkil etilgan.


1. Chorvachilikning qaysi tarmoqlarini bilasiz?
2. O‘zbekistonning qaysi hududlarida, asosan, qoramol boqiladi?
3. Pillachilik va parrandachilik qayerlarda rivojlanmoqda?
4. Siz yashab turgan tuman va viloyatda chorvachilikning qaysi tarmog‘i yaxshi yo‘lga qo‘yilgan? Bunga sabab nima?

28-dars

O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ XO‘JALIGINING GEOGRAFIK TIPLARI

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari mamlakatning hamma qismida bir xil emas, chunki aholining va sanoatning ehtiyoji hamda tabiiy sharoiti turli joyda turli xildir. Shu sababli qishloq xo‘jaligi ham sanoat tarmoqlari singari muayyan sohalarga ixtisoslashadi. Odatda, ixtisoslashgan qishloq xo‘jalik tarmog‘i boshqa tarmoqlar bilan aloqadorlikda rivojlanadi. Natijada tabiiy sharoitdan va aholining mehnat malakalaridan oqilona foydalanish imkonini beradi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mustaqillikka qadar Rossiyaning to‘qimachilik korxonalarini paxta bilan ta’minlashni ko‘zlab, asosan, paxtachilikka ixtisoslashdi. Qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlari esa paxtachiliknigina rivojlantirishga bo‘ysundirilgan yordamchi tarmoqlar hisoblanardi. Endilikda yurtimizda paxta yakkahokimligi tugatildi. Uning o‘rnida g‘alla, kartoshka, meva-sabzavot kabi dehqonchilikning turli tarmoqlarini ustuvor rivojlanishiga katta e’tibor qaratilmoqda (61-rasm).



61-rasm. O‘zbekiston dehqonchilik tarmoqlari.

Qishloq xo‘jaligining mintaqalar bo‘yicha ixtisoslashuvi. O‘zbekistonda tabiat mintaqalari aksariyat mamlakatlardagidan farq qilib, shimoldan janubga emas, balki g‘arbdan sharqqa, ya’ni tekislikdan tog‘larga tomon o‘zgaradi.

Nima sababdan tabiat mintaqalari g‘arbdan sharqqa tomon o‘zgarishini 7-sinf geografiya darslaridan eslang.



62-rasm. Sug‘oriladigan yerlar.

Shunga muvofiq, qishloq xo‘jaligining ixtisoslashishi ham cho‘l, adir, tog‘, yaylov mintaqalari bo‘yicha bir-biridan farqlanadi. Paxta faqat sug‘orish mumkin bo‘lgan obikor yerlarda yetishtiriladi. Shuningdek, donli ekinlar bilan poliz ekinlarining ham talay qismi sug‘oriladigan maydonlarda yetishtiriladi.

Mamlakatimizda eng katta sug‘oriladigan yerlar Farg‘ona vodiysi, Mirzacho‘l, Qashqadaryo viloyati, Zarafshon vodiysi hamda Xorazm vohasidadir (62-rasm). Vodiy hamda vohalarda pillachilik, uzumchilik, bog‘dorchilik va polizchilik bilan shug‘ullaniladi.

Cho‘llarda qo‘ychilik va tuya boqish rivojlangan. Ular qish va bahorda cho‘llarda, yozda esa tog‘ yaylovlariga haydab boqiladi, kuzda yana cho‘lga qaytarib kelinadi.

Sanoat ishlab chiqarishi to‘plangan yerlarda, shaharlar tevaragida shahar atrofi qishloq xo‘jaligi tarkib topadi. Bunday xo‘jaliklarda shahar aholisini yangi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash uchun sabzavot, mevalar yetishtiriladi, qoramol, parranda boqiladi, hovuzlarda baliq urchitiladi.

1. Bir mintaqada ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligi yuritilishiga sabab nima?
2. Viloyatingiz ixtisoslashgan qishloq xo‘jaligi boshqa sohalar bilan qanday aloqadorligini o‘quv atlasidan foydalanib tushuntiring.
3. 61-rasm bo‘yicha dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish mintaqalarini tahlil qiling va xulosa chiqaring.

YENGIL SANOAT

11-dars mavzusidan yengil sanoatning yalpi sanoat mahsulotidagi salmog‘ini aniqlang.


24-dars mavzusidan ma’lumki, yengil sanoat oziq-ovqat sanoati bilan birga O‘zbekiston ASMning uchinchi guruhini tashkil etadi. U, asosan, paxtachilik va pillachilik negizida tarkib topdi. Paxta tozalash, to‘qimachilik, trikotaj, poyabzal, ko‘nchilik, ipak ishlab chiqarish yengil sanoatning muhim tarmoqlari hisoblanadi (63-rasm).

Paxta tozalash sanoati ishlab chiqarish jarayoni bir-biriga bog‘liq bo‘lgan paxta tozalash korxonasi, paxta quritish sexlari va transport xo‘jaligidan tarkib topadi. U qishloq xo‘jalik mahsulotlarini dastlabki ishlovchi tarmoq bo‘lganligi sababli uning korxonalari paxtakor tumanlarda joylashtiriladi. Shuningdek, temiryo‘l yoki avtomobil yo‘llaridan foydalanish qulayligi ham e’tiborga olinadi.

Paxta tozalash zavodlari ko‘proq mashinasozlik, yoqilg‘i-energetika majmualari hamda to‘qimachilik, yog‘, kiyim-kechak kabi sanoat korxonalari bilan ishlab chiqarish aloqasida bo‘ladi.


Birinchi paxta tozalash zavodi Toshkentda 1874-yilda qurilgan. O‘sha davr zavodi bir mavsumda ko‘pi bilan 3 ming tonna paxta tozalay olgan. Dastgohlarni esa suv kuchi harakatga keltirgan. Shu tufayli dastlabki vaqtlarda paxta tozalash korxonalari shaharlarda ham joylashgan. Zamonaviy paxta tozalash zavodi yil davomida 100 ming tonnagacha paxta tozalamoqda.

XX asr boshidagi mayda, yarim hunarmandchilik (210 ta) korxonalar o‘rnida endilikda mexanizatsiyalashgan 120 dan ortiq qudratli korxonalar ishlab turibdi (64-rasm). Mustaqillikdan keyin Janubiy Koreya, Turkiya va boshqa xorijiy mamlakatlarning firmalari bilan hamkorlikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Xorazm, Qashqadaryo va Farg‘ona viloyatlarida paxtani qayta ishlashdan tayyor to‘qimachilik mahsulotini ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab olgan korxonalar barpo etildi.



63-rasm. Yengil sanoat tarmoqlari.

O‘zbekistonda lub ekinlari yetishtirila boshlangach, XX asrning 30-yillarida



64-rasm. O‘zbekiston yengil sanoat punktlari.

kanop zavodlari yuzaga keldi. So‘nggi o‘n yilliklarda faoliyati to‘xtagan bu soha qayta tiklandi. Kanop qop-qanor, arqon, brezent va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Ipak gazlama to‘qish uchun dastlab pilla chuvilib, xom ipak tayyorlanadi. Pilla yetishtirilgan joyida chuvilgani ma’qul. Uni uzoqqa tashish qimmatga tushadi (50 tonna yuk ko‘taradigan vagonga ko‘pi bilan 4 tonna pilla joylash mumkin).

Pillachilik fabrikalarida, asosan, ayollar mehnat qiladi. Har bir fabrikada mingtacha odam ishlashi mumkin. Shunga ko‘ra, pillakashlik fabrikalari ipak qurti boqiladigan mintaqalardagi kichik va o‘rta shaharlarda joylashtiriladi.

Ko‘n-poyabzal ishlab chiqarish ham yengil sanoat tarmog‘idir. Toshkent va Samarqand shaharlarida charm ishlab chiqariladi. Poyabzal fabrikalari Toshkent, Farg‘ona, Chirchiq, Yangiyo‘l va boshqa shaharlarda joylashgan.

G‘ijduvon, Buxoro, Rishton, Urgut, Shahrisabz kabi shahar va tuman markazlari badiiy hunarmandchilik hamda kulolchilik, Xiva esa gilam to‘qish markazlari hisoblanadi.



65-rasm. To‘qimachilik korxonasi.

To‘qimachilik yengil sanoat tarkibidagi eng muhim tarmoq hisoblanadi. O‘zbekistonda ip va ipak gazlamalar to‘qish qadimdan mavjud bo‘lgan. Atlas, zondonachi, baxmal, beqasam, olacha kabi gazlamalar Buyuk Ipak yo‘li orqali Yevropa va Yaqin Sharq mamlakatlariga chiqarilgan. XX asr boshlarida 30 ming hunarmand gazlama to‘qish bilan shug‘ullangan.

Mo‘l-ko‘l xomashyodan tashqari aholining tarixiy tarkib topgan malakalari va transport qulayligiga tayanib, XX asr o‘rtalarida Toshkent, Farg‘ona, Andijon va Buxoro shaharlarida to‘qimachilik korxonalari barpo etildi. Mamlakatda ip-gazlama ishlab chiqarish yiliga 453 mln kv. metrdan oshdi. Ammo aholi jon boshiga hisoblanganda bu ko‘rsatkich 18 metr, ya’ni har bir kishiga belgilangan me’yorning yarmiga ham to‘g‘ri kelmasdi. Bu mo‘l-ko‘l xomashyo va mavjud inson omili imkoniyatiga nisbatan ancha oz edi.


Mustaqillikka erishilgach, jahon bozorida raqobatbardosh gazlama ishlab chiqarishni keng yo‘lga qo‘yish maqsadida AQSH, Italiya, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Koreya Respublikasi va boshqa mamlakatlar bilan qo‘shma korxonalar tashkil etilmoqda (65-rasm). Jumladan, AQSH bilan hamkorlikda Toshkent shahrida «Supertekstil» paxta ip yigiruv qo‘shma korxonasi, Buxoro va Samarqandda «Afg‘on–Buxoro–Samarqand» qo‘shma korxonalari ishga tushirildi. To‘qimachilik sanoati korxonalari xorijda ishlab chiqarilgan serunum jihozlar bilan qayta jihozlanmoqda. Sun’iy tolalardan to‘qiladigan gazlamalar sifati yaxshilandi.

To‘qimachilik korxonalarida ip-gazlama, jun gazlama, shoyi va zig‘ir tola gazlamalar to‘qiladi.

Gazlama to‘qib chiqarish jarayoni alohida-alohida joylashgan yigirish, to‘qish yoki pardozlash fabrikalarida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi (66-rasm). Transport xarajati, yuk ortish-tushirish sarflari tayyor mahsulot tannarxiga qo‘shiladi. Demak, to‘qimachilik ishlab chiqarishini yirik korxona (kombinat)da to‘plash foydaliroq bo‘ladi.

O‘zbekistonda tayyorlanadigan xom ipakning qayta ishlashdan ortgan qismi xorijiy davlatlarga eksport qilinmoqda.

Shunday qilib, to‘qimachilik sanoati korxonalarini joylashtirishda iste’molchilar, ishchi kuchi va xomashyo omili hisobga olinadi.



66-rasm. To‘qimachilik sanoatining tarmoq doirasidagi aloqalari.

1. 8-sinf geografiya atlasidan yengil sanoat korxonalari joylashgan shaharlarni aniqlang.
2. Tumaningizda yetishtirilgan pilla qayerda qayta ishlanadi?
3. Paxta tozalash zavodlari sonining kamayganini qanday izohlaysiz?
4. O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoatini yanada yuksaltirishning istiqbollari nimalarga bog‘liq?
5. Yozuvsiz xaritaga eng yirik to‘qimachilik markazlarini belgilang.

30-dars

OZIQ-OVQAT SANOATI

11-dars mavzusidan oziq-ovqat sanoatining yalpi sanoat mahsulotidagi salmog‘ini aniqlang.

Bu sanoat dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash negizida shakllangan. Uning korxonalari geografik joylashuvini qayta ishlanadigan xomashyo xususiyati belgilaydi. Xomashyo tez buziluvchan va qayta ishlanganda chiqindi ko‘p chiqadigan hamda olis masofaga tashishga chidamsiz bo‘lgan holatlarda korxona xomashyo yetishtiradigan joyda joylashtiriladi (sabzavot, go‘sht, konservalar, shakar ishlab chiqarish, meva sharbatlari tayyorlash). Endilikda oziq-ovqat sanoati korxonalari yuksak mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish tarmog‘iga aylangan. O‘tmishda faqat xomashyoga, ya’ni qishloq xo‘jaligigagina bog‘liq bo‘lgan bu sanoat hozirda mashinasozlik, energetika va kimyo tarmoqlari bilan chambarchas bog‘langan. Demak, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda xomashyo xarajatidan tashqari turli mashina mexanizmlari va yoqilg‘i xarajatlari hissasi tobora ortib bormoqda. Masalan, bug‘doy oz mablag‘ evaziga yetishtirilsa-da, un tortish va non tayyorlash jarayonidagi (mashina mexanizmlarga, yoqilg‘i-energetikaga) sarf-xarajatlar bois, tayyor non bahosi o‘zgarmasligi va hatto qimmatlashishi mumkin.

Un-yorma sanoati korxonalarida bug‘doy qayta ishlanadi. Bug‘doyni tashish un tashishdan birmuncha qulay. Ammo bug‘doy yetishtiriladigan maydonlar iste’molchilar yashaydigan joy bilan deyarli yonma-yon joylashgani tufayli bug‘doyni qayta ishlaydigan korxona (elevator)lar bug‘doy yetishtirilayotgan joyda ham, yirik shaharlarda ham uchraydi.


O‘zbekiston ***o‘simlik moyi*** ishlab chiqaruvchi yirik davlatlar sirasiga kiradi. O‘simlik moyi bizda, asosan, paxta tozalash zavodlarida ajratib olingan chigitdan olinadi (67-rasm). Endi yog‘-moy ishlab chiqaradigan korxonalarning geografik joylashuviga e’tibor qarataylik. Bu korxonalarning barchasi, avvalo, xomashyoga yaqin joyda, qolaversa, aholi zich hududlarda joylashganini ko‘ramiz.

Oziq-ovqat sanoatining yana bir muhim tarmog‘i ***go‘sht korxonalari***-dir. Hozirda transportning tezligi va maxsus muzlatkichlar go‘shtning sifatini buzmay uzoq masofaga tashish imkonini bermoqda. Shuning uchun go‘sht mahsuloti ko‘p iste’mol qilinadigan Toshkent, Andijon, Namangan, Farg‘ona, Ohangaron kabi shaharlarda go‘sht kombinatlari ishlamoqda. Non zavodlari, makaron, qandolat fabrikalari kabi korxonalar yirik aholi punktlarida joylashtiriladi (68-rasm).

Yaqin vaqtlargacha Samarqanddagi ***choy qadoqlash fabrikasi*** nafaqat mamlakatimizda, balki butun O‘rta Osiyoda shu turdagi yagona fabrika edi. Endilikda choy Toshkentda ham qadoqlanmoqda. Ma’lumki, o‘rta osiyoliklarning asosiy qismi ko‘k choy iste’mol qiladi. Shunga ko‘ra, bu yerda qadoqlanayotgan choyning 80 foizini ko‘k choy tashkil etadi. Toshkent, Farg‘ona, Samarqand va Buxoroda mineral suv tayyorlab idishlarga quyadigan maxsus zavodlar bor. Urgutda tamaki-fermentatsiya zavodi ishga tushirilgan.



67-rasm. Yog‘-moy kombinati moy ekstraksiya sexi.



68-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalari.

Shunday qilib, oziq-ovqat sanoatining rivojlantirilishi va joylashtirilishi: a) aholining soni va joylashishi, ya’ni iste’molchilar bilan; b) qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi, ya’ni xomashyo manbayi bilan; d) tayyor mahsulotni tashish shart-sharoitlari bilan belgilanadi.

Xomashyoning xilma-xilligi va oziq-ovqat mahsulotlarining hamma yerda iste’mol qilinishi oziq-ovqat sanoatining hamma joyda tarqalishiga imkon beradi. Oziq-ovqat sanoati ana shu xususiyati bilan boshqa tarmoqlardan farq qiladi. Lekin bu sanoat ba’zi joylarda faqat mahalliy ehtiyojlarnigina qondirsa, boshqa joylarda mamlakatning ko‘pgina rayonlariga mahsulot beradi.

1. Oziq-ovqat sanoatining rivojlanishi nimalarga bog‘liq?

2. Oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoatlarini joylashtirish tamoyillarini taqqoslang. Ularning o‘xshash tomonlarini va tafovutlari sabablarini tushuntirib bering.

3. Dalalardan terib olingan paxta maxsus paxta zavodlariga topshiriladi. U yerda paxta qayta ishlanib, chigit va tolaga ajratiladi. Tola to‘qimachilik korxonalariga jo‘natiladi hamda xorijga eksport qilinadi. Chigit esa oziq-ovqat korxonasi (moy kombinati)ga jo‘natiladi. Ayting-chi, paxta zavodini qayerga qurish foydaliroq bo‘lar ekan?

31-dars

SANOATNI HUDUDIY TASHKIL ETISH HAMDA JOYLASHTIRISH SHAKLLARI


Sanoat geografiyasini o‘rganish jarayonida sanoat korxonalari o‘rtasida yaqin aloqalar mavjudligini bilib oldingiz.

Ishlab chiqarish jarayoni o‘zaro bog‘langan korxonalarni bir-biriga yaqin joylashtirish – bir shaharda yoki yonma-yon turgan shaharchalarda qurish oqibatida ***sanoat tugunlari*** vujudga keladi (69-rasm).

Sanoat tuguni tarkibidagi korxonalar yagona transport tarmoqlaridan, energiya va suv manbalaridan birgalikda foydalanadi (ba’zan xomashyo boyliklari ham umumiy bo‘ladi), ishchi kuchlarini ishlab chiqarishga to‘laroq jalb qiladi. Bularning hammasi mehnat unumdorligini oshirishga, mablag‘larni tejashga, korxonalar egallaydigan maydonni qisqartirishga olib keladi. Sanoat tugunlari – sanoat korxonalarini joylashtirishning eng maqbul shakllaridan hisoblanadi.

Sanoat tugunlari, markazlari va punktlari to‘plangan hududlar ***sanoat rayonlari*** deyiladi.

Sanoat rayonlarining katta-kichikligi har xil bo‘ladi. Angren–Olmaliq, Toshkent–Chirchiq, ayniqsa, katta sanoat rayonlaridir. Demak, korxonalari oz sonli bo‘lgan shaharcha ***sanoat punkti*** hisoblanadi. Bir qancha korxonalari bo‘lsa-yu, ammo ishlab chiqarish jarayoni bog‘lanmagan, suv va energiya ta’minoti umumiy bo‘lmagan shahar ***sanoat markazi*** deyiladi.



69-rasm. Sanoat ishlab chiqarishni joylashtirish shakllari.

O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tayotganligi, bunda birinchi navbatda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirilayotganligi sabab mamlakatimizda sanoatning hududiy tashkil etishning erkin iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi kabi yangi shakllari vujudga keldi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 14 ta erkin iqtisodiy zona faoliyat yuritmoqda. «Navoiy», «Angren», «Jizzax», «Urgut», «G‘ijduvon», «Qo‘qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarida 62 ta loyiha amalga oshirilgan. Farmatsevtika sohasiga ixtisoslashgan «Nukus-farm», «Zomin-farm», «Kosonsoy-farm», «Sirdaryo-farm», «Boysun-farm», «Bo‘stonliq-farm», «Parkent-farm» singari 7 ta yangi erkin iqtisodiy zonani rivojlantirish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda.



Erkin iqtisodiy zona – mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir.

Toshkent shahri tumanlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi bo‘sh turgan yoki samarasiz ish yuritayotgan ishlab chiqarish binolaridan samarali foydalanish, yangi korxonalar tashkil etishni rag‘batlantirish maqsadida ushbu binolar negizida kichik sanoat zonalari tashkil etildi. Mamlakatimizdagi kichik sanoat zonalari 96 taga yetdi.

Bugungi kungacha ushbu zonalarda mingdan ortiq korxonalar tashkil etildi. Ularda nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham xaridorgir bo‘lgan yengil sanoat, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, elektr texnikasi buyumlari, zamonaviy qurilish materiallari, mebel va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.



1. Quyidagi omillardan qaysinisi sanoat tuguni vujudga kelishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi:

- ✓ sanoat korxonalarining yagona transport tarmog‘iga birlashishi;
- ✓ ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador korxonalarning bir-biriga yaqin joylashuvi;
- ✓ yirik shahar atrofida shaharchalar qad ko‘tarishi;
- ✓ korxonaning suv va energiyadan umumiy foydalanishi;
- ✓ ishlab chiqarish jarayonini ilg‘or texnologiya asosida tashkil etish.

2. Mamlakatimizda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarni yozuvsiz xaritaga tushiring.

32-dars

TRANSPORT GEOGRAFIYASI

Transport yo‘lovchilarni va yuklarni tashish bilan mamlakat bo‘ylab ham, jahon bo‘ylab ham geografik mehnat taqsimotining chuqurlashuviga imkon yaratadi. U mamlakatlararo iqtisodiy, madaniy aloqalarning yuksalishida muhim rol o‘ynaydi.


Yurtimiz jahon sivilizatsiyasining qadimiy davlatlaridan bo‘lganini tarix darslaridan yaxshi bilasiz. Bunda o‘sha vaqtda Yevropa bilan Osiyoni bog‘lab turuvchi – Buyuk Ipak yo‘li aynan bizning mamlakat hududidan o‘tganligi alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston ***quruqlik*** (temiryo‘l, avtomobil transporti), ***suv*** (daryo), ***havo, quvur*** (neft va tabiiy gaz tashish) va ***elektron*** (elektr uzatish liniyalari) ***transporti***ga ega.

Yuk va yo‘lovchi tashishda muayyan manzilga borgunicha transportning ikki, uch va hatto to‘rt turidan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Aytaylik,



70-rasm. O‘zbekistonning asosiy transport tugunlari va aloqa yo‘nalishlari.



71-rasm. 2017-yilda O‘zbekiston transport turlari bajargan ish.

xorijiy safarga bormoqchi bo‘lsak, temiryo‘l vokzali yoki aeroportgacha avtomobilda, so‘ngra poyezd yoki samolyotda ko‘zlangan manzilga yetamiz. O‘zbekistonda hozirgi zamon transportining (suv transportidan bo‘lak) barcha turlaridan keng ko‘lamda foydalanilmoqda (70-rasm).

Barcha transport turlari xizmat ko‘rsatish jarayonining o‘zaro aloqadorligi asosida transport majmuasini tashkil etadi. Har bir transport turiga mos yuk ortish-tushirish maydoni, harakat yo‘nalishi, vokzal, aerodrom, bekat hamda aloqa vositalari bo‘ladi.

Temiryo‘l, avtomobil yo‘li qurishga ko‘plab mablag‘ va vaqt kerak bo‘ladi. Quvur transportiga esa minglab tonna quvur sarflanadi. Ammo suv, havo transporti yo‘nalishi (trassa) oz mablag‘ evaziga yo‘lga qo‘yiladi.

Transport turlari ishchi kuchini band qilishi bo‘yicha ham keskin farqlanadi. Yuk quvur, suv, temiryo‘l transportlarida tashilganida sarf-xarajati avtomobil yoki havo transportida tashilgan yuk sarf-xarajatidan ancha kam bo‘ladi. Neft yoki yog‘och ortilgan ko‘plab vagonlarni bitta lokomotiv tortib borayotganini kuzatgandirsiz? O‘sha lokomotivni 2–3 kishigina boshqaradi. Holbuki, 125 tonna yuk ko‘taradigan eng katta avtomobilni ham shuncha kishi boshqaradi.

Katta hajmli 100 minglab tonna yuklarni suv transporti (tanker)da tashilganda esa yo‘l xarajati yana ham arzon tushadi. Suv transporti boshqa transportlardan sekin harakatlansa-da, olis masofani to‘xtovsiz bosib o‘tadi.

Shu sababli tezligi katta, ammo stansiyalarda to‘xtab-to‘xtab harakatlanadigan poyezd bilan raqobatlasha oladi. Yukni temiryo‘l va suv transportida bevosita egasiga yetkazish imkoniyati ancha cheklangan. Avtomobilda esa istalgan joyga yetkazib bersa bo‘ladi.

Transportning ishi uning yuk tashish hajmiga qarab belgilanadi. Yuk tashish hajmi ma’lum vaqtda ma’lum masofaga tashilgan yuk miqdoridir. U tonna, kilometrda ifodalanadi (71-rasm).

Transport turlari qanday yuk tashishiga, harakat tezligiga, shuningdek, qancha yuk ko‘tara olishiga ko‘ra guruhlanadi.

Transport sanoat bilan qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish aloqalarini, turli hududlar o‘rtasidagi mahsulot almashinishini hamda tashqi savdoni ta’minlaydi. Yangi hududlarni o‘zlashtirishda daf’atan transport yo‘llari o‘tkaziladi. Hozirgi zamon shaharlari hayotini transportsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Transportning mudofaa ahamiyati ham juda katta. Transport iqtisodiyotning ana shunday zaruriy omili bo‘lish barobarida unga talay miqdorda elektr, yoqilg‘i, metall, yog‘och sarflanadi.

1. Mamlakat hayotida transportning roli qanday? Transport moddiy ishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlaridan nima bilan farq qiladi?
2. Transport korxonalariga misollar ayting.
3. O‘quv atlasidan mamlakatimizdagi temiryo‘llarni va aeroportlarni ko‘rib chiqing.

33-dars

O‘ZBEKISTON TRANSPORTINING ZAMONAVIY RIVOJLANISHI

Temiryo‘l transporti iqlimiy sharoitlar va yil fasllari qanday bo‘lishiga qaramasdan hamma vaqt ishlayveradi. Uning tezligi katta, yuk tashish tannarxi nisbatan past. Temiryo‘l ***magistral***larini turli yo‘nalishda qurish mumkin.

Magistral (lotincha magistralis – asosiy) – asosiy yo‘nalish, asosiy transport yo‘li.

Mustaqillik yillari mamlakatimizda temiryo‘llarning qurilishiga katta e’tibor qaratildi va hozirgi vaqtga kelib ularning umumiy uzunligi 7 ming kilometrdan ortdi.

Avvallari mamlakatimiz poytaxtidan Xorazm yoki Surxondaryo viloyatiga borish uchun qo‘shni davlat Turkmaniston hududidan o‘tishga to‘g‘ri kelgan.

Xuddi shuningdek, Farg‘ona vodiysiga Tojikistondan o‘tilgan. Bu holat yo‘lovchi va yuk tashishda ortiqcha vaqt va mablag‘ talab qilgan. Endilikda mamlakatimizda bir butun temiryo‘l tizimini vujudga keltirish, O‘zbekiston chekka hududlari rivojlanishini tezlatish maqsadida Navoiy–Uchquduq–Nukus, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarini bog‘lovchi G‘uzor–Boysun–Qumqo‘rg‘on, Toshkentni Farg‘ona vodiysi bilan bog‘lovchi Angren–Pop temiryo‘llari qurib bitkazildi. Mamlakatimizning deyarli barcha temiryo‘llari tekisliklardan, daryo vodiylaridan o‘tsa-da, aynan Angren–Pop hamda G‘uzor–Boysun–Qumqo‘rg‘on yo‘nalishidagi temiryo‘llar baland tog‘ oralaridan o‘tadi.



72-rasm. «Afrosiyob» elektropoyezdi.

O‘zbekiston temiryo‘llarining mamlakatimiz ichidagi yo‘lovchi va yuklarni tashishdan tashqari, Osiyo va Yevropa mamlakatlarining tranzit yuklarini tashishda ham ahamiyati oshib bormoqda.

Tranzit – yuk yoki yo‘lovchilarning oraliqdagi stansiya, viloyat, davlat orqali o‘tishi.

Temiryo‘llar yo‘lovchilarni tashishda ham muhim o‘rin tutmoqda. Yil davomida temiryo‘ldan 15–20 mln dan ko‘proq yo‘lovchi foydalanmoqda.

O‘zbekistonda temiryo‘llar qo‘shni mamlakatlar (Qirg‘iziston, Tojikiston, Afg‘oniston, Turkmaniston)dagiga qaraganda ko‘p va texnik jihatdan ulardan oldinda turadi. So‘nggi o‘n yilliklarda O‘zbekistonda temiryo‘llarning qurilishi va elektrlashtirilishiga juda katta e’tibor qaratildi.

Temiryo‘llarning elektrlashtirilishi va elektrovozlarning ishlatilishi bilan poyezdlarning qatnov tezligi, ***yo‘llarning o‘tkazish imkoniyati***, demakki, ish unumi ortdi.

Yo‘lning o‘tkazish imkoniyati – temiryo‘llardan bir kecha-kunduzda o‘tish mumkin bo‘lgan poyezdlar miqdori. Ikki yo‘lli temiryo‘llarning o‘tkazish imkoniyati bir kecha-kunduzda 150 juft poyezdga, bir yo‘lli temiryo‘llarda esa, 30 juft poyezdga yetishi mumkin.

Temiryo‘llarni jahon talablari darajasida texnik jihozlanishi tufayli Toshkent–Samarqand yo‘nalishida yo‘lovchilar tashishga mo‘ljallan-



73-rasm. Tog‘ yo‘llari.

gan zamonaviy tezyurar «Afrosiyob» elektropoyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yildi (72-rasm). O‘rta Osiyoda birinchi bor bunyod etilgan tezyurar temiryo‘lni foydalanishga topshirilishi natijasida turizm rivojlanishi barobarida avtomobil yo‘llaridagi tig‘izlikka barham berildi. Endilikda «Afrosiyob» elektropoyezdlari Toshkent–Buxoro, Toshkent–Qarshi–Shahrisabz yo‘nalishlari bo‘yicha ham qatnamoqda.

Avtomobil transporti yuklarni (boshqa transportga qayta ortmay) bevosita iste’molchiga yetkazib bera oladi. Avtomobil transporti sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarini magistral transport bilan bog‘laydi, shaharlardagi va shaharlar atrofi hududlaridagi yuklarning asosiy qismini tashiydi. Qisqa (100 km gacha) va o‘rtacha masofalarga yo‘lovchi hamda yuk tashishda temiryo‘llarga qaraganda avtomobil afzaldir. Mamlakatimizning tog‘li rayonlarida avtomobil transportining ahamiyati, ayniqsa, katta (73-rasm).

1940-yillarda qurilgan Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari orqali o‘tadigan Katta O‘zbek trakti muhim ahamiyatga egadir. Uning uzunligi 700 km dan ortadi.

1959-yilda Toshkent–Angren–Qo‘qon avtomobil yo‘li (248 km) qurildi. Qurama tizma tog‘idagi Qamchiq dovonidan (dengiz sathidan salkam 2270 m balandlikda) o‘tadigan bu yo‘l orqali Toshkentdan Farg‘ona vodiysiga tashiladigan yuklar temiryo‘lda tashiladigan yuklarga qaraganda 3–4 baravar tez yetkaziladi. Ushbu yo‘l kengaytirilib, Qamchiq dovoni yaqinida ikkita tonnel ishga tushirildi (74-rasm). 2012-yilda uzunligi 116 km bo‘lgan Guliston–Ohangaron avtomobil yo‘li foydalanishga topshirildi.

Mamlakat viloyatlarining Qozog‘iston hamda Qirg‘iziston bilan transport-iqtisodiy aloqalari Toshkent shahri orqali amalga oshirilardi. Shaharda transport harakatini kamaytirish maqsadida shahar tashqarisida halqa yo‘l barpo etilgan. Uning uzunligi 64 km bo‘lib, O‘zbekistonda shunday maqsadda qurilgan yagona yo‘l hisoblanadi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi xorijiy mamlakatlar bilan bog‘-

laydigan yo‘llarga ehtiyojni kuchaytirdi. Mamlakatimiz shu maqsadda Xitoy va Pokistonga chiqish imkoniyatini beruvchi Andijon–O‘sh–Ergashtom–Qashqar avtomobil yo‘li hamda Hind okeaniga chiqishga imkon beradigan Termiz–Hirot–Karachi avtomobil yo‘li qurilishida va ularni qayta qurishda o‘z ulushi bilan qatnashmoqda.



74-rasm. Qamchiq dovonidagi tonnel.

Suv transportida tabiiy suv yo‘llaridan foydalaniladi. Shuning uchun suv yo‘lining yo‘nalishi ko‘pincha zaruriy yo‘nalishlarga to‘g‘ri kelavermaydi. Unga yoqilg‘i ko‘p sarflanmaydi va katta hajmli yuklarni ham tashiyveradi. Lekin harakat tezligi kam. O‘zbekiston materik ichkarisida joylashgan mamlakat bo‘lganligi uchun suv transportining ahamiyati katta emas.

Hozirda suv transporti asosan Amudaryo kemachiligidan iborat. Respublikada «Termiz daryo porti», «Xorazm daryo floti», «Qoraqalpog‘iston daryo floti» birlashmalari tashkil etilgan. Mamlakat daryo flotida 150 ga yaqin teploxod, shuningdek, barjalar, yordamchi kemalar va boshqa texnika vositalari bor. Yuklar asosan Termiz–Hayraton, Sharlovuq–To‘rtko‘l, Xo‘jayli–To‘rtko‘l, Xo‘jayli–Beruniy, Qoratov–Taxiatosh yo‘nalishlarida tashiladi.

Kelajakda O‘zbekiston ham jahon okeanida o‘zining flotiga ega bo‘ladi. Hozircha chetga chiqarilayotgan va chetdan keltirilayotgan yuklarning muayyan qismini kira haqi – ***fraxt*** evaziga boshqa davlatlarning kemalari tashib bermoqda.



Fraxt – suv yo‘lida yuk tashish haqi. Bu haq yukning og‘irligi, qancha masofaga tashilishi, hajmi, kemada tashish vaqt miqdoriga ko‘ra belgilanadi. O‘zbekiston chetga sotgan mollarini chet el kemalarida tashib, ko‘p mablag‘ sarflashga majbur bo‘lmoqda.

Havo transporti transportning eng qimmat va shu bilan birga eng tez harakatlanadigan hamda joy relyefiga kam bog‘liq bo‘lgan turidir. Yo‘lovchini uzoq masofaga, xususan, xorijga eltishda, bironta ham transport havo transporti o‘rnini bosa olmaydi. Havo transportida tashiladigan yuklarning ko‘pchiligi shoshilinch va qimmatbaho yuklardir (tez buziladigan mahsulotlar, pochta va boshqalar). Bugungi kunga kelib mamlakatimiz ko‘plab xorijiy mamlakatlar bilan havo yo‘llari orqali bog‘lanmoqda. Yoniga «O‘zbekiston» deb yozilgan va



75-rasm. O‘zbekiston havo yo‘llariga qarashli samolyot.

Davlat bayrog‘i ko‘rinishi tushirilgan samolyotlarni ko‘plab mamlakatlarning aeroportlarida uchratish mumkin (75-rasm).

Havo transporti yo‘lovchi (har yili 2 mln dan ortiq kishi) tashish jihatidangina emas, balki har xil yuk tashish jihatidan ham ahamiyatlidir. Mahalliy havo yo‘llarining umumiy uzunligi 60 ming km dan ortdi. Toshkent mamlakatimiz havo transportining eng yirik tuguniga aylandi.

Quvur transportidan, asosan, gaz va qisman neft tashishda foydalaniladi. Gaz quvurlari ichida Jarqoq–Buxoro–Samarqand–Toshkent, Muborak–Toshkent trassalari juda muhimdir (ularni 70-rasmdan toping). O‘zbekistondan Uralga (2100 km), Moskvaga (3500 km) o‘tkazilgan gaz quvurlari diametrining kattaligi va uzunligi jihatidan jahonda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi. Quvur transportining ish unumi quvurning diametridan tashqari, gaz yoki neft qanday bosim bilan harakatlanishiga ham bog‘liqdir. Fan va texnika yutuqlari 120 atmosfera bosimida gazni yuborish imkonini bermoqda. Lekin mamlakatimiz quvur transportida hozircha bosim 40 atmosferadan oshmayotir. O‘zbekiston sharoitida neft va gazni quvurlar vositasida tashish shimoldagi davlatlardagiga qaraganda birmuncha qulay. Neft, gaz sovuqda quyuqlashadi va quvurdan o‘tishi sekinlashadi. Buning chorasi sifatida quvurlar ma’lum oraliqda maxsus pechlar yordamida isitib turiladi. O‘zbekistonning qishi u qadar sovuq bo‘lmasligidan bunday pechlarga zarurat yo‘q. Demak, qo‘shimcha xarajat yo‘qligidan iste’molchiga arzonga tushadi.

Mamlakatimizda elektr tizimi vujudga kelishi va uning O‘rta Osiyo tizimiga ulanishi bilan transportning yangi turi – ***elektron transporti*** vujudga keldi. Viloyatlararo va davlatlararo o‘tkazilgan yuqori kuchlanishli elektr liniyalari orqali elektr quvvati uzatiladi.

1. 71-rasmdan foydalanib, avtomobil va temiryo‘l transporti orqali yiliga necha mln tonna yuk tashilishi va yuk tashishning o‘rtacha masofasini aniqlang.
2. Transport tuguni nima? Atlas xaritasidan transport tugunlariga misollar keltiring.
3. O‘zbekistonda transportning qaysi turlari rivojlangan?
4. Yozuvsiz xaritadagi transport mavzusiga doir topshiriqlarni bajaring hamda mustaqillik yillari qurilgan temiryo‘llarni belgilang.

34-dars

AHOLIGA XIZMAT KO‘RSATISH SOHALARI

Mamlakatimizda davlat budjeti xarajatlarining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltiriladi. U asosan moddiy ne’mat ishlab chiqarmaydigan sohalarni qamrab oladi.


10-dars mavzusidan moddiy ne’mat ishlab chiqarmaydigan sohalarga nimalar kirishini eslang!

Shuningdek, unga aloqa xizmati ham kiradi. Mazkur soha xizmat ko‘rsatish sohasi ham deb yuritiladi. Iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishda xizmat ko‘rsatish sohasi tobora katta rol o‘ynamoqda. Xizmat ko‘rsatish sohalari tarkibi nihoyatda xilma-xil va murakkab (76-rasm). Garchi iqtisodiyotning barcha sohalari aholining moddiy-ma’naviy ehtiyojini qondirsa-da, ammo bunda xizmat ko‘rsatish sohalarining o‘rni beqiyosdir. Uning bosh vazifasi aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishni ko‘paytirish hamda ularning turi va sifatini yaxshilashdir.

Iqtisodiyotning istalgan sohasiga qarang, unda faoliyat yuritayotgan malakali kadrlarni xizmat ko‘rsatish sohasi (ta’lim)da tayyorlanganligiga guvoh bo‘lasiz. Shuningdek, mehnatkashlarning dam olishi, davolanishi xizmat ko‘rsatish muassasalarida kechadi. Shu soha sharofati bilan kadrlar kasalligi, ya’ni ish kunlarining yo‘qotilishi kamayadi. Bular o‘z navbatida ijtimoiy mehnat unumdorligini yuksalishiga olib keladi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi insonning madaniy-ma’rifiy ruhiyatini rivojlantirish bilan ulkan ijtimoiy ahamiyatga ega.

Xizmat ko‘rsatish muassasalarini joylashtirishda bir qator omillar rol o‘ynaydi. Birinchidan, xizmat ko‘rsatish sohalari korxona va muassasalari



76-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohalari tarkibi.

aholi, asosan, qayerda gavjum bo‘lsa, o‘sha joyda barpo qilinadi. Biroq har qanday aholi punktida barcha xizmat ko‘rsatish muassasalari bo‘lavermaydi. Chunki bu soha xizmatiga muayyan miqdorda talabgor bo‘lishi shart. Chunonchi, aholisi oz, kichik qishloqlarda yirik ixtisoslashtirilgan savdo korxonalari yetarli samara bermaydi.

Ikkinchidan, xizmat ko‘rsatish muassasalarini joylashtirishda xizmatga talabning davriyligi ham jiddiy ta’sir etadi. Ba’zi xizmat turlariga ehtiyoj kunlikdir. Bularga uy-joy kommunal xizmati, maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, savdo xizmati kiradi. O‘rtacha muddat (bir oyda bir necha bor) foydalaniladigan xizmat turlari ham borki, ularga sartaroshxona, go‘zallik uyi, kimyoviy tozalash, kinoteatr va boshqalar kiradi. Boshqa xizmat turlari borki, ulardan yil davomida bir marta va hatto undan ham kam foydalaniladi. Jumladan, uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar xarid qilish yoki ularni ta’mirlash, sayyohlik xizmati, muzeyga borish kabilar.



Demak, xizmat ko‘rsatishning davriyligidan xizmat ko‘rsatish korxonalarini ***joylashtirish tamoyillari*** yuzaga keladi.

Kundalik xizmat ko‘rsatish korxonasi uy yoki ish joyi yaqinida bo‘lishi kerak. Uzoq muddat oralig‘ida murojaat qilinadigan xizmat uchun sifat va xizmatning xilma-xilligi muhimdir. Avtomobil, televizor xarid qilish yoki mutaxassis shifokor istab, maxsus shu sohaga ixtisoslashgan ancha olisdagi muassasaga ham murojaat qilinadi.

Axborotlarni tarqatish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini boshqarishda ***aloqa xizmati*** muhim o‘rin tutadi.

Aloqa xizmati ikki xil bo‘ladi. ***Pochta aloqasi*** turli pochta jo‘natmalari (xat, banderol, posilka va hokazolar)ni qabul qilish, jo‘natish va yetkazib berishni o‘z ichiga oladi. Pochta aloqasiga o‘xshash xizmat yurtimizda bundan 2,5 ming yil avval ham bo‘lgan. U davrlarda choparlar podsho farmonlarini noiblarga va qal’alardagi xabarlarni mamlakat poytaxtiga yetkazib turgan. Ikkinchisi ***elektron aloqa*** bo‘lib, u telefon, telegraf, radio, televideniye, elektron pochta kabilarni o‘z ichiga oladi. ***Telegraf aloqasi*** yurtimizda XIX asrning 80-yillarida temiryo‘l qurilishi bilan bir vaqtda vujudga kelgan. Dastlabki telegraf stansiyasi bundan I asr avval Toshkentda ishga tushgan. Respublikamizda ***mobil aloqa*** xizmati tez rivojlanmoqda. Endilikda undan foydalanuvchilar soni 19 milliondan oshdi.

1985-yilda ishga tushirilgan ***Toshkent teleminorasi*** Buyuk minoralar xalqaro federatsiyasi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, balandligi bo‘yicha dun-

yoning yetakchi o‘nta teleminorasi qatorida turadi (77-rasm). Mamlakat aholisi davlat va tijorat teleradiodasturlari va raqamli televideniye bilan ta’minlangan. Hozirda o‘ndan ortiq telekanallar faoliyat ko‘rsatmoqda.



77-rasm. Balandligi 375 metr bo‘lgan Toshkent teleminorasi.

Xizmat ko‘rsatish sohalari ichida ***matbaachilik*** ham muhim rol o‘ynaydi. Siz o‘qiyotgan darslik, kitob, jurnal, gazeta va boshqalar matbaachilik korxonasi bo‘lgan nashriyot va bosmaxonalarda tayyorlanadi. Dastlabki bosmaxona XV asr o‘rtalarida Germaniyada tashkil qilingan bo‘lsa, bizda birinchi bosmaxona XIX asr oxirlarida ishga tushgan. Bugungi kunda mamlakatimizda 120 dan ortiq bosmaxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Mustaqillikdan so‘ng bosmaxonalar tubdan qayta jihozlandi. Endilikda ularda matn va rasmlar zamonaviy kompyuterlarda terilmoqda va chop etilmoqda.

Ta’lim. Iqtisodiyotning barqaror va jadal yuksalishida inson omili hal qiluvchi ekanligini bilasiz. Ammo bunda mutaxassislarning ma’lumot darajasi, ma’naviyati yana ham muhimdir (78-rasm). Mamlakatda 10 mingga yaqin umumiy o‘rta ta’lim maktablari, ko‘plab akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko‘rsatmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda oliy ma’lumotli mutaxassislarga ehtiyoj kattaligidan kelib chiqib, yangi oliy ta’lim muassasalari, ularning filiallari hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli institut va universitetlari bilan qo‘shma ta’lim muassasalari ochilmoqda. Bugungi kunda mamlakatda savodxonlik dara-



78-rasm. Ta’limga e’tibor – kelajakka e’tibor.



79-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohasida sog‘liqni saqlash alohida o‘rin tutadi.

jasi 99,3 foiz bo‘lib, bu dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan birini tashkil etadi.

Sog‘liqni saqlash. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilinishi natijasida fuqarolarimizning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 1990-yildagi 67 yoshdan 2017-yilda 74 yoshni tashkil etdi va bu borada O‘zbekiston rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy oldi.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar natijasida zamonaviy tibbiyot anjomlaridan samarali foydalanilmoqda (79-rasm).

Aholining ovqatlanishini yaxshilash, un va tuzni zarur mikroelementlar bilan to‘yintirish, onalar va bolalarni vitaminga boy dori-darmonlar bilan ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar tufayli bugungi kunda bolalarimizning 92 foizi rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti standartlariga mos keladi.

1. Xizmat ko‘rsatish sohasining yuksalishi nimalarga bog‘liq?
2. 8-sinf atlasining umumta’lim maktablari, oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash, madaniyat mavzusidagi xaritalardan foydalanib, ularning joylanishini viloyatlar bo‘yicha qiyosiy tahlil qiling.
3. Mahallangizdagi xizmat ko‘rsatishga aloqador ishlab chiqarish yoki xizmat turlarini geografiya daftaringizga yozing.
4. Yozuvsiz xaritadagi xizmat ko‘rsatish sohalariga tegishli mavzu topshiriqlarini bajaring.
5. Sizningcha, xizmat ko‘rsatishning qaysi jihati qanoatlantirmoqda-yu, qaysi jihati talab darajasida emas?
6. Matn bilan tanishib chiqib, quyidagi jadvalni daftarga chizib oling va to‘ldiring:

t/r	Jami xizmat turlari	Shundan tumanimizda mavjudlari
1 ...		

35-dars

O‘ZBEKISTONDA REKREATSIYA VA TURIZM

Xizmat ko‘rsatish sohalari orasida rekreatsiya xizmati so‘nggi yillarda keng rivojlanmoqda. ***Rekreatsiya xizmati*** mehnat qilish jarayonida sarflangan kuch, energiyani tiklashda muhim omil hisoblanadi.

Rekreatsiya xizmatini rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan omillar:
– kundalik ehtiyojlaridan orttirgan mablag‘;
– rekreatsiya resurslari;
– rekreatsiya xo‘jaligi bo‘lishi.

Rekreatsiya resurslari ikki xil, ya’ni tabiiy rekreatsiya hamda madaniy-tarixiy rekreatsiyaga bo‘linadi. Tabiiy rekreatsiya resurslariga tabiiy sharoit va tabiiy boyliklari zaminida vujudga kelgan sharsharalar, g‘orlar, buloqlar, so‘lim tog‘ yonbag‘irlari kiradi. Tabiiy muhiti keskin o‘zgargan, tig‘iz infrastruktura sharoitida aholining tabiat qo‘ynida, maxsus dam olish maskanlarida hordiq chiqarishga ehtiyoji kuchaymoqda. Issiq avjiga chiqqan yoz oylarida tekisliklarda yashovchi aholi tog‘ maskanlariga oshiqadi. Tog‘larimiz mo‘tadil havosi, g‘aroyib o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda shifobaxsh buloqlari bilan tabiiy-rekratsion rayon sifatida xorijliklarni ham maftun etmoqda.

Tog‘larning tabiati shifobaxsh va maftunkor joylarida davolash va dam olish maskanlari mavjud. Toshkent viloyatidagi «Chimyon», Farg‘ona vodiysidagi «Shohimardon», «Chodak», «Nanay», «Quvasoy», «Bog‘i shamol», «Chortoq» dam olish zonalari va Buxoro viloyatidagi «Sitorai Mohi Xosa», Qashqadaryo viloyatidagi «Miroqi» kabi davolash maskanlari xorijda ham mashhur.

O‘z navbatida qadimgi shaharlar, maqbaralar, qal’alar, me’morchilik binolari, muzeylar mamlakatimiz madaniy merosini tashkil etmoqda.

Fusunkorligi hamda salobati bilan millionlab kishilarni lol qoldirayotgan tarixiy obidalarimiz xorijiy turistlarni yurtimiz sari chorlamoqda. Ana shunday tarixiy-madaniy obyektlar zaminida vujudga kelgan rayonlar, asosan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent, Qo‘qon kabi shaharlarda joylashgan (80-rasm). Afsus, ajdodlarimiz bunyod etgan 36 ming tarixiy obidadan 7 mingtasigina saqlangan. Qolganlari mustamlakachilar tomonidan turli yo‘llar bilan vayron etilgan. Endilikda ular katta mablag‘ va mehnat sarflab bo‘lsa-da, ta’mirlanmoqda.

Zero, sayyohlik (turizm) dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan



80-rasm. O‘zbekistonning eng yirik turistik markazlari.

sohalaridan biriga aylandi. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa ko‘plab mamlakatlar uchun katta daromad manbayi bo‘lib bormoqda.

BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotida 2015-yilda dunyo bo‘yicha 1,184 mlrd sayyoh qayd etilgan bo‘lsa, 2016-yil yakuni bo‘yicha bu ko‘rsatkich 1,235 mlrd ga, ya’ni 3,9 foizga oshgan. Sayohatchilarga ko‘rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2015-yilda qariyb 1,5 trillion AQSH dollarini tashkil qilgan. 2016–2017-yillarda ham bu raqamlarda katta tafovutni ko‘rish mumkin.

Shu bois, dunyoning ko‘plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

2015-yilda eng ko‘p xorijlik mehmonlarni qabul qilishda Fransiya (83,7 million), AQSH (74,8 million), Ispaniya (65,0 million), Xitoy (55,6 million) va Italiya (48,6 million) kuchli beshlikni egalladi. Afsuski, O‘zbekiston bu sohada hali ancha orqada ekanligini ko‘rish mumkin. Xususan, Butunjahon turizm va sayohatlar bo‘yicha kengashi (BTSK) tomonidan berilgan bahoga ko‘ra, O‘zbekiston sayyohlar tashrifi bo‘yicha dunyo mamlakatlari orasida 150-o‘rinni egallaydi.

Yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi yetarli emas edi.

Endilikda mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirishga kirishildi.



81-rasm. O‘zbekistonga sayyohlar tashrifi.

Jumladan, turizm sohasida faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlarni berish hamda yer oldi-berdi ishlari yengillashtirilib, jahon andozalariga javob beradigan mehmonxonalar sonini ko‘paytirish, shu orqali raqobatni kuchaytirish, mehmonxona narxlarini arzonlashtirishga kirishildi.

Yana bir muhim yo‘nalish – turistlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xorijiy tillarni hamda tarix va geografiyani puxta biladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirishdir. Gidlar, mehmonxona xodimlari, turistik xizmatlar ko‘rsatishning yanada mukammal standartlarini o‘rnatish shular jumlasidandir. Samarqandda ochilgan «Ipak yo‘li» Xalqaro Turizm universiteti faoliyati ham shu maqsadlar uchun xizmat qilmoqda. Bunga qo‘shimcha ravishda xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikdagi qo‘shma fakultetlar, xorijiy OTMlar filiallari ham soha mutaxassislarini tayyorlashda yordam bermoqda. Hozir bu borada, ayniqsa, Rossiya, Koreya, Turkiya Turizm akademiyasi, Yevropa oliygohlari bilan faol ish olib borilyapti. Natijada mamlakatimiz bo‘ylab sayohat qiluvchilarning soni yildan yilga oshib bormoqda.

Umuman olganda endilikda turizm sohasiga milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri sifatida qaralmoqda. Zero, mamlakatimizdagi tarixiy obidalarning qariyb 200 tasi madaniy meros obyektlari sifatida YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan.

Rekreatsiya xo‘jaligi tarkibiga mehmonxonalar, dam olish uylari va bazalari, sanatoriyalar, turbazalar, turistik transport va boshqalar kiradi.

1. Xizmat ko‘rsatish muassasalaridan qay biri aholi punktlaridan xoli joyda bo‘lgani ma’qul?
2. Tuman yoki qishloqlarimizdagi xizmat ko‘rsatish muassasalarini o‘rganib, bu boradagi yutuq va kamchiliklarni aniqlang.
3. Tabiatning maftunkor joylari qaysi viloyatlarda ko‘p (7-sinf «O‘zbekiston tabiiy geografiyasi» kursidan eslang)?

TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Siz shaxsiy tomorqa yoki xususiy fermer xo‘jaligingizda yetishtirgan mahsulotni o‘zingizda bo‘lmagan mahsulotga almashtirish yoki bozorda sotishga ehtiyoj sezasiz. Bunday holatni davlatlararo munosabatlarda ham kuzatamiz. Darhaqiqat, O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan muayyan mahsulot, buyumga talab xorijda katta bo‘lsa, uni mamlakat ehtiyojidan ortiq ishlab chiqarish maqsadga muvofiq. Aksincha, o‘zimizda ishlab chiqarishdan ko‘ra xorijdan keltirilsa arzon tushadigan mollarni sotib olish ma’qul.

O‘zbekiston mashinalar, kimyo mahsulotlari, qora va rangli metall, elektr energiya, gaz, paxta tolasi, oziq-ovqat mollari, pilla, qorako‘l singari mahsulotlarni eksport qiluvchi mamlakatlardan hisoblanadi. O‘z navbatida O‘zbekiston o‘zida yetishmagan oziq-ovqat va sanoat mollarini, shuningdek, xalq iste’moli buyumlarini import qiladi.

O‘zbekiston xalqaro iqtisodiy hamkorlikka faol kirishgan. Hozirgi kunda 140 dan ortiq davlat bilan savdo aloqalari olib boradi. Ayniqsa, dunyoda yetakchi bo‘lgan Germaniya, AQSH, Rossiya, Yaponiya, Fransiya, Italiya, Koreya Respublikasi, Turkiya, Xitoy kabi davlatlar bilan hamkorligi jadal sur’atlarda rivojlanmoqda. O‘zbekistonga eksport va import qilinayotgan mahsulotlarning eng ko‘pi Xitoyga to‘g‘ri kelmoqda (82-rasm).




Tovarlarni tashqi bozorga, xorijga chiqarilishi ***eksport*** deb ataladi. Aksincha, chet mamlakatlardan zarur mahsulotlarni, mollarni olib kelish ***import*** deb ataladi.

2018-yilda eksport 14,3 mlrd, import esa 19,6 mlrd AQSH dollarini tashkil qildi. O‘zbekistonning tashqi savdosi yildan yilga ortib borishi natijasida mamlakatimiz xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etmoqda.

Mamlakat tashqi savdo siyosatining asosi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirish va tarkibini takomillashtirishdir. So‘nggi yillarda eksport tarkibida katta ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Jumladan, xomashyo mahsulotlari eksporti kamayib, yuqori sifatli tayyor mahsulotlar eksportining ulushi oshmoqda.

Kelgusida eksportga mo‘ljallangan avtomobillar, yuqori kuchlanishli agregatlar, maishiy elektr asboblari, tibbiyot va qurilish hamda to‘qimachilik va tikuvchilikka oid qimmatbaho mahsulotlarni ishlab chiqarish kuchayadi. Ayniqsa, mamlakatimizda yetishtirilgan meva va sabzavotlar eksportini kuchaytirish zarur. Yana bir muhim vazifalardan biri – bu dehqon va fermer xo‘jaliklarga tashqi bozorda barqaror xaridorlarni topishdir.



82-rasm. O‘zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdosi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida, 2017).

Ishlab chiqarishning rivojlanishiga hamohang ko‘plab mahsulotlarning, jumladan, yoqilg‘i, oziq-ovqat va xalq iste’moli buyumlarining importi qisqarmoqda (83-rasm). Umumiy importning 3/4 qismini texnik va ishlab chiqarish jihozlari hamda asbob-uskunalar tashkil qiladi. Bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollariga aynan mos keladi.


O‘zbekistonda 4200 dan ortiq xorijiy korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. Endilikda O‘zbekiston Jahon Banki, Osiyo Taraqqiyot Banki, Islom Taraqqiyot Banki, OPEC Xalqaro Rivojlanish Jamg‘armasi, Saudiya Taraqqiyot Jamg‘armasi kabi xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik qilmoqda.



Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini modernizatsiya qilish va yangilash uchun chet el sarmoyasini kiritish shakli ***investitsiya*** deb ataladi.

Mamlakat taraqqiyotini jadallashtirish uchun investitsiyalarni yanada ko‘proq jalb etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlanish istiqbollari taqozosi o‘laroq mamlakatimiz hududida maxsus erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilayotganligi xususida avvalgi darslardan xabardorsiz. Ularning dastlabkisi O‘zbekiston hududining



83-rasm. Xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdo aylanmasi (foiz hisobida).

geografik markazi – Navoiy viloyatida tashkil etilgandi. U barcha turdagi samolyotlarni qabul qiladigan xalqaro aeroport va u bilan aloqador bo‘lgan turli xizmat ko‘rsatish korxonalaridan va muassasalaridan tashkil topgan ulkan majmuadir.

Tovarlar savdosidan tashqari, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda transport tizimlari barpo qilinmoqda, tabiatni muhofaza qilish va o‘zgartirish masalalari hal etilmoqda. Bunda O‘zbekiston dunyoning yetakchi xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlik qilgan holda, davrning dolzarb muammolarini hal etishga ham jiddiy e’tibor qaratmoqda. Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Yevropa Ittifoqi (YI), Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH), Yevrosiyo iqtisodiy hamdo‘stligi (YIH), Islom konferensiyasi tashkiloti (IKT) va boshqa xalqaro tashkilotlar shular jumlasidandir.

O‘zbekistonning jahon xo‘jaligidagi o‘rnini, uning boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarini 9-sinfda «Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» darslarida yanada chuqurroq o‘rganasiz.

1. O‘zbekiston bilan iqtisodiy aloqada bo‘lgan davlatlarni daftaringizga yozing.
2. Importga nisbatan eksportning ko‘pligi qanday qulayliklar yaratadi?
3. Importning eng ko‘p qismi qanday mahsulotlarga to‘g‘ri keladi?
4. Tashqi iqtisodiy aloqalar qanday omillarga bog‘liq?
5. Investitsiya tushunchasini izohlang.
6. Erkin iqtisodiy zona nima uchun aynan Navoiy viloyatida barpo etilgan?
7. 83-rasmda O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi eksport va import tarkibi o‘zgarishini kuzating. Yaqin yillarda mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasida qanday o‘zgarishlar bo‘lishi mumkinligi bo‘yicha fikr yuriting. Javoblaringizni asoslashga harakat qiling.

AMALIY MASHG‘ULOT

1. Aholi punktida 1 yil mobaynida tug‘ilish 768 nafar, o‘lim 154 nafar bo‘lsa, shuningdek, unga ko‘chib kelgan 28 nafarni, ko‘chib ketganlar 50 nafarni tashkil etsa undagi aholi soni qanchaga o‘zgarganini hisoblang.

2. Og‘ir sanoat tarkibini chizmada ko‘rsating.

3. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirishning ahamiyatini tushuntiring, ishlab chiqarishning tashkiliy shakllariga aniq misollar keltiring.

4. Sanoat tarmoqlarini joylashtirishga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

5. Qora va rangli metallurgiya hamda agrosanoat majmualarining muhim rayonlarini aytib bering (topshiriqni yozuvsiz xarita va atlas yordamida bajarish ham mumkin, unda sanoatning yirik markazlari, rayonlarning xomashyo, yoqilg‘i va tayyor mahsulot bo‘yicha ishlab chiqarish aloqalari ko‘rsatiladi).

6. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va transportning tabiatga ta’sirini misollar orqali tasvirlang. Tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan qanday tadbirlarni bilasiz?

7. Quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Tarmoqlararo majmuaning nomi	Majmuaning tarkibidagi tarmoqlar	Jadal rivojlanayotgan tarmoqlar	Qaysi viloyatda sust rivojlangan
1. **2.** **3.** **...**			

8. Darslik ilovasidagi 2-jadval ma’lumotlarini tahlil qiling. O‘zbekiston Respublikasi ekin maydonlari tarkibida gektar hisobida berilgan kartoshka, paxta, sabzavotlar, ozuqabop poliz va don ekinlari maydonlarini foizga aylantirib, doiraviy diagramma chizing.

9. 8-sinf o‘quv atlasida «temiryo‘l», «issiqlik elektrostansiyalari», «elektr uzatish liniyalari» qanday shartli belgilarda ko‘rsatilganini daftaringizga yozing.

38-dars

O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI HUDUDIY TASHKIL ETISH

Mamlakatimiz hududining har bir qismi geografik o‘rnining betakrorligidan, birinchi navbatda, tabiiy sharoiti va boyliklari, aholining mehnat faoliyati hamda turmush tarzining o‘ziga xosligi shakllangan. Iqtisodiyot, asosan, joyning mahalliy tabiiy boyliklariga bog‘liq ravishda rivojlangan. Transportning takomillashuviga qarab, iqtisodiyot ba’zi joylarda chetdan keltirilgan xomashyo asosida shakllangan. Malakali kadrlar, asosan, yirik shaharlardagi ta’lim muassasalarda tayyorlanadi. Shunga muvofiq malakatalab ishlab chiqarishlar shaharlarda rivojlansa, boshqa joylar qishloq xo‘jaligi yoki sanoat xomashyosi yetkazib beradi. Mamlakatning ayrim qismlari o‘rtasida mehnatning ana shunday taqsimlanishi ***geografik*** yoki ***hududiy mehnat taqsimoti*** deyiladi.

Hududiy mehnat taqsimoti quyidagi holatlardagina sodir bo‘ladi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot mahalliy ehtiyojdan ancha ko‘p bo‘lishi;
- uni ishlab chiqarish mamlakatning boshqa qismlaridagidan arzonga tushishi;
- ishlab chiqarishning xomashyo zaxirasi ko‘p yillarga yetarli bo‘lishi;
- mahsulot ayirboshlanganda transport xarajati arzon bo‘lishi.

Ma’lum vaqt o‘tib, hududlarning ixtisoslashuvida o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkin. Masalan, Qashqadaryo hududida neft va gaz konlari ochilib, ishga tushirilgach, bu hududda yangi ixtisoslashgan ishlab chiqarish shakllandi. O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng don mahsulotlari bilan o‘zini o‘zi ta’minlash vazifasi qo‘yildi. Natijada viloyatlarda ko‘plab g‘alla ekila boshlandi. Oqibatda shu viloyatlar paxtachilikdan tashqari g‘allachilikka ham ixtisoslashdi.

Mehnatning geografik taqsimlanishi asosida o‘z ixtisoslashuviga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi hududlar – ***iqtisodiy rayonlar*** yuzaga keladi. Iqtisodiy rayon (hudud)lar uchun butun mamlakat miqyosida ixtisoslashuv o‘ziga xos bo‘lib, mahsulot almashinuvi juda keng qamrovda amalga oshadi. Bunday rayonlarning bir necha ixtisoslashgan tarmoqlari bo‘lishi ham mumkin.

Mamlakat miqyosida ixtisoslashgan tarmoqni qanday aniqlash mumkin? Buning uchun izlanayotgan ixtisoslashuv koeffitsientini *K* deb olamiz-da, quyidagi formulani tuzamiz:

$$K = \frac{M}{A},$$

bunda: *M* – rayon mahsulotining mazkur tarmoq bo‘yicha mamlakatdagi salmog‘i, *A* – mamlakat aholisi sonida rayon aholisining salmog‘i. Agar *K* ko‘rsatkich birdan katta bo‘lsa, bilingki, rayon bu tarmoqqa ixtisoslashgan ekan. Ixtisoslashish ko‘rsatkichi (*K*)ning kattakichikligiga qarab, iqtisodiy rayonning ixtisoslashish darajasini bilsa bo‘ladi. Bundan tashqari, ixtisoslashish imkoniyati transportga va mahsulotni tashish xarajatlariga ham bog‘liq.

Rayondagi ishlab chiqarish korxonalarining muayyan qismigina ***ixtisoslashgan tarmoqlar***ga kiradi. Qolganlari esa ixtisoslashgan tarmoqqa xizmat qiluvchi, yordamchi tarmoqlarni tashkil etadi (masalan, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan xo‘jaliklarda yordamchi tarmoq sifatida beda, jo‘xori, kartoshka ham yetishtiriladi, chorvaning muayyan turi boqiladi yoki mashinasozlik ixtisosli tarmoq bo‘lsa, metall quyish korxonalari, mahalliy energetika kabilar yordamchi korxona hisoblanadi). Rayon aholisini oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh, madaniy-maishiy buyumlar bilan ta’minlovchi korxonalar ***xizmat ko‘rsatish tarmog‘i***ni tashkil etadi. Bu barcha tarmoqlar uchun energetika va suv ta’minoti, transport tarmoqlari va hudud umumiy bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida o‘zaro aloqada bo‘ladi. Demak, iqtisodiy rayonlar ixtisosi bilangina emas, balki xo‘jalikning majmuali rivojlanishi bilan ham ajralib turadi.

Iqtisodiy rayonning rivojlanganlik darajasini unda qanday ***hududiy ishlab chiqarish majmualari (HICHM)*** mavjudligi va qay darajada shakllanganidan bilish mumkin. U mamlakat miqyosida mablag‘larni anchagina iqtisod qiladi, ijtimoiy mehnat unumdorligini



84-rasm. O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlari.

oshiradi, tabiat muhofazasini, xalqimiz turmush, mehnat, dam olish sharoitlarining yaxshilanishini ta’minlaydi.



HICHM – ishlab chiqarish sohasidagi barcha tarmoqlarga qarashli har xil korxonalarning bir umumiy hududdagi o‘zaro bog‘langan uyg‘unligidir.

Bunga o‘zaro bog‘langan korxonalarni yagona transport, energetika va qurilish bazalari bilan uyg‘un (kooperativlash, kombinatlash asosida) joylashtirilish hisobiga, shuningdek, tabiiy boyliklardan va ish kuchlaridan, ikkilamchi xomashyo hamda chiqindilardan oqilona foydalanish hisobiga erishiladi.

HICHMlar tabiiy boyliklari ko‘p hududlarni tezroq va tejamliroq o‘zlashtirishga imkon beradi. Har bir HICHM egallagan maydoni va tarmoqlarining tarkibiga ko‘ra boshqasidan farq qiladi. Tarmoqlararo majmualar takomillashganlik darajasi bo‘yicha ham bir-biridan farqlanadi. Masalan, agrosanoat majmuyi hamma viloyatlarda shakllanib bo‘lgan. Rangli metallurgiya majmuyi faqat Toshkent viloyatida eng takomiliga yetgan. Samarqand va Buxoro viloyatlarida esa shakllanishning quyi bosqichida, Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasida deyarli yo‘q. Hududiy ishlab chiqarish majmualarining o‘zaro aloqadorligidan iqtisodiy rayon shakllanadi.




Iqtisodiy rayon: a) geografik o‘rni o‘ziga xos; b) mamlakat miqyosida ixtisoslashgan; d) majmuali xo‘jalik shakllangan; e) tabiiy boyliklar hamda ishchi kuchi bilan ta’minlanishida boshqa rayonlardan farqlanuvchi hududlardir.

Iqtisodiyotning yuksalishi bilan tarmoqlararo majmualar mukammallasha boradi. Natijada hududiy aloqalar ham takomillashib, iqtisodiy rayonlar qayta tuzilishi mumkin. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz hududini shartli ravishda oltita iqtisodiy rayonga bo‘lish mumkin (84-rasm). Mazkur iqtisodiy rayonlar O‘zbekistonning 2 va undan ortiq ma’muriy birliklaridan iborat. Masalan, Toshkent iqtisodiy rayoni Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan, Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridan tashkil topgan.

Mustaqillik yillarida milliy iqtisodiyotning hududiy jihatdan muvozanatlashganligini ta’minlash va mintaqaviy nomutanosibligini kamaytirish O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi. Keyingi yillarda mamlakatda sodir bo‘layotgan tarkibiy o‘zgarishlarda hududlarning roli sezilarli

darajada oshdi. Hududlarning iqtisodiy salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va iqtisodiy o‘sish sur’atlaridagi tafovutlar bir qator obyektiv sabablar – bozor islohotlarining dastlabki davridagi hududiy rivojlanish darajasi, hududning investitsion jozibadorligi, iqtisodiy geografik rivojlanishi, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, innovatsion salohiyati va boshqa ko‘pgina omillar bilan izohlanadi.



85-rasm. YAIMni shakllantirishda hududlarning ishtiroki (YAIMga nisbatan % da, 2017-y.)

Respublika YAIMni shakllantirishda YAHMning ulushi bo‘yicha Toshkent shahri 15,5 % ko‘rsatkich bilan yetakchilik qiladi (85-rasm). Toshkent va Samarqand viloyatlari mos ravishda 9,1 va 7,1 % ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egallaydi. YAHMning eng kam ulushi Sirdaryo, Jizzax, Xorazm viloyatlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasida qayd etildi. Keyingi darslarda mazkur hududlarni ketma-ket o‘rganamiz.

1. O‘qituvchingiz yordamida tumaningiz qanday mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashganini aniqlang.
2. Rayonning ixtisoslashuvi deb nimaga aytiladi?
3. Iqtisodiy rayon nima? Mamlakatimiz hududini qanday iqtisodiy rayonlarga bo‘lib o‘rganiladi?

39-dars


TOSHKENT IQTISODIY RAYONI



Iqtisodiy geografik o‘rni va tabiiy boyliklari. Toshkent iqtisodiy rayoni ma’muriy jihatdan Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan iborat. Bu rayonning ikki tomoni Farg‘ona va Mirzacho‘l iqtisodiy rayonlari bilan tutashgan, qolgan tomonlari Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlari bilan chegaralangan. Geografik o‘rnidagi qulaylik tufayli Toshkent 1930-yildan beri O‘zbekistonning poytaxti maqomida kelmoqda. Toshkent viloyati qishloq tumanlarining deyarli yarmining (Yangiyo‘l, Qibray, Bo‘stonliq, Parkent, O‘rta Chirchiq, Toshkent va Zangiota tumanlari) xo‘jaligi ixtisoslashuvi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida poytaxtning ta’siri muhim hisoblanadi. Zero, yirik shahar bilan tutash tumanlarda iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlar jadal kechadi. Buni shahar atrof tumanlari misolida yaqqol kuzatish mumkin (86-rasm).

Iqtisodiy rayon hududi relyefning xilma-xil shakllaridan iborat. Bu sanoat uchun ham, qishloq xo‘jaligi uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi. Rayonning Chirchiq va Ohangaron vodiylari Sirdaryoga qadar 100–150 km dan ortiq masofada pasayib borishi sababli sun’iy sug‘orish uchun g‘oyat qulay. Chirchiq va Ohangaron daryolari tog‘lardagi yog‘in (500–700 mm)dan to‘yinib, dalalarni sug‘orishdan tashqari, elektr energiya olishda ham muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiy rayon toza ichimlik suvi bilan yaxshi ta’minlangan. Suvdan yanada samarali foydalanish maqsadida Chirchiq daryosining yuqori oqimida sig‘imi 2,0 mlrd kub m bo‘lgan Chorvoq suv ombori barpo etilgan. Shuningdek, Ohangaron daryosining yuqori oqimida Ohangaron, o‘rta oqimida esa Tuyabo‘g‘iz suv ombori («Toshkent dengizi») qurilgan.

Qazilma boyliklarning xilma-xilligi jihatidan bironta rayon Toshkent iqtisodiy rayoniga tenglasha olmaydi. Angren ko‘mir havzasi mamlakatda eng yirik ko‘mir koni hisoblanadi *(ko‘mir zaxirasi miqdorini eslang)*. Ko‘mir qatlamlari yer yuziga yaqin joylashgan bo‘lib, qatlamlar orasida aluminiy, sement va keramika olishda ishlatiladigan gilmoya ko‘plab uchraydi *(atlasdan foydalanib, qazilma konlarini aniqlang)*. Iqtisodiy rayonda neft bilan tabiiy gazgina yo‘q. Zarur bo‘lgan neft mahsulotlari temiryo‘l hamda avtomobil transportida, gaz esa quvurda keltirilmoqda *(ularning qayerdan keltirilishini atlasdan aniqlang)*.



86-rasm. Poytaxtga tutash tumanlarda yirik shahar ta’sirining ifodalanishi.

Aholisi. Mamlakatimiz aholisining deyarli 1/5 qismi shu rayonda yashamoqda. Rayonda shahar aholisining salmog‘i Toshkent shahri aholisini qo‘shmaganda 50 foizga boradi. Umumiy aholi sonidagi mehnatga yaroqlilar salmog‘i bo‘yicha iqtisodiy rayon birinchi o‘rinda turadi. Shuningdek, mehnatga yaroqli aholi ma’lumot darajasining yuqoriligi bilan ham ajralib turadi. Bular azaldan oliy o‘quv yurtlari, Fanlar akademiyasi, uning ko‘p sonli ilmiy tadqiqot institutlari Toshkent (poytaxt)da joylashgani sharofatidir. Bundan tashqari, ilm va malakatalab korxona va idoralarning ko‘pligi ham asosiy omillardan biri hisoblanadi. *(Rayonda aholining zichligi qancha?)*

Xo‘jaligi. XX asr boshida Toshkent iqtisodiy rayoni taraqqiyot jihatidan Farg‘ona vodiysidan keyinda turardi. Rayonda xilma-xil foydali qazilma konlari topilishi natijasida konchilik sanoati vujudga kelib, og‘ir sanoatning jadal yuksalishiga imkoniyat tug‘ildi. Sanoatining rivojlanganligi jihatidan rayon respublikada birinchi o‘ringa chiqib oldi.

Endilikda iqtisodiy rayon xo‘jaligi ko‘p tarmoqli bo‘lib, unda O‘zbekistondagi sanoat tarmog‘ining deyarli barchasi mavjud. Yalpi sanoat mahsulotining 2/3 qismi og‘ir sanoatga to‘g‘ri keladi. Yengil va oziq-ovqat sanoatlari ham rivojlangan.

Toshkent iqtisodiy rayonining ***rivojlanishiga asosiy sabablar:*** a) rayonning qulay iqtisodiy geografik o‘rni; b) respublika poytaxti Toshkentning shu rayondaligi; d) foydalanish qulay bo‘lgan gidroquvvat mavjudligi; e) xilma-xil foydali qazilmalar topilib, ulardan foydalanishning yo‘lga qo‘yilishi; f) Ikkinchi jahon urushi yillarida sobiq Ittifoqning g‘arbiy rayonlaridan O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgan korxonalarning yarmidan ko‘pi Toshkent viloyatiga joylashtirilgani; g) chetdan malakali mutaxassislar ko‘plab jalb etilgani va boshqalar.

Yoqilg‘i-energetika majmuasi ancha qudratli. Uning negizini elektroenergetika sanoati tashkil etadi. Mamlakatda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning deyarli yarmi shu rayonda hosil qilinadi. Bu ko‘rsatkichni rayondagi uchta qudratli IES hamda Chirchiq–Bo‘zsuv gidroenergetika kaskadi ta’minlaydi. Toshkent IES to‘la, Angren IES qisman gaz bilan, Yangi Angren IES esa mahalliy ko‘mir bilan ishlaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyati. Rayon 100 dan ortiq uzoq va yaqin xorij mamlakatlari bilan savdo aloqalari olib boradi. Xorijga paxta, ipak, paxtachilik uchun zarur mashina va uskunalar, to‘qimachilik mashinalari, kabel, ekskavatorlar, ko‘tarma kranlar, elektr energiya, qorako‘l terilari, rangli metall konsentratlari, ip va ipak gazlamalar, kanop va kanop mahsulotlari hamda meva jo‘natiladi. Rayon ehtiyoji uchun yog‘och, neft mahsulotlari, tabiiy gaz, turli xil sanoat mahsulotlari, mashina qismlari, keng iste’mol mollari keltiriladi. Ichki iqtisodiy aloqalarda avtomobil va qisman temiryo‘l transportidan foydalaniladi.

Transporti. 1930–1940-yillardan rayonda avtomobil yo‘llari vujudga keldi, asfalt va tosh yo‘llar qurildi. Katta O‘zbek trakti (700 km) Toshkentni Termiz bilan bog‘laydi. Toshkent–Angren–Qo‘qon tog‘ yo‘li qayta qurilib, jahon talablari darajasidagi xalqaro yo‘lga aylantirildi. Toshkent–Chinoz–Guliston avtotrassasi mamlakatda birinchi darajali yo‘l hisoblanadi. Toshkent–Angren, Toshkent–Chorvoq hamda Mirzacho‘lni kesib o‘tgan Toshkent–Sirdaryo–Jizzax temiryo‘llarining ahamiyati katta.

1. Toshkent iqtisodiy rayoni aholisining soni, joylashuvi va milliy tarkibiga qanday tarixiy va geografik omillar ta’sir etgan?
2. Toshkent iqtisodiy rayoni respublikaning industriallashuvida qanday rol o‘ynashini tushuntirib bering.
3. Toshkentning geografik o‘rniga xos qulayliklar qanday omillar natijasi?
4. Iqtisodiy rayonda sanoatning qaysi tarmoqlari rivojlangan? Sababini tushuntiring.

TOSHKENT VILOYATI

Viloyatning geografik o‘rnini atlasdan belgilang. Aholisi soni va maydonining kattaligini 1-ilovadagi jadvaldan aniqlang.

Sanoati. Iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqlarida xomashyo tayyorlashdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha barcha bosqichlar viloyatning o‘zida kechadi.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: elektroenergetika, qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, qurilish materiallari, yengil (paxta tozalash), oziq-ovqat (87-rasm).


Metallurgiya majmuasi ham rivojlangan. Ishlab chiqarish aloqalari hamda geografik joylashuviga muvofiq Toshkent–Chirchiq, Toshkent–Yangiyo‘l, Angren–Olmaliq sanoat rayonlari vujudga kelgan. Angren–Olmaliq sanoat rayonida mamlakat rangli metallurgiya sanoati mahsulotining asosiy qismi tayyorlanadi. Mis rudasi tarkibida molibden, oltin va kumush ham uchraydi. Bu yerda Olmaliq tog‘-metallurgiya kombinati ishlab turibdi.

Rangli metallurgiyaning ikkinchi markazi Chirchiqdir. Shaharda qiyin eriydigan va o‘tga chidamli qotishmalar kombinati bor. Kombinatning ishlab chiqarish jarayoni Ingichka, Qo‘ytosh hamda Olmaliq ruda konlari bilan bog‘liq. Kombinat 100 xildan ortiq mahsulot ishlab chiqarmoqda.

Bekobod shahridagi O‘zbekiston metallurgiya zavodi ***qora metallurgiya***ning yirik korxonasi. Xomashyo o‘rnida temir-tersakdan foydalaniladi.

Mashinasozlik majmuasi dastlab agrosanoat majmuyi ehtiyoji negizida vujudga kelgan. Hozirda mashinasozlik agrosanoat majmuyiga xizmat ko‘rsatishdan tashqari, ko‘plab turdagi murakkab mashinalar ham ishlab chiqarmoqda. Rayonda ishlab chiqarilayotgan turli xil uskunalar va asboblar shular jumlasidandir.

Qurilish materiallari sanoati viloyatda qurilish ko‘lamining kattaligi va xilma-xil xomashyo negizida rivoj topdi. Bekobod, Angren va Ohangaronda sement, G‘azalkentda oyna va marmar, shuningdek, Ohangaronda shifer ishlab chiqarilmoqda. Sanoatning jadal yuksalishi o‘z navbatida ekologik vaziyatning yomonlashuviga sabab bo‘lmoqda.




87-rasm. Toshkent viloyati.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, go‘sht-sut chorvachiligi.

Qishloq xo‘jaligi ko‘p tarmoqli bo‘lib, sabzavot va meva yetishtirishda boshqa viloyatlardan oldinda turadi. Yangiyo‘l, Qibray, Bo‘stonliq, Parkent, Ohangaron, Toshkent va Zangiota tumanlari poytaxtga tutash

yaxlit mintaqani tashkil etib, asosan, sabzavot va meva yetishtirishga ixtisoslashgan. Ularda minglab gektar issiqxonalar tashkil etilgan. Sug‘oriladigan yerlarda paxtadan tashqari, kanop va sholi ham yetishtiriladi. Umuman, viloyat qishloq xo‘jaligi intensiv yo‘ldan rivojlanmoqda. Sanoat tugunlari atrofida sut-go‘sht yetishtiradigan chorvachilik majmualari, parrandachilik rivoj topmoqda, sun’iy suv havzalarida baliq ko‘paytirilmoqda. Paxta yetishtirishga uyg‘un tarzda ipak qurti boqiladi.



88-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Toshkent viloyatining salmog‘i (foiz, 2017-yil).

Viloyatda ***ijtimoiy soha*** ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Toshkent atrofida «Qibray» va «Toshkent mineral suvi» oromgohlari joylashgan. Bo‘stonliq tumanining Chorvoq, Chimyon hamda Parkent tumanining Kumushkon hududlarida dam olish maskanlari keng tarqalgan.

Toshkent viloyatidagi sanoat markazlarining aksariyati bevosita poytaxt bilan uzviy aloqadorlikda faoliyat ko‘rsatadi. ***Sanoat markazlari*** ixtisos bo‘yicha bir-biridan farqlanuvchi alohida mintaqalarda to‘plangan. Bular: Toshkent–Chirchiq, Toshkent–Yangiyo‘l va Angren–Olmaliq sanoat rayonlaridir. Toshkent–Chirchiq va Toshkent–Yangiyo‘l sanoat rayonlarining o‘zagi Toshkent shahri bo‘lib, uning tarkibiga Chirchiq, Yangiyo‘l sanoat tugunlari hamda G‘azalkent, Pskent, Nurafshon, Chinoz, Keles kabi kichik va o‘rta shaharlar kiradi. Angren–Olmaliq sanoat rayonining o‘zagini esa Olmaliq va Angren sanoat tugunlari tashkil etadi. Unga Ohangaron, Yangiobod kabi shaharlar ham kiradi. Bekobod sanoat tuguni bu ikkala sanoat rayonidan biroz chekkada, viloyatning janubida joylashgan.

Shaharlari. Toshkentdan 30 km shimoli sharqda kimyogarlar va mashinasozlar shahri ***Chirchiq*** joylashgan. Shahardagi o‘tga chidamli va qattiq qotishmalar zavodi metallurgiya majmuasining muhim korxonasidir. Chirchiqdan yuqorida yosh ***G‘azalkent*** shahri bor. U kurort shaharga aylanmoqda.

Toshkentdan 30 km janubi g‘arbda sanoat tuguni – ***Yangiyo‘l*** joylashgan. Shahar qadimgi qishloq (Qovunchi) o‘rnida shakllanib, yengil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashdi. Sanoat korxonalari ichida paxta tozalash, moy, sovun, sut, vino va konserva zavodlari, go‘sht kombinati ajralib turadi.



89-rasm. O‘zbekistondagi dastlabki «Aqlli shahar» – Nurafshon shahri loyihasi.

Angren – viloyatning muhim sanoat tuguni. Angren temiryo‘l hamda avtomobil yo‘li orqali Toshkent bilan bog‘langan. Shahar 1940-yillarda ko‘mir qazib olishga bog‘liq holda sanoat punkti sifatida paydo bo‘lgan. Endilikda Angren shahri konchilik sanoatiga aloqador bir qancha korxonalarni birlashtirgan sanoat tuguniga aylandi. Shahar sanoatida IES alohida o‘rin tutadi.

Viloyatning ikkinchi sanoat tuguni – ***Olmaliq.*** Bu shahar 1951-yilda rangli metall ruda koni negizida sanoat punkti sifatida shakllandi. Shahar sanoatida to‘liq siklli rangli metallurgiya kombinati katta ahamiyatga ega. Kombinat chiqindisi (oltingugurt gazi)dan ammofos zavodida mineral o‘g‘it ishlab chiqariladi.

Ohangaron sanoat markazi Olmaliqqa yaqin yerda joylashgan. Ohangaronda ulkan sement zavodi bor. Angren kabi Ohangaron shahri ham ko‘mir qatlamlari ustidaligi ma’lum bo‘lgach, shaharning dastlabki o‘rnidan 15 km narida vodiy bo‘ylab «Katta Ohangaron» shahri barpo etilgan.

Viloyatning janubida ***Bekobod*** shahri joylashgan. Shahar metallurgiya zavodi hamda Farhod GES qurilishi jarayonida vujudga kelgan. Endilikda sement, paxta tozalash va g‘isht zavodlari, go‘sht kombinati, tosh-shag‘al karyeri ham mavjud. Bu korxonalarning ishlab chiqarish jarayoni o‘zaro bog‘liq. Shahar shamol kuchli esadigan yerda joylashgan. Shu bois, shaharni shamoldan saqlovchi ihota daraxtzorlari barpo qilingan.

Nurafshon (sobiq To‘ytepa) – 2017-yildan boshlab Toshkent viloyatining ma’muriy markazi. Unga qadar viloyatning ma’muriy markazi Toshkent shahri hisoblanardi. Nurafshon shahri kelajakda O‘zbekistondagi birinchi «Aqlli shahar» bo‘ladi, unda ma’muriy binolar, zamonaviy va qulay turar joylar, biznes markazlari, mehmonxonalar, sport majmualari, ko‘p tarmoqli shifoxona bunyod etiladi (89-rasm). Toshkent va Nurafshonni tezyurar avtomobil yo‘li bog‘laydi.


1. Toshkentdan Bekobodga boriladigan eng qisqa avtomobil yo‘lini xaritadan toping.
2. 87-rasmdan Toshkent viloyatida bog‘ va uzumzorlarning qanday joylashganligini aniqlab, bunday joylashish sabablarini tushuntirib bering.
3. Viloyat qishloq xo‘jaligining ko‘p tarmoqliligi qanday omillar natijasi ekanligini o‘ylab ko‘ring.
4. Yangiyo‘l sanoat tugunini Angren, Olmaliq sanoat tugunlariga taqqoslab, eng muhim tafovutlarini ko‘rsating.

41-dars

TOSHKENT SHAHRI

Toshkent – O‘zbekistonning poytaxti, Markaziy Osiyodagi eng yirik siyosiy-iqtisodiy va madaniy markaz bo‘lib, unda 2,5 mln ga yaqin aholi yashaydi. Bugun Toshkent nafaqat strategik xalqaro mavqega ega bo‘lgan siyosiy markaz, balki Markaziy Osiyoning yirik transport tugunidagi muhim iqtisodiy megapolisdir (90-rasm).

O‘zbekiston Prezidentining qarorgohi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy



90-rasm. Toshkent shahri plani.

Majlisi, Vazirlar Mahkamasi, shuningdek, xorijiy elchixonalar, BMT va uning tarkibidagi xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari Toshkentda joylashgan. Shahar sharqona tafakkur bo‘yicha qayta qurilmoqda.

Toshkent shahri mamlakat iqtisodiyotining turli sohalarida yetakchi o‘ringa ega. Xususan, respublikada ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning eng katta qismi poytaxt hissasiga to‘g‘ri keladi.

Poytaxt iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i hisoblangan sanoatning o‘rni har doimgidek salmoqli bo‘lib qolmoqda. Sanoat korxonalari nafaqat katta quvvatga ega, balki ishlab chiqarish texnologiyasi ham yuqoridir.

Shahar energetikasi Chirchiq–Bo‘zsuv gidroelektrostansiyalar tizimi va Toshkent IESga tayanadi. Ular mamlakat yagona energetika tizimiga ulangan.

Toshkent muhim transport tugunidir. O‘rta Osiyo davlatlarini boshqa mamlakatlar bilan bog‘laydigan temiryo‘l, avtomobil yo‘llari Toshkent orqali o‘tadi. Shahar atrofidagi rayonlar bilan elektropoyezd orqali ham bog‘langan. Toshkent havo yo‘li orqali xorijiy davlatlarning 40 dan ortiq shaharlari bilan bog‘langan. Shaharda 2 ta temiryo‘l vokzali, 3 ta aeroport va metropoliten mavjud (91-rasm). Umumiy uzunligi 36 km dan ortiq bo‘lgan metropoliten orqali yiliga 60 mln dan ortiq yo‘lovchi tashiladi.




91-rasm. Toshkent metropoliteni.

Toshkent – butun Markaziy Osiyoda eng yirik ilmiy-madaniy markaz hisoblanadi. Toshkentda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, o‘nlab ilmiy tadqiqot institutlari, ko‘plab oliy ta’lim muassasalari bor. Shaharda zamonaviy maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, ko‘plab teatr va konsert zallari, sirk, zamonaviy stadion va boshqalar mavjud. Toshkent ta’sirida, poytaxtga tutash tumanlarda ***urbanizatsiya*** jarayoni jadallashmoqda.

Urbanizatsiya – shaharlar va shahar aholisining o‘sishi, mamlakat hayotida shaharlar rolining kuchayishi.

Endilikda shahar maydoni 330 kv. km dan ortib, Toshkent avtomobil halqa yo‘lidan tashqaridagi hududlarni ham qamrab olmoqda.

Poytaxtning iqtisodiy va ijtimoiy ta’siri negizida undan 60–70 km



92-rasm. Toshkent aglomeratsiyasi.

radiusdagi hudud bo‘ylab 10 ta shahar va o‘nlab shaharchalardan iborat ***Toshkent aglomeratsiyasi*** vujudga kelgan (92-rasm).

Aglomeratsiya – shaharlarning yirik shahar atrofida to‘planishi.

Bu aholi punktlari, asosan, Chorvoqdan Sirdaryogacha bo‘lgan oraliqdagi yo‘llar atrofida joylashgan. Ular Toshkent taraqqiyotini tartibga solish uchun muhim qulayliklar yaratadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimiz poytaxtida yangi va zamonaviy «Tashkent City» kompleksi barpo etilmoqda. Qurilish jarayoniga mahalliy va chet ellik ekspertlar jalb etilgan.

«Tashkent City» qurilishi jarayonida biznes vakillari uchun qulaylik yaratish maqsadida barcha sharoitlar yaratilmoqda (93-rasm). Yashil hududlardan tortib, zamonaviy dizayn va ko‘rinishga ham e’tibor berilmoqda. Joylarda maxsus maydonchalar va tashrif buyuruvchilar uchun dam olish joylari qurilmoqda. Shu yerning o‘zida ham biznes faoliyat bilan shug‘ullanib, ham hordiq chiqarsa bo‘ladi. Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun barcha sharoitlar muhayyo.

Poydevor va binolarning zilzilaga bardoshliligi uchun San-Fransisko, Istanbul va Tokio kabi shaharlar tajribasi o‘rganildi. Ma’lumki, O‘zbekiston



93-rasm. «Tashkent City».

seysmologik hududda joylashgan. Shuning uchun ham mutaxassislar xavfsizlik va binolarning mustahkamligiga alohida e'tibor qaratishmoqda. Jumladan, har bir burchak va detallar tajribali arxitektor va dizaynerlar tomonidan o'rganilmoqda.

Kongress-holl, mehmonxona va yerosti avtomobil turargohi qurilishi ham rejalashtirilgan. Kongress-hollning umumiy maydoni 33 ming m^2. Ushbu bino chet el davlatlari rahbarlari va yuqori martabali mehmonlar uchrashuvlari uchun xizmat qiladi.

«Tashkent City» mehmonxona haqida ham unutgani yo'q. Ushbu kompleksda dunyoga mashhur bo'lgan mehmonxonalardan biri ochiladi.

Hozirgi vaqtda ushbu majmuada «Hilton Hotels & Resorts» mehmonxonasi qurilishi bo'yicha muzokaralar olib borilmoqda. Ma'lumot uchun, birinchi «Hilton Hotels & Resorts» mehmonxonasi 1919-yilda AQSHning Texas shtatida barpo etilgandi. Hozirda ushbu brend ostida jahonning 103 mamlakatida 5 mingdan ortiq mehmonxonalar faoliyat yuritmoqda.

Ta'kidlab o'tish joizki, «Tashkent City»da kongress-holl va boshqa binolar qurilishi mamlakatimizga chet el investitsiyasini olib kirishga ko'maklashadi, sababi joylarda biznesni rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

1. Toshkent shahar planini ko'zdan kechirib, mikro, mezo hamda makro geografik o'rin chegaralarini belgilang.
2. Chirchiq daryosi va Toshkent shahri ichidan o'tgan anhor kanalining poytaxt iqtisodiy va ijtimoiy rivojidagi ahamiyatini izohlang.
3. 90-rasmdan Toshkent shahrida qanday madaniy yodgorliklar, muzey, teatr va istirohat bog'lari mavjudligini o'rganing.

42-dars MIRZACHO‘L IQTISODIY RAYONI



Darslik 1-ilovasidagi jadvaldan rayonning aholisi sonini va maydonini aniqlang.

Iqtisodiy o‘rni va tabiiy boyliklari. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni Sirdaryo bilan Jizzax viloyatlaridan tarkib topgan.

Rayon hududi taraqqiy etgan Toshkent va Zarafshon iqtisodiy rayonlari bilan chegaradosh. Rayonning iqtisodiy geografik o‘rnini qulay deyish mumkin. Iqtisodiy geografik o‘rnining qulayligi rayonning transport-geografik holatida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. *70-rasmdan temiryo‘l, avtomobil yo‘li va quvur transporti qaysi hududlardan o‘tganini ko‘zdan kechiring.*

Rayonni, asosan, Sirdaryo va Sangzor daryolari suv bilan ta’minlaydi. Tekislik zamonaviy transport va irrigatsiya inshootlari bilan zich qoplangan. Rayonda aniqlangan volfram, qo‘rg‘oshin, rux va oltin konlari sanoat ahamiyatiga ega. Qurilishbop shag‘al, qum, gips va ohak ko‘p.

Ko‘pincha sovuq Arktika havosi shimoldan rayon hududiga kirib kelib, ba’zan juda sovib ketadi. Shunda mevali daraxtlar jiddiy shikastlanadi. Farg‘ona vodiysidan esuvchi kuchli shamoldan esa tuproqning nami qochib, ekinlar qovjiraydi va hosildorlik pasayadi.

Aholisi. Bu yerning aholisi, asosan, boshqa joylardan reja asosida ko‘chirib keltirilgan. Rayon aholisining umumiy soni bo‘yicha mamlakat iqtisodiy geografik rayonlari orasida eng keyingi o‘rinda turadi. Hududning yangi o‘zlashtirilayotgani shahar va qishloqlarning geografik joylashuvi, katta-kichikligi hamda aholining milliy tarkibida yaqqol ifodalanadi.

Aholi punktlari, asosan, katta yo‘l yoqalarida barpo bo‘lgan. Aholining 45 foizdan ortig‘i shaharlarda istiqomat qiladi.

Rayonga Toshkent va Samarqand shaharlarining oliy o‘quv yurtlari ham mutaxassis tayyorlab bermoqda. Lekin rayonning rivojlanish istiqbollarini ko‘zlab, bu yerga Zarafshon, Farg‘ona, Toshkent singari iqtisodiy rayonlardan malakali mutaxassislar jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Xo‘jaligi va uning hududiy tashkil etilishi. Mirzacho‘lning o‘zlashtirilishi, asosan, XX asrning 50–60-yillariga to‘g‘ri keladi. Yangi yerlarni o‘zlashtirish sug‘orish inshootlarini, yo‘llarni, elektr uzatkich tarmoqlarini, madaniy-

maishiy muassasalarni bir yo‘la barpo etish usulida olib borildi. Yangi yerlarni o‘zlashtirishning bu usuli xorijda ham keng qo‘llanilmoqda.

Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni mamlakatda yetishtiriladigan ***paxta*** yalpi hosilining 1/4 qismini beradi. Rayonda agrosanoat majmuyi yuksak darajada rivojlangan. Jami ekin maydonining salkam 45 foiziga paxta, deyarli shuncha maydonga donli ekinlar ekilmoqda.

Polizchilik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Mirzacho‘l qovunlari O‘zbekistondan tashqarida ham mashhurdir (94-rasm).



94-rasm. Mirzacho‘l qovunlari.

Chorvachilikda qorako‘l qo‘ylarining salmog‘i katta. Qorako‘l qo‘ylari rayonning shimoli g‘arbidagi cho‘l yaylovlarida boqiladi. Chorvachilikning yanada rivojlanishi yem-xashak ekinlari, ayniqsa, beda va makkajo‘xori maydonining kengayishiga bog‘liq. Donli ekinlar yetishtiriladigan joylarda parrandachilik rivojlangan.

Endilikda rayonda sanoat ham tez sur’at bilan rivojlana boshladi. Elektroenergetika, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat sanoatlari rivojlandi. Sirdaryo IESning elektr quvvati iqtisodiy rayondan tashqariga ham chiqarilmoqda.

Transporti. Avtomobil transporti yuksak darajada rivojlangan. Avtomobil yo‘llarining yalpi uzunligi 12 ming km dan oshadi, shundan deyarli 10 ming km qattiq qoplamali yo‘llardir. Katta O‘zbek traktining iqtisodiy rayon hududidan o‘tishi uning rivojlanishiga sezilarli ta’sir etadi.

Temiryo‘l hudud bo‘ylab uchburchak shaklida qurilgan. Uchburchakning Jizzax, Sirdaryo va Xovos uchlaridan yo‘llar boshqa viloyatlarga taralib ketgan. Hudud bo‘ylab magistral gaz quvurlari kesib o‘tgan. Yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari hududni tekis qoplagan *(xaritadan asosiy yo‘llarni aniqlang).*

1. Iqtisodiy rayon geografik o‘rni va tabiiy sharoitiga xos xususiyatlarning iqtisodiy ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Iqtisodiy rayon hududi yaqinda o‘zlashtirilganini nimalardan bilsa bo‘ladi? Misollar keltiring.
3. Rayon doirasida va uning boshqa rayonlar bilan aloqasida qanday transportdan foydalaniladi? Sababini tushuntiring.


SIRDARYO VILOYATI

1-ilovadagi jadvaldan viloyat aholisining soni va maydonini aniqlang.


Sirdaryo viloyati Mirzacho‘lning o‘zlashtirilgan qismini o‘z ichiga oladi. Viloyatda dehqonchilikka yaroqli yerlar ko‘p. Ammo tabiatiga xos ayrim noqulayliklar tufayli dehqonchilikda ko‘pgina mehnat, mablag‘ sarflashga to‘g‘ri keladi. Tabiatning noqulayliklarini bartaraf etmoq uchun ihota daraxtzorlari barpo etish, yerosti suvlarini zovurlar qazib qochirish va tuproqni yuvib turish talab etiladi.

Sirdaryo viloyatida mamlakat ***aholisi***ning 2,5 foizi yashaydi. Aholi butunligicha sug‘oriladigan hududlarda joylashgan. Yangi yerlarni o‘zlashtirish maqsadida boshqa viloyatlardan ishchi kuchlari jalb etilgan. Endilikda viloyat o‘z ishchi kuchlari bilan to‘liq ta’minlangan.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, donchilik, polizchilik, go‘sht-sut chorvachiligi. ***Sanoatning asosiy tarmoqlari:*** elektroenergetika, yengil (paxta tozalash), oziq-ovqat, un-yorma (95-rasm).



95-rasm. Sirdaryo viloyati.



96-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Sirdaryo viloyatining salmog‘i (foiz, 2017-yil).

Viloyat xo‘jalik negizini qishloq xo‘jaligi tashkil qiladi. Ekin maydonlarining kattaligi jihatidan viloyat respublikada oldingi o‘rinda turadi. Ekin maydonlarining deyarli yarmiga paxta ekiladi. Undan keyingi o‘rinlarda don, ozuqa, meva-sabzavot va poliz ekinlari turadi. Guliston va Xovos tumanlarida sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi. Bog‘dorchilik va uzumchilik ham rivojlangan.

Viloyatda ***sanoat*** zalvori bo‘yicha qishloq xo‘jaligidan keyin turadi (96-rasm). Bugungi kunda 80 dan ortiq sanoat korxonasi mavjud. Viloyat sanoatining asosini elektr energiya ishlab chiqarish tashkil etadi.

Shirin shahridagi Sirdaryo IES, Guliston shahridagi yog‘-ekstraksiya zavodi, Yangiyer shahridagi qurilish materiallari va konstruksiyalari kombinati va viloyat paxta tozalash zavodlari yirik sanoat korxonalari hisoblanadi. Viloyatda o‘nlab qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Shaharlari. Viloyatda 5 ta shahar bor. ***Guliston*** – viloyatning ma’muriy markazi. Shahar temiryo‘l va magistral avtomobil yo‘li ustida joylashgan. U shahar maqomini olganiga yarim asrdan oshdi. Shaharda paxta tozalash, yog‘-ekstraksiya, non zavodlari va elevator ishlab turibdi. Shaharda universitet, bir necha akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va boshqa madaniy-maishiy muassasalar bor.

Yangiyer 1957-yilda bunyod bo‘lgan. Shaharda sopol quvurlar hamda yuqori bosimga chidamli quvurlar ishlab chiqaradigan zavod, temir-beton buyumlari kombinati bor. Kombinat elektr machtalari, beton tarnov (lotok)lar va unga mo‘ljallangan taglik ishlab chiqaradi. Shaharning geografik o‘rniga xos noqulayliklar uning rivojlanishiga salbiy ta’sir etmoqda.

1. Xaritadan Sirdaryo viloyatining chegaralarini ko‘rsating, uning tabiiy sharoitiga xos xususiyatlarni ayting.
2. Viloyat xo‘jaligiga xos xususiyatlarni so‘zlab bering.
3. Viloyat shaharlari barpo bo‘lishida qanday omillar muhim rol o‘ynaganligini tushuntiring.
4. Tumaningizdan Sirdaryo viloyati markaziga boriladigan eng qisqa yo‘lni aniqlang.

JIZZAX VILOYATI

1-ilovadagi jadvaldan viloyat maydoni, aholisi soni va aholining o‘rtacha zichligini aniqlang.

Jizzax viloyati Mirzacho‘l iqtisodiy rayonining janubi g‘arbida joylashgan. Viloyat hududi Sangzor daryosi hamda Janubiy Mirzacho‘l kanalining suvi bilan sug‘oriladi. Uning hududi shimol tomonga nishab bo‘lib, sun’iy sug‘orish uchun qulay (97-rasm).

Viloyat hududidan ko‘p tarmoqli xo‘jalikka asos bo‘ladigan xilma-xil tabiiy boyliklar topilgan. Turkiston tizmasining shimoliy yonbag‘rida Zomin tog‘-o‘rmon qo‘riqxonasi tashkil qilingan. Bu yerda tog‘ o‘simlik va hay-



97-rasm. Jizzax viloyati.



98-rasm. «Zomin» sanatoriyasi.

vonot olamining rivojlanishi bo‘yicha tadqiqot olib boriladi. Ushbu so‘lim mintaqaga dam olish maskani – «Zomin» sanatoriyasi qurilgan (98-rasm).

Jizzax viloyatida Zomin milliy tabiiy parki tashkil etilgan. Milliy bog‘ istirohat xizmatini o‘taydi hamda bog‘da sanoatning tabiiy muhitga ta’siri tadqiq etiladi. G‘allaorol hududida shifobaxsh suv, Baliqchi ko‘lida esa shifobaxsh balchiq ko‘p. Uchquloch konidan polimetall rudasi, Marjonbuloq konidan oltin, Oqtosh, Qoratosh va Uzun konlaridan marmar qazib olinadi.

Aholisi. Jizzax viloyatida mamlakat aholisining 4 foizi jamlangan. Aholining deyarli yarmi shaharlarda yashaydi. Viloyat aholisining 81 foizidan ko‘prog‘ini o‘zbeklar tashkil etadi.




Sanoatning asosiy tarmoqlari: rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat.
Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, go‘sht-sut chorvachiligi.

Viloyat o‘zining yoqilg‘i-energetika majmuasiga ega emas. Unga tabiiy gaz Buxoro viloyatidan, elektr quvvati esa Sirdaryo viloyatidan keltiriladi. Tog‘-kon sanoati Qo‘ytoshda rivojlangan. Shimoliy Nurota tog‘larida volfram-molibden konlari ishlab turibdi. Qazib olinayotgan rudalar Chirchiqdagi qiyin eriydigan va issiqqa chidamli qotishmalar kombinatining asosiy xomashyosidir. Jizzaxda akkumulator zavodi, trikotaj fabrikasi, polietilen ishlab chiqaruvchi va qurilish materiallari zavodlari bor. Xorijiy

firmalar bilan 20 ga yaqin qo‘shma korxonalar tashkil topgan. Sanoat mahsulotining asosiy qismi yengil sanoatda hosil qilinmoqda.

Qishloq xo‘jaligi. Viloyat hududida qishloq xo‘jaligi ekinlari ekiladigan 1,2 mln gektar yer bor. Buning 1/3 qismidan dehqonchilikda foydalanilmoqda. Viloyatda paxta bilan birga g‘allakorlik ham katta salmoqqa ega (99-rasm). G‘alla maydonining kattaligi jihatidan Jizzax viloyati mamlakatimizda oldingi o‘rinlarda turadi. Mustaqillikdan oldin 210 ming tonna paxta, 80 ming tonna g‘alla yetishtirilgan bo‘lsa, endilikda bu ko‘rsatkich bir necha barobar oshdi.

Viloyatda yaylov chorvachiligi, g‘allakor tumanlarda parrandachilik keng rivojlangan. Jizzaxda qorabayir zotli ot yetishtiradigan maxsus xo‘jalik bor. Jizzax temiryo‘l, avtomobil yo‘llari bilan yaxshi ta’minlangan. Ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq avtomobil yo‘llari qurilishiga alohida ahamiyat berilmoqda.



99-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Jizzax viloyatining salmog‘i (foiz, 2017-yil).


Shaharlari. Jizzax shahri viloyatning ma’muriy markazidir. U dengiz sathidan 450 m balandda, Sangzor daryosi bo‘yida qad ko‘targan. Toshkent–Samarqand temiryo‘li va Katta O‘zbek trakti shahar yaqinidan o‘tadi.

Jizzaxda XX asr boshida tegirmon, juvozkashlik, temirchilik va kulolchilik korxonalari bo‘lgan. Endilikda shaharda oziq-ovqat, yengil hamda kimyo va mashinasozlik sanoati korxonalari mavjud. Jizzax – obod, ko‘kalamzor shahar. Jizzax davlat pedagogika instituti, Jizzax politexnika instituti, bir qancha akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, ko‘plab maktablar faoliyat yuritmoqda.

1. Jizzax viloyatining geografik o‘rni bilan tabiiy sharoitida qanday aloqadorlik bor?
2. Viloyat xo‘jaligiga xos xususiyatlarni aytib, sababini izohlab bering.
3. Jizzaxga bormoqchi bo‘lsangiz qaysi aholi punktlaridan o‘tishingizni ayting.
4. Sizlarga qaysi daryo yoki kanaldan suv keladi?

45-dars

FARG‘ONA IQTISODIY RAYONI



Iqtisodiy o‘rni va tabiiy boyliklari. Farg‘ona iqtisodiy rayoni ma’muriy jihatdan Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlaridan tashkil topgan. Bu iqtisodiy rayon respublika hududining 4 foizidan sal ortiqroq qismini egallasa-da, unda O‘zbekiston aholisining 1/3 qismi yashamoqda. Rayon hududi hamma tomondan tog‘lar bilan o‘ralgan.

Foydali qazilmalarning asosiy qismi tog‘larda to‘plangan. Tog‘ oralarida Shohimardon, Nanay, G‘ovasoy va Kosonsoy kabi xushmanzara vohalar bor. Bu yerlarda dam olish uylari, sanatoriyalar va boshqa istirohat maskanlari barpo qilingan. Iqtisodiy rayonning eng past yeridan Sirdaryo oqib o‘tadi. Aholining ming yillardan beri obikor dehqonchilik bilan shug‘ullanishi orqasida tuproq va o‘simlik dunyosi madaniylashgan.

Uning hududida neft, gaz, oltingugurt, qalayi, oltin, o‘tga chidamli gil, turli xil binokorlik materiallari, shifobaxsh suvlar topilgan. Konlarni ishga solish qulay. Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan davrlarda qishloq xo‘jaligi, savdo, hunarmandchilik barq urib rivojlangan. XIX asrda dastlabki temiryo‘l qurildi. Mustaqillik yillari esa iqtisodiy rayonni mamlakatning boshqa hududlari bilan bog‘lovchi «Angren–Pop» temiryo‘li qurildi. Bular uning iqtisodiy geografik o‘rnini jiddiy yaxshiladi.

Aholisi. Rayon aholisining soni, zichligi va ishchi kuchlarining salmog‘i jihatidan mamlakatimiz iqtisodiy rayonlari orasida birinchi o‘rinda turadi. Aholi, asosan, tabiiy ko‘payish hisobiga ko‘paymoqda. Aholining tez ko‘payayotgani va yangi o‘zlashtiriladigan maydonlarning cheklanganligidan ishchi kuchi ortiqchaligi kuchayib bormoqda. Buni bartaraf etish uchun ijtimoiy soha korxonalarini ko‘paytirish, ko‘p mehnat talab qiladigan ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish zarur.

Bu yerda yirik shahar va shaharchalar, qishloqlar ko‘p. Ishchi kuchlari tarkibida malakali kadrlar salmog‘i boshqa rayonlardagiga nisbatan ko‘p. Aholi Markaziy Farg‘onada ham nisbatan siyrak joylashgan. Rayonda urbanizatsiya darajasi yuqori, aholining 58 foizi shaharlarda yashaydi.

Xo‘jaligi va uning hududiy tashkil etilishi. Farg‘ona hududiy ishlab chiqarish majmuyi yuqori darajada mukammallashgan. U o‘tgan asr boshlarida ham boshqa rayonlardan shu jihati bilan farq qilardi.

Qishloq xo‘jaligi boshqa rayonlardagidan yuksak intensivligi bilan ajralib turadi. Rayon mamlakatda yetishtiriladigan paxtaning deyarli 25 foizini bermoqda. Tog‘ oralari va yonbag‘irlari texnikadan foydalanishni cheklaydi. Shuning uchun bu yerlarda mevali daraxtlar o‘stiriladi (100-rasm). Shaharlar atrofida mevazor va uzumzorlar, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari ayniqsa keng tarqalgan.



100-rasm. Andijon viloyatidagi bog‘lar.

Chorvachilik, asosan, sut-go‘sht yetishtirishga ixtisoslashgan. Rayon mamlakatning pillachilik bazalaridan biridir. Rayon O‘zbekistonda yetishtiriladigan pillaning 45 foiziga yaqinini beradi.

Sanoati. Mustaqillik davrida foydali qazilmalar va qishloq xo‘jalik xomashyosi negizida ko‘plab yangi sanoat tarmoqlari vujudga keldi. Rayon yoqilg‘i-energetika majmuyining o‘z boyliklari salmog‘i kichik. Gaz boshqa iqtisodiy rayonlardan keltiriladi. Quvasoy IEM, Farg‘ona, Andijon va Namangan IEMlari, Shahrixon hamda Namangansoy gidroelektrostansiyalari butkul rayon uchun ishlasa-da, lekin rayonning elektr quvvatiga bo‘lgan ehtiyojini qondira olmaydi. Mazkur masalani yechimi sifatida quvvati 900 megavatt bo‘lgan To‘raqo‘rg‘on IES barpo etish rejalashtirilmoqda. Bu ulkan inshootning ishga tushirilishi Farg‘ona iqtisodiy rayonining elektr energiyaga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq ta’minlash imkoniyatini beribgina qolmasdan rayonning istiqboldagi rivojida katta o‘rin tutadi.

Asaka, Qo‘qon, Namangan, Farg‘ona mashinasozlikning yirik markazlari hisoblanadi. Farg‘ona HICHMda ***qurilish materiallari sanoati*** ham rivojlangan. Quvasoy sement zavodi, Andijon, Farg‘ona, Qo‘qon va Quvasoy shaharlarida uysozlik kombinatlari, temir-beton konstruksiyalari zavodi ishlab turibdi. Yengil va oziq-ovqat sanoatlari asosiy ixtisos sohalari sanaladi. Rayon charm poyabzallari, o‘simlik moyi ishlab chiqarish bo‘yicha mamlakatdagi boshqa iqtisodiy rayonlardan oldindadir.

Transporti. Rayon temiryo‘l, avtomobil va havo transporti bilan yetarli darajada ta’minlangan. Temiryo‘l vodiy bo‘ylab halqa shaklida o‘tkazilgan. Rayonning temiryo‘l bilan ta’minlanish darajasi mamlakatning o‘rtacha ko‘rsatkichidan 2 marta yuqori turadi. Rayon boshqa iqtisodiy rayonlar bilan Tojikiston hududidagi «Xo‘jand darvozasi»dan o‘tgan temir va avtomobil yo‘llari hamda Qamchiq dovoni orqali o‘tgan Angren–Pop temiryo‘li va Toshkent–Angren–Qo‘qon avtomobil yo‘li orqali bog‘langan. Rayon doirasida avtomobil transporti, ayniqsa, muhim rol o‘ynaydi.

Tashqi iqtisodiy faoliyati. Rayon chetga paxta tolasi va paxta yog‘i, quritilgan meva, konservalar, ip-gazlamalar, mashinalar, mineral o‘g‘itlar, sement, shifer, chinni hamda sopol buyumlar va boshqa mahsulotlar chiqaradi. Rayonga ko‘mir, g‘alla, yog‘och-taxta, mineral o‘g‘it, to‘qimachilik mahsulotlari, mashinalar, asbob-uskunalar hamda madaniy mollar keltiriladi.

Iqtisodiy geografik rayonning ma’muriy viloyatlari hududiy-ishlab chiqarish majmualari, xo‘jalik tarmoqlari hamda tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlar jihatidan bir-biridan farq qiladi.

1. Iqtisodiy geografik rayonning geografik o‘rni va tabiiy sharoitidagi xususiyatlar uning xo‘jaligida qanday ahamiyat kasb etadi?
2. Shahar va qishloqlarning vujudga kelishi hamda hududiy joylashuvi qanday omillar natijasi ekanini o‘ylab ko‘ring.
3. Ichki va tashqi aloqalar qanday transport vositasida amalga oshiriladi? Nega shunday? Sababini tushuntiring.

46-dars

ANDIJON VILOYATI

1-ilovadagi jadvaldan viloyat aholisining soni va maydonini aniqlang.

Andijon viloyati mamlakatning eng sharqiy viloyatidir. Viloyatning g‘arbi tekislik, sharqi qir-adirlardan iborat bo‘lib, tog‘ tizmalariga tutashgan.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, go‘sht-sut chorvachiligi, ipakchilik. ***Sanoatning asosiy tarmoqlari:*** mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektroenergetika, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati.

Viloyat ***qishloq xo‘jaligi*** rivojlangan (101-rasm). O‘zlashtiriladigan yerlar deyarli qolmagan. Paxtaning yalpi hosili faqat hosildorlikni ko‘tarish hisobiga oshirilmoqda. Sabzavot, kartoshka va poliz ekinlari, asosan, shaharlar atrofida yetishtiriladi. Qishloq xo‘jaligida bog‘dorchilik salmoqli o‘rin tutadi. Bog‘ va tokzorlar adirlar hisobiga kengaymoqda. Ixtisoslashgan bog‘dorchilik xo‘jaliklari bor.


Chorvachiligida qo‘y va echkilarning salmog‘i katta. Qoramol, asosan, sut va go‘sht uchun boqiladi. Pillachilik viloyat xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega.

Viloyatda ***sanoat*** ham yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, unda 160 dan ortiq sanoat korxonalari mavjud. Korxonalar orasida Asaka avtomobil zavodi, Andijon avtomobil o‘rindiqlari zavodi, irrigatsiya mashinasozligi zavodi, «Semurg‘» trikotaj aksiyadorlik birlashmasi yirik korxonalar hisoblanadi. Korxonalar, asosan, Andijon sanoat tugunida joylashgan. Viloyat elektr energiyani


iqtisodiy geografik rayonning birlashgan energetika tizimidan oladi. Kampirravot suv omborida quvvati 100 ming kilovattli GES qurilgan.

Andijon mamlakatda ilk neft olingan markazlardan biridir. Neft quvur orqali Farg‘ona viloyatidagi neftni qayta ishlash zavodlariga yuboriladi. Xo‘jaobodda mamlakatimizdagi eng yirik yerosti gaz ombori barpo etilgan. Undagi gazdan Andijon va Asaka shaharlariga ham yetkazib beriladi (102-rasm).

Shaharlari. Andijon obikor dehqonchilik markazida joylashgan. Neft, gaz va binokorlik materiallari konlari shaharning shundoq yonida. Shaharda og‘ir, yengil hamda oziq-ovqat sanoatiga tegishli 40 taga yaqin korxona ishlab turibdi. Ulardan paxta zavodi, to‘qimachilik hamda trikotaj fabrikalari mamlakat miqyosidagi yirik korxonalar hisoblanadi. Shoyi to‘qish korxona-



101-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Andijon viloyatining salmog‘i (foiz, 2017-yil).



102-rasm. Andijon viloyati.



103-rasm. Asakadagi avtomobil zavodi mahsulotlari.

lari viloyat pillakorlari tomonidan pilla bilan ta’minlab turiladi. Shaharda Andijon davlat universiteti, tibbiyot, qishloq xo‘jalik, mashinasozlik institutlari bor. Ko‘plab teatrlar, kutubxonalar, sport maydonchalari, istirohat va botanika bog‘lari mavjud. Boburiylar davrida ham Andijon xo‘jaligi, ilm-ma’rifati va madaniyati o‘z davriga nisbatan ravnaq topgan shahar bo‘lgan. Bobur bu haqda «Boburnoma» asarida yozib qoldirgan.

Asaka mamlakatning avtomobilsozlik markazidir. Bu yerda «Lacetti», «Chevrolet Tracker», «Chevrolet Captiva», «Malibu», «Cobolt» rusumli yangi avtomashinalarni ham ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi (103-rasm). Asaka shahri Shahrixonsoy daryosi oqib chiqadigan adirlik etagida joylashgan. Shaharni paxta dalalari, bog‘lar, tokzorlar o‘rab olgan. Shaharda avtomobil zavodidan tashqari, paxta-moy zavodlari, yengil va oziq-ovqat sanoatining boshqa korxonalari, shisha va kislorod zavodlari, binokorlik materiallari ishlab chiqaradigan korxonalar bor. Ko‘pgina madaniy-ma’rifiy muassasalar ishlab turibdi. Shahar Andijon, Farg‘ona va Marg‘ilon yo‘nalishidagi yo‘llar ustida joylashgan.


1. Viloyatning geografik o‘rni va tabiiy sharoitlari xo‘jalik uchun qanday imkoniyatlar yaratishini so‘zlab bering.
2. Viloyat qishloq xo‘jaligida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
3. Viloyat xo‘jaligini yanada rivojlantirish uchun nima qilmoq lozim?

47-dars

FARG‘ONA VILOYATI

1-ilovadagi jadvaldan viloyat aholisining soni va maydonini aniqlab, aholisining o‘rtacha zichligini toping.


Viloyatga vodiyning tekislik qismi, Oloy va Turkiston tizmalarining tog‘oldilari kiradi. Isfayram, Shohimardon, So‘x, Isfara daryolarining dehqonchilikda ahamiyati katta. Norin bilan Qoradaryodan bir necha sug‘oruv kanallari chiqarilgan (*ularni o‘quv atlasidan qarab chiqing*). Viloyat yalpi sanoat mahsulotiga ko‘ra faqat Toshkent viloyatidan keyinda turadi.



104-rasm. Farg‘ona viloyati.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: donchilik, paxtachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, go‘sht-sut chorvachiligi, parrandachilik, ipakchilik. ***Sanoatning asosiy tarmoqlari:*** elektroenergetika, kimyo, neftni qayta ishlash, qurilish materiallari, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati (104-rasm).

Farg‘ona viloyati ***qishloq xo‘jaligi*** paxta va g‘alla yetishtirish hamda pillachilikka ixtisoslashgan. Ekin maydonining asosiy qismiga paxta va g‘alla ekiladi (105-rasm). Bug‘doy va arpa bahorikor yerlarda, sholi esa zaxkash yerlarda yetishtiriladi. Makkajo‘xori, oq jo‘xori va beda hamma tumanlarda paxta bilan almashlab ekiladi. Bog‘dorchilik, uzumchilik uchun viloyatda sharoit qulay. Viloyat anori va anjiri bilan dong chiqargan. Farg‘ona viloyatida yaylovlar Andijon viloyatidagiga qaraganda ancha ko‘p. Chorva mollari, asosan, qo‘y va echkilardan iborat. Viloyat mamlakatda yetishtiriladigan pillaning 20 foizga yaqinini beradi.



105-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Farg‘ona viloyatining salmog‘i (foiz, 2017-yil).

Sanoati ko‘p tarmoqli bo‘lib, unda og‘ir sanoatning salmog‘i ancha katta. Neftni qayta ishlash, kimyo va energetika sanoati iqtisodiy rayondagina emas, balki respublikada ham ajralib turadi. Neftni qayta ishlaydigan 2 ta zavod bo‘lib, biri Farg‘onada, ikkinchisi Oltiariqda joylashgan. Mashinasozlik, metallsozlik va binokorlik materiallari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar ham muhim ahamiyatga ega. Yengil va oziq-ovqat sanoati qishloq xo‘jalik tarmoqlari negizida vujudga kelgan. Sanoat korxonalari Farg‘ona–Marg‘ilon sanoat rayoni va Qo‘qon, Quvasoy sanoat tugunlarida to‘plangan.

Transporti. Viloyat temiryo‘l va avtomobil yo‘llari bilan yaxshi ta’minlangan. Viloyatdan paxta tolasi va paxta moyi, shoyi, ip-gazlama, trikotaj mollar, quritilgan meva, meva konservalari, mineral o‘g‘it va sement jo‘natiladi. Taxta-yog‘och, har xil uskunalar, traktorlar, paxtachilik uchun zarur mashinalar, g‘alla, un, qand, keng iste’mol buyumlari keltiriladi.

Shaharlari. Viloyatda 9 ta shahar bor. ***Farg‘ona*** muhim sanoat, transport va madaniyat markazidir. Shahar suv bilan yaxshi ta’minlangan, yozi birmuncha salqin. Shaharda ikkita IEM ishlab turibdi. Iqtisodiy rayonning birlashgan energetika tizimi shu IEMlar asosida shakllangan. Shaharda Farg‘ona davlat universiteti, politexnika instituti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent tibbiyot akademiyasi hamda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutlarining filiallari faoliyat ko‘rsatadi. Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti bor. Madaniyat va istirohat bog‘lari, favvoralar, xiyobonlar, soya-salqin maydonlar shaharga o‘zgacha tarovat beradi. Buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad al-Farg‘oniy shu makonda tavallud topgan.

Marg‘ilon shoyi (atlas) ishlab chiqarishning markazi sifatida qadimdan dong chiqargan shahar. Shaharda paxta, ko‘n zavodi, ipak ishlab chiqaruvchi korxonalar bor. Marg‘ilonliklarning to‘qimachilik malakasi yuksak darajada takomillashdi va keng quloch yoydi. Marg‘ilon shoyi kombinati mamlakatdagi eng yirik to‘qimachilik korxonalaridan biridir. Kombinat ayni

vaqtda yirik o‘quv markazi hamdir. Unda Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Mashhur fiqh olimi Burhoniddin Marg‘inoniy shu yerda tug‘ilgan.

Qo‘qon Farg‘ona viloyatining g‘arbida, transport yo‘llari ustida joylashgan. Undan Toshkent, Namangan va Farg‘ona tomonlarga temiryo‘l va avtomobil yo‘llari o‘tadi. Mustaqillik yillarida Qo‘qonning sanoati rivojlanib, shahar muhim sanoat tuguniga aylandi. Shahardagi superfosfat zavodi hamda elektr mashinasozligi, to‘qimachilik mashinasozligi zavodlari respublikadagi yirik korxonalardandir. Shahar uzoq vaqt Qo‘qon xonligi poytaxti bo‘lgan. U viloyatdagi asosiy madaniyat markazlaridan biridir.

Quvasoy 1954-yilda ishchi shaharchasi o‘rnida barpo etilgan. Shahar yaqinidagi ohak, mergel, gips va gil boyliklari negizida u qurilish materiallari ishlab chiqaradigan sanoat markaziga aylandi. Endilikda sement, shifer, ohak hamda g‘isht zavodlaridan iborat kombinat ishlab turibdi. Mazkur kombinat respublikada ishlab chiqariladigan sementning salmoqli qismini bermoqda. Quvasoy chinni zavodida kosa, piyola, choynak, lagan va boshqa idishlar ishlab chiqarish yildan yilga ortmoqda.

Rishton – kulolchilik buyumlari ishlab chiqaradigan markaz. Bundagi kulolchilik artellari birlashtirilib, kombinatga aylantirilgan. Hozir kombinatda 20 xildan ortiq buyum ishlab chiqarilmoqda.



1. Xaritadan Farg‘ona viloyatining chegaralarini ko‘rsatib, uning geografik o‘rni va tabiiy sharoitiga xos xususiyatlarni so‘zlab bering.
2. Viloyat xo‘jaligida qaysi tarmoq tez rivojlanmoqda?
3. Quvasoy sanoat markazi bilan Qo‘qon sanoat tugunini taqqoslab, eng muhim tafovutlarini tushuntiring.





NAMANGAN VILOYATI

1-ilovadagi jadvaldan viloyat aholisining soni va maydonini aniqlab, aholisining o‘rtacha zichligini toping.

Namangan viloyati iqtisodiy rayonning shimoliy qismidadir. Viloyatning baland tog‘ tizmalari bilan o‘ralgan sharqiy qismida iqlim nisbatan yumshoq. Viloyatning g‘arbiy qismida yog‘in kam yog‘adi va daryolar ham kam.


Aholisi. Viloyat aholisi tabiiy o‘sish sur’atlari jihatidan oldingi o‘rinda turadi. Shunga ko‘ra mehnatga yaroqlilar soni tez ko‘paymoqda.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: donchilik, paxtachilik, sabzavotchilik, bog‘dorchilik va uzumchilik, go‘sht-sut chorvachiligi, pillachilik. ***Sanoatning asosiy tarmoqlari:*** elektroenergetika, mashinasozlik, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat.

Xo‘jaligi. Namangan viloyatida ham obikor ***dehqonchilik*** ustun turadi. Viloyat hududida ko‘plab sug‘orish inshootlari – Shimoliy Farg‘ona, Oxunboboyev nomli, Chust, Chortog‘soy kanallari va boshqalar qurilgan. Irrigatsiyaning rivojlanishi obikor yerlarni kengaytirish va melioratsiya holatini yaxshilash imkonini berdi.

Ekin maydonlarining asosiy qismiga paxta va g‘alla ekiladi (106-rasm). Pop va Chust tumanlaridagi yaylovlarda qo‘y va echki ko‘p boqiladi. Qoramol hamma dehqonchilik tumanlarida boqiladi. Yaylovlar yetishmaganidan ko‘pgina xo‘jaliklar mollarni yozda tog‘ yaylovlariga haydab boradilar. Pillachilik paxtachilik bilan birga rivojlantirilmoqda.

Sanoat, asosan, yengil va oziq-ovqat korxonalari hamda mashinasozlikdan iborat. Sanoat korxonalarining asosiy qismi Namangan sanoat tugunida joylashgan (107-rasm). Temiryo‘l, avtomobil transporti yaxshi rivojlangan. 2018-yili viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish maqsadida Chust tumani hududida «Namangan» erkin iqtisodiy zonasi tashkil etildi.




106-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Namangan viloyatining salmog‘i (foiz, 2017-yil).

Shaharlari. Namangan viloyatning ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazidir.

Shahar Namangansoy bo‘yida joylashgan. U viloyat sanoati mahsulotining katta qismini beradi. Shaharda shoyi fabrikasi va kostumbop gazlamalar kombinati, elektrotexnika zavodi, sun’iy tola zavodi, ikkita paxta tozalash zavodi, yog‘-ekstraksiya va konserva zavodlari, elektr stansiyalari, qop-qanor uchun ishlatiladigan dag‘al gazlama fabrikasi va boshqa korxonalar ishlab turibdi. Qurilish materiallari sanoatiga taalluqli korxonalardan uysozlik kombinati, temir-beton konstruksiyalar zavodi, g‘isht zavodi va boshqalar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Shaharda bir nechta oliy ta’lim muassasalari bor. Namanganni xalqimiz «gullar shahri» deb ataydi. Shahar markazidagi Mashrab nomidagi



107-rasm. Namangan viloyati.

madaniyat va istirohat bog‘i mamlakatimizdagi eng go‘zal bog‘lardan biridir. Shahar markazidan chekka tomon nursimon taralib ketgan keng va ravon ko‘chalar shahar markazini mikrorayonlar bilan bog‘laydi.

Chust – tuman markazi. Namangandan Toshkent va Qo‘qonga boriladigan avtomobil yo‘li ustida joylashgan. Shaharda tikuvchilik fabrikasi, hunarmandchilik korxonalari, madaniy-maishiy muassasalar bor. Chust pichoqchilik bilan mashhur. ***Popda*** texnik rezina va poyabzal zavodlari ishlab turibdi. Kelajakda zavodda rezina shinalarini qayta ishlash yo‘lga qo‘yiladi. ***Uchqo‘rg‘on*** tuman markazi. Undan Andijon, Namangan va Toshkent tomon avtomobil yo‘llari ketgan. Shahar yonida Norin daryosiga GES qurilgan. Shaharda yirik paxta tozalash hamda yog‘ zavodlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

1. Viloyatning iqtisodiy geografik o‘rniga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
2. Namangan viloyatining iqtisodiy xarita-sxemasidan foydalanib, Chust bilan Popni taqqoslang va eng muhim tafovutlarni ko‘rsating.
3. Yozuvsiz xaritadan Namangan viloyatiga tegishli topshiriqlarni bajaring.

49-dars

ZARAFSHON IQTISODIY RAYONI



Iqtisodiy geografik o‘rni va tabiiy boyliklari. Bu iqtisodiy rayon Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlari hududidan iborat. Maydonining kattaligi jihatidan Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidan keyinda turadi.

Ayting-chi, iqtisodiy rayonning geografik o‘rnini qanday baholasak bo‘ladi?

Maydonining asosiy qismi tekislik (Qizilqum cho‘li)dan iborat. U qorako‘lchilik uchun ahamiyatlidir. Tekislik markazida Tomditog‘ (eng baland cho‘qqisi 922 m), Bo‘kantog‘, Ovminzatog‘, Quljuqtog‘ qad ko‘tarib turadi. Tekislikning sharqida Nurota, Oqtog‘, Qoratog‘larning g‘arbiy qismi joylashgan. Bular ham iqtisodiyotda muayyan ahamiyat kasb etadi. Zarafshon vodiysining quyi qismlari obikor dehqonchilik uchun qulay.

Iqtisodiy rayon iqlimi keskin kontinental, yozi issiq va quruq. O‘simlik o‘sadigan davr haroratining yig‘indisi shimolda 3000°C ni, janubda esa 5000°C ni tashkil etadi. Yog‘in nihoyatda kam, yillik yog‘in miqdori 100–300 mm xolos. Qor qoplami yupqaligi yaylov chorvachiligiga qo‘l keladi. Cho‘lda yerosti suvlaridan chorvachilikda, kichikroq joylarda esa sabzavot yetishtirishda foydalaniladi. Tez-tez garmsel shamoli xuruj qilib, o‘simliklarni qovjiratib ketadi.

Suv muammosini hal qilish uchun Zarafshon daryosida Amu–Qorako‘l va Amu–Buxoro mashina kanallari, kanalda esa Quyimozor suv ombori ishga tushirilgan. Suvni 64 metr balanddagi bu kanallarga qudratli nasoslar ko‘tarib beradi. Suv omborga va undan kanallar orqali Buxoro vohasini sug‘orishga sarflanadi.

Zarafshon iqtisodiy rayonida xilma-xil mineral boyliklar ko‘p. Jumladan, Gazli, Uchqir, Qorovulbozor, Sortosh tabiiy gaz konlari, Kogon yaqinida neft koni, Muruntov oltin koni, Ingichka va Zarmitanda nodir metallar konlari, oltingugurt konlari, qurilish materiallari va mineral bo‘yoq konlari mavjud. Bu boyliklar iqtisodiy rayonda energetika, rangli metallurgiya, kimyo hamda qurilish materiallari sanoatlarini rivojlantirish uchun baza hisoblanadi.

Aholisi. Iqtisodiy rayon aholisining ko‘payish sur’ati mamlakat aholisining o‘rtacha o‘sishiga yaqinlashadi. Aholi hudud bo‘ylab juda notekis joylashgan. Ayniqsa, cho‘l mintaqasida aholi o‘ta siyrak.

Xo‘jaligi va uning hududiy tashkil etilishi. Ushbu iqtisodiy rayonda agrosanoat majmuyi tarkib topib bormoqda. Sanoat ko‘p tarmoqlidir.



108-rasm. Qorovulbozordagi neftni qayta ishlash zavodi.

Zarafshon iqtisodiy rayonining elektroenergetika, rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, kimyo va gaz-kimyo, mashinasozlik, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat kabi tarmoqlari jadal rivojlanmoqda.

Qorovulbozor shahrida yiliga 5 mln tonna neftni qayta ishlaydigan korxonaning ishga tushirilishi rayonda iqtisodiyotning yangi iqtisodiy sohasini vujudga keltirmoqda (108-rasm). Korxona mamlakatimiz neft mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojning yarmini qondira oladi.

Iqtisodiy rayon hosil etilayotgan elektr energiya miqdoriga ko‘ra Toshkent va Mirzacho‘l iqtisodiy rayonlaridan keyin uchinchi o‘rinda turadi. Elektr quvvati, asosan, Navoiy IESidan olinmoqda, IES tabiiy gaz bilan ishlaydi. Gaz sanoati bo‘yicha rayon yaqin yillargacha O‘zbekistonda yetakchi o‘rinda edi. Qashqadaryodagi Sho‘rtan gaz koni ishga tushirilgach, ikkinchi o‘ringa tushib qoldi. Kimyo sanoati tabiiy gaz va boshqa mineral xomashyoga tayanadi. Zarafshon hududiy ishlab chiqarish majmuyining asosiy tarmoqlaridan biri yengil sanoatdir.

Qishloq xo‘jaligi paxtachilik va qorako‘lchilikdan iborat. Yurtimizdagi yaylovlarning yarmidan ko‘pi shu rayonda. Yaylovlar mahsuldorligini oshirish uchun fitomeliorativ tavsiyalar tayyorlovchi 6 ta o‘rmon xo‘jaligi va 1 ta o‘rmon-melioratsiya stansiyasi ishlab turibdi. O‘zbekistondagi qorako‘l qo‘ylarning va tuyalarning yarmidan ko‘pi shu iqtisodiy rayonda boqiladi.


1. Iqtisodiy rayonning iqtisodiy geografik o‘rniga xos qanday xususiyatlar xo‘jalikning yuksalishida ijobiy rol o‘ynaydi?
2. 8-sinf o‘quv atlasidan foydalanib, iqtisodiy rayonda obikor dehqonchilik qilinadigan joylarni aniqlang.
3. Quyidagi belgilar nimani anglatishini o‘quv atlasidan aniqlang: ◐ △ ◭ ◮

SAMARQAND VILOYATI

1-ilovadagi jadvaldan Samarqand viloyati aholisining soni va maydonini aniqlang.

Iqtisodiy geografik o‘rni va tabiiy boyliklari. Bu viloyat O‘zbekistonning markaziy qismida joylashgan. Aholi soni hamda yalpi sanoat mahsuloti bo‘yicha Samarqand viloyati mamlakatimizda yetakchi o‘rinlardan birida turadi *(o‘quv atlasdan mazkur viloyatning chegaralarini aniqlang)*. Tabiiy geografik o‘rniga ko‘ra Zarafshon vodiysining o‘rta qismiga to‘g‘ri keladi, uch tomondan Nurota, Turkiston va Zarafshon tizma tog‘lari bilan o‘ralgan. Tog‘ tizmalari shimoldan esadigan sovuq havo oqimini birmuncha to‘sadi. Yog‘in ko‘proq (250–800 mm) yog‘adi. Sho‘rxok maydonlar deyarli yo‘q. Bo‘z va o‘tloq-alluvial tuproqli yerlar kattagina maydonni tashkil etadi.

Viloyat hududidan oqib o‘tuvchi ***Zarafshon daryosi*** suvni muz va



109-rasm. Samarqand viloyati.

qorlardan oladi. Shunga ko‘ra Zarafshon daryosi sug‘orishga ehtiyoj katta bo‘lgan yoz oylarida to‘lib oqadi. Suvdan yanada samarali foydalanishni ko‘zlab, daryoning o‘rta oqimida Kattaqo‘rg‘on suv ombori barpo etilgan. Shu bilan birga Eski Anhor kanali orqali Zarafshon suvi (Darg‘om kanalidan) Qashqadaryo viloyatiga oqizilmoqda. Xullas, suvdan xo‘jalikda to‘la foydalanish bo‘yicha O‘rta Osiyoning bironta daryosi Zarafshonga tenglasha olmaydi. Uning 90 foiz suvi sug‘orishga sarflanadi.

Adirlar qisman haydalgan, unga g‘alla ekiladi. Tog‘larda yog‘ingarchilik yetarliligidan o‘tloqlar ham ko‘p. Chorva yozda shu yerlarda boqiladi. O‘simliklarning o‘sish davri cho‘l bilan adirda bir vaqtga to‘g‘ri kelmasligidan qorako‘l qo‘ylarini yil bo‘yi yaylovda boqish mumkin. Viloyatning tabiiy sharoiti mevali daraxtlar o‘stirish uchun ham qulay. Bu yerda shirindan shakar gilos, o‘rik, shaftoli erta pishadi.

Viloyatda mineral boyliklar ham ko‘p. Bu yerda ***nodir metallar, binokorlik materiallari*** (marmar, ohak, granit, mergel, grafit), ***mineral bo‘yoqlar, asbest konlari*** topilgan (109-rasm). Xullas, viloyatning yuksalishida uning tabiiy va iqtisodiy geografik o‘rnidagi qulayliklar qatori tabiiy sharoiti va boyliklari ham talay imkoniyatlar yaratadi.


Aholisi. Viloyat aholisining 3/5 qismi qishloqda yashaydi. Butun aholi sonida mehnatga yaroqli kishilar salmog‘i mamlakatdagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan kam bo‘lsa-da, lekin ishchi kuchlari iqtisodiyotni yuksaltirish uchun keragicha topiladi. Tabiiy sharoit va xo‘jalik yuritishdagi tafovutlarga muvofiq aholi joylashuvida ham tafovut yaqqol ko‘zga tashlanadi. Inson faoliyati uchun eng qulay Zarafshon vodiysida aholi nihoyatda zich yashaydi. Bu yerlarda har bir kv. km ga 250 va undan ortiq kishi to‘g‘ri keladi. Adirlarda va tog‘larda har bir kv. km ga 15–20 kishi to‘g‘ri keladi.



Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: donchilik, paxtachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, go‘sht-sut chorvachiligi, qorako‘lchilik, ipakchilik. ***Sanoatning asosiy tarmoqlari:*** rangli metallurgiya, mashinasozlik (avtomobilsozlik), yengil va oziq-ovqat.

Xo‘jaligi. Samarqand viloyati hududida aholi qadimdan obikor dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Dehqonchilik bilan birga savdo va hunarmandchilik ham taraqqiy etgan.

Viloyatda sanoat yetakchilik qiladi. Og‘ir sanoat tarmoqlaridan mashinasozlik va metallsozlik, kimyo tez rivojlanmoqda. Samarqand shahrida 1999-yilda yuk tashish va sayyohlarga xizmat ko‘rsatadigan 4 turdagi mashinalarni ishlab chiqaruvchi «SamKochavto» zavodi ish boshlagan edi.



110-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Samarqand viloyatining salmog‘i (foiz, 2017-yil).

Hozirda mazkur zavod «SamAvto» deb ataladi. Samarqanddagi ***«SamAvto» zavodida*** «Isuzu» rusumli mikroavtobuslar hamda yuk avtomashinalari ishlab chiqarilmoqda.

Yengil sanoatning 50 ga yaqin korxonasi ishlab turibdi. Oziq-ovqat sanoati mahalliy xomashyolardan konserva va sharob, o‘simlik moyi, tamaki, sut va go‘sht, qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqaradi.

Samarqand hududiy ishlab chiqarish majmuyida ***qishloq xo‘jalik*** alohida o‘rin tutadi (110-rasm). Dehqonchilik qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 75 foizini beradi. Dehqonchilikning yetakchi tarmog‘i bu rayonda ham paxtachilik va g‘allachilikdir. Boshqa texnik ekinlardan tamaki, kunjut, zig‘ir va safsar (maxsar) yetishtiriladi. Urgut tumani tamaki yetishtirishga ixtisoslashgan. Bahorikor yerlarda bug‘doy va arpa ekiladi. Bog‘dorchilik va uzumchilik tarmoqlari yuksak taraqqiy etgan. Shaharlar atrofidagi xo‘jaliklarda, aholining tomorqa yerlarida ko‘plab turli xil sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi.

Bu viloyatda mevali daraxtzorlar va tokzorlar ko‘p. Chorvachilik agrosanoat majmuyining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Qoramollar soni jihatidan viloyat mamlakatda birinchi o‘rinni egallaydi, qorako‘lchilikda esa uchinchi o‘rinda turadi. Bu yerda qorako‘lchilikni rivojlantirish choralarini tadqiq etuvchi ilmiy tadqiqot instituti bor.

Transporti. Samarqand viloyati hududidan ikkita temiryo‘l o‘tadi. Toshkent–Turkmanboshi, Toshkent–Dushanbe temiryo‘lida, asosan, tranzit yuklar tashiladi. Viloyatda avtomobil yo‘llari ko‘p, ular orqali temiryo‘lga va bir viloyatdan boshqa viloyatga yuklar tashiladi. Havo transporti mamlakatning barcha yirik shaharlarini hamda xorijiy davlatlarni bog‘laydi. Quvur transporti va elektr uzatkich liniyalari ko‘p tarmoqli. Rossiyaga paxta tolasi, paxta moyi, ho‘l meva, uzum, mayiz va qorako‘l terilari yuboriladi. Mineral o‘g‘it, tamaki, choy, poyabzal, shoyi va boshqa iste’mol mollari barcha qo‘shni viloyatlarga va O‘rta Osiyo davlatlariga ham chiqariladi. Viloyat, asosan, yog‘och-taxta, g‘alla, shakar-qand, mashinalar, ko‘mir, neft, neft mahsulotlari hamda keng iste’mol mollari oladi.

Viloyatda Samarqand, Kattaqo‘rg‘on sanoat tugunlari tarkib topgan.

Shaharlari. Samarqand Zarafshon daryosining o‘rta qismida joylashgan.

Samarqand dunyodagi juda qadimiy shaharlardan hisoblanadi. Arxeologik izlanishlar natijasida shaharning yoshi 2750 da ekanligi aniqlangan.


XIV–XV asrlarda Movarounnahrning ilmiy tafakkur markazi bo‘lgan. Geografik o‘rnining qulayligidan Samarqand o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoning muhim savdo markazlaridan biriga aylandi. Hindiston, Eron va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan olib borilgan savdo aloqalari shaharning iqtisodiy hamda madaniy jihatdan yuksalishiga ta’sir ko‘rsatdi. O‘sha davrlardayoq zargarlik buyumlari, kulolchilik bo‘yoqlari, ipak va ip-gazlamalar ishlab chiqarish va kashtachilik yaxshi rivojlandi. Qog‘oz va duxobalar ishlab chiqarishni samarqandliklar bundan ming yil burun keng yo‘lga qo‘ygan edilar.

Amir Temur va temuriylar davri (XV–XVII asrlar)da Samarqandda hashamatli machit, madrasa, maqbara va saroylar qurildi. Ular Hindiston, Misr, qadimgi Yunoniston va Rim me’morchiligining noyob yodgorliklari qatorida umumjahon ahamiyatiga egadir. O‘rta asr shoir va olimlari Samarqandni «sayqali ro‘yi zamin» deb ulug‘laganlar.

1924–1930-yillarda Samarqand shahri O‘zbekistonning poytaxti bo‘lgan. Hozirda ham Samarqand mamlakatning yirik sanoat tuguni, madaniyat markazlaridan biri sifatida ahamiyatlidir.

Samarqand bilan Jomboy, Juma va boshqa shaharchalar ishlab chiqarish bo‘yicha o‘zaro bog‘langan. Shahar qishloq xo‘jaligi rivojlangan hudud markazida joylashganidan unda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan ulkan korxonalar ko‘p.

1999-yilda Samarqanddan shimoldagi Chelak shahri yaqinida buyuk hadisshunos olim imom al-Buxoriyga bag‘ishlab me’moriy majmua barpo qilindi (111-rasm).



111-rasm. Imom al-Buxoriy maqbarasi.

Samarqand mamlakat ilm-fanining yirik markazidir. Shaharda Samarqand davlat

universiteti, Xalqaro turizm universiteti, tibbiyot, arxitektura-qurilish, chet tillar, iqtisodiyot va servis, veterinariya meditsinasi institutlari, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali faoliyat yuritmoqda. Shahar tarixi Rudakiy, Navoiy, Xo‘ja Ahror, Bobur, Jomiy, Ulug‘bek, Ahmad Donish, Abu Lays Samarqandiy singari olimlar, yozuvchilar, mutafakkirlar nomlari bilan bog‘liq. Shahar xo‘jaligining yuksalishi bilan aholisi ham tez ko‘paymoqda.

Kattaqo‘rg‘on viloyatda Samarqanddan keyingi ikkinchi o‘rinni egallagan sanoat tuguni va madaniyat markazidir. Shahar yonidan Samarqand–Buxoro temiryo‘li o‘tadi. Shaharda Kattaqo‘rg‘on paxta tozalash mashinasozligi zavodi, motor tuzatish, paxta va g‘isht zavodlari hamda mahalliy sanoat korxonalari bor. Moy eritish va go‘sht kombinatlari hamda yiliga 2 million jo‘ja ochiriladigan broyler fabrikasi oziq-ovqat sanoatining respublikadagi yirik korxonalari hisoblanadi. Moy eritish kombinati mamlakatdagi eng yirik korxonalardan biridir. Sanoat korxonalarini katta IEM elektr energiya bilan ta’minlaydi.

Urgut Samarqanddan taxminan 50 km janubi sharqda, Qashqadaryo viloyati chegarasida joylashgan shahar. Urgutda bir nechta gilam fabrikalari, tabak-ferment va shifer zavodlari faoliyat yuritadi. Samarqand viloyatining eng yirik sharq bozori shu shaharda joylashgan.

1. Samarqand viloyati qishloq xo‘jaligida qaysi tarmoqlarning salmog‘i katta, buning sababini tushuntiring.
2. Viloyat sanoati bilan qishloq xo‘jaligining ishlab chiqarish aloqalarini tushuntiring.
3. Samarqand shahrining yirik ilm-fan, madaniy markaz ekanligini asoslab bering.
4. Yozuvsiz xaritada Samarqand viloyatiga tegishli topshiriqlarni bajaring.

51-dars

NAVOIY VILOYATI

Bu viloyat mamlakatimizning eng kenja viloyati. U Buxoro va Samarqand viloyatlari hududidan tashkil topdi. Navoiy viloyati mamlakatimiz viloyatlari ichida maydonining kattaligi bo‘yicha birinchi o‘rinda tursada, aholisining soni bo‘yicha oxirgi o‘rinlardan birida turadi (112-rasm). Viloyatning o‘simlik (yaylov) boyligi qorako‘lchilikda katta ahamiyatga ega.

Aholisi hudud bo‘ylab notekis joylashgan. Tomdi, Uchquduq, Konimex tumanlarida aholi nihoyatda siyrak. Sanoatning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi shahar aholisining tez ko‘payishiga olib kelmoqda. Viloyatda yangi shahar va shaharchalar qad ko‘tarmoqda.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: donchilik, paxtachilik, qorako‘lchilik, qo‘ychilik. ***Sanoatning asosiy tarmoqlari:*** elektroenergetika, rangli metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari sanoati.


Cho‘l chorvachiligi sohasida bu viloyat mamlakatda yetakchidir. Qizilqum cho‘lida qorako‘lchilikka ixtisoslashtirilgan yirik xo‘jaliklar tashkil etilgan. Bu sohada Tomdi tumani alohida ajralib turadi, tumanda ko‘plab qorako‘lchilik xo‘jaliklari bor. Yaylovlarni suv bilan ta’minlash, ularning mahsuldorligini oshirish uchun fitomeliorativ ishlar olib borilmoqda.

Sanoatning rivojlanishi suv boyliklariga bog‘liq. Taraqqiy etayotgan sanoat tarmoqlari, jumladan, kimyo sanoati va boshqalar suvni ko‘p talab qiladi. Viloyat kimyo sanoati tabiiy gaz va boshqa mineral xomashyoga tayanib tez rivojlanmoqda. Kimyo sanoatining markazi Navoiy shahridagi kimyo kombinatidir (113-rasm).

Mamlakatimizda tayyorlanayotgan sement mahsulotining asosiy qismi Navoiy sement zavodida ishlab chiqarilmoqda. Zavod yaqin vaqtlargacha shlak, metall qipig‘i, klinker singari sement xomashyolarini sobiq Ittifoq respublikalaridan katta-katta xarajatlar hisobiga keltirardi. Xomashyoning qimmatligi sement ishlab chiqarishni ko‘paytirish va sifatini oshirishga to‘sqinlik qilardi. Geologlarning izlanishlari natijasida Malikcho‘l sarhadlarida, shundoqqina zavodning yonida tuf koni topildi. Tuf eng a’lo shlakdan ham, noyob aralashma–klinkerdan ham qolishmaydigan sement xomashyosidir. Kon zaxirasi katta bo‘lib, yiliga 2–3 mln tonna tuf qazib olinganda ham 45–50 yilga yetishi aniqlandi.



112-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Navoiy viloyatining salmog‘i (foiz, 2017-yil).



113-rasm. Navoiy viloyati.

Viloyat elektr energiyasini ishlab chiqarish miqdoriga ko‘ra mamlakatda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi (114-rasm). Elektr energiyaning asosiy qismini Navoiy IES beradi. Mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etish jadal amalga oshirilmoqda. Ularni amalga oshirishda kerakli imtiyozlarga ega bo‘lgan maxsus industrial zonalar tashkil etilmoqda. Jumladan, «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi tashkil etilganidan buyon uning hududida 19 ta investitsiya loyihasi bo‘yicha ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi. Jumladan, yuksak texnologiyalar asosida televizorlar uchun taglik-moslamalar, elektr energiyani elektron hisoblagichlar, yuqori kuchlanishga chidamli kabellar, IESlar uchun isitish qozonlari, mobil va statsionar telefon apparatlari, tayyor dori vositalari va boshqa turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Ijtimoiy sohalar. Viloyatda ikki oliy ta’lim muassasasi – Navo-



114-rasm. Sanoat ishlab chiqarishning tarmoq tarkibi (2017-yil).

iy davlat pedagogika instituti va Navoiy davlat konchilik instituti faoliyat ko‘rsatmoqda. 380 ga yaqin umumta’lim maktablarining 120 tasi Qizilqumning olis cho‘l hududlarida joylashgan. Viloyat hududida ko‘pgina tarixiy maskanlar mavjud. Ular sirasiga qadimgi Karmana, Rabot Malik, Nurotadagi Toshmasjid tarixiy yodgorliklari, Chilustun, Ko‘kgumbaz, Qosimshayx maqbaralarini kiritish mumkin.

Shaharlari. Navoiy tez yuksalayotgan yosh sanoat shahridir *(aholi manzilgohlari mavzusidan shahar aholisi sonini aniqlang)*. U viloyatning ma’muriy markazi. Zarafshon daryosining yaqinligi, yirik qishloq xo‘jalik hududi markazida joylashganligi, transport bilan yaxshi ta’minlanganligi shaharning tez o‘sish omili bo‘ldi. Shahar 1960-yillarda yagona bosh reja asosida issiq iqlim va milliy an’analarni hisobga olib qurildi. Shahar ko‘kalamzorlashtirilgan.

Navoiyda mamlakatdagi yirik IES, elektr-kimyo kombinati, sement zavodi, kon-metallurgiya kombinati bor. Shahar sanoat va transport tuguni, muhim madaniyat markazidir.

Zarafshon shahri Muruntov kon qazib olish sanoati bazasida 1972-yilda barpo etildi. Shaharda rangli metallurgiya, shuningdek, yengil, oziq-ovqat sanoat tarmoqlari yo‘lga qo‘yilgan.

1. Viloyatning geografik o‘rni va tabiiy sharoiti xo‘jaligi uchun qanday imkoniyatlar yaratadi?
2. Viloyat aholisi va ishchi kuchlarining ko‘lami hamda joylashuvi bo‘yicha Samarqand viloyatiga qiyoslang.
3. Viloyatdan qanday mahsulotlar jo‘natilib, qanday mahsulotlar keltirilishini geografiya daftaringizga yozib, o‘qituvchingizga ko‘rsating.


BUXORO VILOYATI

1-ilovadagi jadvaldan viloyat aholisining soni va maydonini aniqlab, aholisining o‘rtacha zichligini toping.

Viloyat maydoni mamlakat maydonining 9,0, aholisining 5,7 foizini tashkil etadi (115-rasm). Viloyatning ayrim hududlarida sizot suvlari yer yuziga yaqinligi, yog‘in kamligi, cho‘lda qum ko‘chishi kabi salbiy hodisalar yer fondidan foydalanishda ortiqcha mehnat va mablag‘ talab etadi. Aniqlangan tabiiy gaz zaxiralari juda ko‘p. Bundan tashqari, neft, binokorlik materiallari, tuz va boshqa foydali qazilma boyliklari topilgan.


Tarixiy obidalar. Mustaqillik yillarida Buxoroning betakror me’moriy obidalari yana asl jozibasiga ega bo‘ldi. BMTning ilm-fan va madaniyat ishlari bo‘yicha tashkiloti YuNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan tarixiy obidalarning qariyb yarmi Buxoro viloyatidadir.

Xo‘jaligi. Ekin maydonlarining tarkibida paxta va g‘alla asosiy o‘rinni egallaydi. Viloyatda oziqbop ekinlar ham ko‘p ekiladi. Bu yerda bahorning erta kelishi va iliq bo‘lishi tufayli o‘rik, shaftoli, tog‘olcha keng tarqalgan. So‘nggi 20 yil ichida iqtisodiyot, jumladan, sanoat tarmoqlarining rivojlanishida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Agar viloyatda 90-yillarning boshida atigi bir necha respublika ahamiyatiga ega sanoat korxonalari faoliyat yuritgan bo‘lsa, hozirda ularning soni 100 dan oshdi. O‘tgan yillar davomida, umuman, sanoat tarmog‘ida 27 ta yangi turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yildi.



115-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Buxoro viloyatining salmog‘i (foiz, 2017-yil).

Mustaqillik yillarida olib borilgan izlanishlar natijasida Qandim, Oqqum va Porsonko‘l hududlaridagi neft va tabiiy gazning katta zaxiralari ochildi (116-rasm). Ana shu konlardagi energetika xomashyosini qayta ishlash uchun 1997-yilda Qorovulbozor shahrida yirik neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi. Mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lgan ushbu korxona Buxoro–Xiva neft-gazli hudud xomashyosini qayta ishlash bilan birga viloyat aholisini ish bilan ta’minlash borasida asosiy manbalardan biri vazifasini ham o‘tamoqda.



116-rasm. Buxoro viloyati.

Viloyatning transport sharoiti tubdan yaxshilandi. «Afrosiyob» tezyurar poyezdini yo‘lga qo‘yilishi munosabati bilan poytaxtdan Buxoro shahrigacha temiryo‘l orqali qariyb 4 soatda yetib olish imkoniyati yaratildi.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: donchilik, paxtachilik, sabzavotchilik, qo‘ychilik. ***Sanoatning asosiy tarmoqlari:*** yoqilg‘i (neft va gaz), kimyo va neft-kimyo, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat.

Amalga oshirilgan shu kabi ulkan ishlarning natijasi o‘laroq Buxoro O‘zbekistonning muhim ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va sayyohlik markazlaridan biriga aylanib bormoqda. Bu esa hududni kompleks rivojlantirish orqali turli tarmoqlarning, ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohalarini kuchaytirib, aholini ish bilan ta’minlash uchun imkoniyat yaratmoqda.

Buxoro shahri qadimiyligi va o‘tmishda poytaxt bo‘lganligi bilan Samarqandga o‘xshaydi (117-rasm). Shahar qadim zamonlardan beri



117-rasm. Buxoroning eski shahar qismi.

zardo‘zlik, shoyi to‘qish, zargarlik, miskarlik, ganchkorlik va yog‘ochga naqsh solish hunarlari bilan dunyoga mashhur.

Shaharda o‘ndan ortiq xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda qurilgan qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, «Bux-Tel» (Isroil) mayonez, «Omega-Sitora» (Gretsiya) mo‘yna buyumlari, «Gufik-Avitsenna» (Hindiston) dori-darmon, «Marmar» (AQSH) qurilish materiallari ishlab chiqaradi. Shaharda 1996-yildan boshlab Koreya Respublikasida ishlab chiqarilgan telefon stansiyasi ishga tushirildi.

Shaharda Buxoro davlat universiteti, muhandislik-texnologiya instituti, tibbiyot instituti, Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutining Buxoro filiali faoliyat ko‘rsatmoqda.

Qadimiy me’morchilik an’analarini zamonaviy andozalar uyg‘unligida yanada rivojlantirish maqsadida 2010-yilda 107 gektar maydonni egallagan «Buxoro madaniy markazi» majmuyi tashkil etildi. Ushbu majmua bir qator yirik inshootlar – 700 o‘rinli viloyat musiqali drama teatri, 2000 tomoshabinga mo‘ljallangan amfiteatr va «Ko‘hna va boqiy Buxoro» monumentini o‘z ichiga oladi. Majmua markazidagi 18 metrli monument ushbu zaminning ilmiy-madaniy va tarixiy-falsafiy merosini o‘zida aks ettiradi.

Kogon temiryo‘l stansiyasi sifatida qad ko‘targan shaharcha. Temiryo‘l Dushanbega yetib borishi hamda Kogon–Buxoro temiryo‘li qurilgach, Kogon transport tuguniga aylandi. Endilikda shaharda 15 ga yaqin sanoat korxonasi ishlab turibdi.

Gaz koni negizida ***Gazli*** shahri barpo etildi. Gazliga Navoiydan elektr quvvati va Amudaryodan quvur orqali suv olib kelingan. Gazli joylashgan hududning iqlimi keskin kontinental, vaqti-vaqti bilan kuchli shamol bo‘lib, chang ko‘tariladi, ayrim vaqtlarda qum ko‘chadi.

1. Viloyatning geografik o‘rni va tabiiy sharoiti xo‘jaligi uchun qanday imkoniyatlar yaratadi?
2. Hunarmandchilikning qanday turi qaysi tumanlarda rivojlangan?
3. Viloyat qishloq xo‘jaligida qanday o‘zgarishlar yuz berdi? Sababini izohlang.
4. Tumaningizni viloyat markazi bilan bog‘laydigan eng qisqa yo‘lni aniqlang.

53-dars

JANUBIY IQTISODIY RAYON

Darslik 1-ilovasidagi jadvaldan rayonning aholisi soni va maydonini aniqlang.



Iqtisodiy geografik o‘rni va tabiiy boyliklari. Janubiy iqtisodiy rayon mamlakatimizning janubiy qismida joylashgan bo‘lib, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan tashkil topgan.

Rayon uchta davlat – Afg‘oniston, Turkmaniston va Tojikiston bilan, shimolda esa Zarafshon iqtisodiy rayoni bilan chegaralanadi. Maydoni qariyb O‘zbekiston maydonining 1/10 qismiga teng bo‘lib, bu hududda mamlakat aholisining har yettitasidan biri yashaydi. Iqtisodiy rayon mamlakatimizning janubiy darvozasi hisoblanadi. Amudaryoda qurilgan avtomobil va temiryo‘l ko‘prigi rayonning iqtisodiy geografik o‘rnini xalqaro miqyosga ko‘targan (118-rasm). O‘zbekistonga nisbatan shimolda joylashgan aksariyat davlatlar Afg‘oniston bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini shu ko‘prik orqali amalga oshirmoqda.

Iqtisodiy rayonda cho‘l va tog‘ yaylovlarini o‘zlashtirilishi bilan tabiiy yaylovlar tobora qisqarib bormoqda. Bundan qorako‘lchilik zarar ko‘rmasligi uchun cho‘llarda fitomeliorativ tadbirlar ko‘rilmoqda.

Iqtisodiy rayonda yoqilg‘i-energetika boyliklari nihoyatda ko‘p. Sho‘rtan gazi Sirdaryo IESni, hatto Angren IESni ham yoqilg‘i bilan ta’minlaydi. Muborak gaz konlari butun mamlakatga va xorijiy davlatlarga yoqilg‘i yetkazib bermoqda. Bir nechta neft, yonuvchi slanes konlari aniqlangan. Osh tuzi, marmar, ohaktosh, gips zaxiralari kimyo va qurilish materiallari sanoati uchun katta istiqbollar ochadi.



118-rasm. O‘zbekistonni Afg‘oniston bilan bog‘lab turuvchi ko‘prik.

Aholisi. Iqtisodiy rayon bo‘ylab aholi juda notekis joylashgan. Sug‘orib dehqonchilik qilinadigan tumanlarda aholi zich (har bir kv. km ga 100–250 kishi), tog‘, cho‘l, chala cho‘llarda aholi siyrak. Shaharlar kengaymoqda, yangi shaharchalar paydo bo‘lmoqda.

Xo‘jaligi va uning hududiy tashkil etilishi. Iqtisodiy rayon qishloq xo‘jaligida

chorvachilik alohida o‘rin tutadi. Qorako‘l yetishtirish bo‘yicha rayon mamlakatda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Keng yaylovlar, makkajo‘xori va beda yetishtirish, sanoat chiqindilaridan foydalanish chorvachilik yuksalishiga imkon bermoqda. Go‘sht va yog‘ uchun boqiladigan dumbali qo‘ylar hamda echkilar tog‘ va tog‘oldi yaylovlarida boqiladi. Tog‘ oldilarida hamda quruq dashtlarda mayin, uzun junli qo‘y va echkilar boqilmoqda.



Iqtisodiy rayonni tashkil etgan ikki viloyatda sanoatni holati bir-biridan keskin farq qiladi. Qashqadaryo viloyatida, asosan, qazib oluvchi sanoat hisobiga sanoat yuksak rivojlangan bo‘lsa, Surxondaryo viloyatining sanoatini mamlakat sanoatidagi hissasi juda kam.

Qashqadaryodagi Talimarjon IES, «Muborakgaz» kabi yirik korxonalar nafaqat iqtisodiy rayon, balki mamlakatimiz iqtisodiyotini faxri hisoblanadi. AQSH va Yaponiya kompaniyalari ishtirokida qurilgan, 600 atmosfera bosimi ostida ishlaydigan, bir kecha-kunduzda 4,2 mln kub m gaz ishlab chiqaradigan Ko‘kdumaloq kompressor stansiyasi, strategik ahamiyatga molik «Sho‘rtangaz» majmuasi ham shular jumlasidandir.

Transporti. Iqtisodiy rayonda transportning barcha turlari mavjud. So‘nggi vaqtlarda rayondagi har ikkala viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirish, yuk tashishning transport ta’minotini yaxshilash maqsadida «Toshg‘uzor–Boysun–Qumqo‘rg‘on» yangi temiryo‘li ishga tushirildi. Bu temiryo‘l Boysun tumani orqali iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan kam rivojlangan tuman qishloqlariga sanoatning kirib kelishiga, yerusti va yerosti boyliklaridan keng foydalanishga, musaffo tog‘ havosida davolash maskanlari, turistik bazalar, dam olish uylari qurishga katta imkoniyat yaratadi. Eng muhimi, yangi, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar qurilishi yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, tadbirkorlikning rivojlanishi uchun keng yo‘l ochib berdi. Natijada iqtisodiy rayonda yuk tashish hajmi keskin ko‘paydi, mahalliy xomashyolarni qayta ishlash asosida 100 dan ziyod yangi korxonalar ishga tushirildi, o‘n minglab aholi ish bilan ta’minlandi.



1. Iqtisodiy rayonning geografik o‘rnidagi o‘ziga xosliklar nimalarda aks etadi?
2. Rayon aholisi soni va ishchi kuchlarining ko‘lamini Zarafshon iqtisodiy rayoniga taqqoslang.
3. Termizdan Toshkentga borish uchun qaysi viloyatlardan o‘tiladi?


54-dars

QASHQADARYO VILOYATI

Qashqadaryo viloyati mamlakat hududining 6,4 foizini egallaydi (119-rasm). U yerda O‘zbekiston aholisining 9,6 foizi yashaydi. Respublikamizdagi asosiy neft va gaz konlari shu hududda joylashgan. Qashqadaryo yoqilg‘i sanoati yalpi mahsulot hajmi bo‘yicha mamlakatda 1-o‘rinda turadi. Shuningdek, respublikada ishlab chiqariladigan elektroenergiyaning 1/10 qismini, yengil sanoat mahsulotlarining 7 foizdan ortig‘ini beradi. Qulay tabiiy sharoiti tufayli ekin maydonlari katta. Viloyat jami ekin maydoni, xususan, g‘alla va paxta ekin maydonlari bo‘yicha respublikada birinchi o‘rinda turadi.

Iqtisodiy geografik o‘rni va tabiiy boyliklari. Bu viloyatda yillik o‘rtacha harorat O‘zbekistonning boshqa joylaridagidan birmuncha yuqori. Viloyatda 1 mln gektarga yaqin sug‘orishga yaroqli yer bor, biroq suv tanqis. Hatto suvdan eng samarali foydalanilganda ham ko‘p yerlarga suv yetib bormaydi. Shu tufayli aksar yerlarga bahorikor donli ekinlar ekilmoqda. Qashqadaryo vodiysi Qashqadaryo va uning chap irmoqlari – Oqsuv, Tanxozdaryo, Yakkabog‘ va G‘uzordaryo suvi bilan sug‘oriladi. Vodiyda Chimqo‘rg‘on suv ombori qurilib, Qashqadaryoning o‘rta va quyi oqimida suv sarflanishining tartibga solinishi hamda Eski Anhor kanali orqali Zarafshondan suv keltirilishi natijasida obikor yerlar maydoni ancha kengaydi *(o‘quv atlasini ko‘zdan kechiring)*.

Tuproq va iqlim sharoiti ingichka tolali paxta, sabzavot, kartoshka va mevalar yetishtirishga qulay. Biroq G‘uzordaryo kamsuv bo‘lib, faqat bahor (aprel)da to‘lib oqadi. Uning oqimini tartibga solish maqsadida Pachkamar suv ombori qurilgan. Shuningdek, vohada Hisorak suv ombori, deyarli 1 million gektar maydonni sug‘ora oladigan Amu–Qarshi mashina kanali qurilgan. Bu kanal yo‘lida bir yarim milliard kub metr suv sig‘adigan Talimarjon suv ombori, kuchli nasos stansiyalari barpo etildi. Nasoslar suvni 132 metr yuqoriga ko‘tarib beradi.



119-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Qashqadaryo viloyatining salmog‘i (foiz, 2017-yil).

Aholisi. Tabiiy, tarixiy va iqtisodiy sha-



120-rasm. Shirin-shakar mevalar savdosi.

roitlar shahar hamda qishloqlarning katta-kichikligiga, aholi zichligi va xo‘jalik faoliyatining xarakteriga jiddiy ta’sir etgan. Aholi punktlari daryo yoqalab tarkib topgan. To‘rt-besh xonadondan iborat qishloqlar ulkan hudud bo‘ylab sochilib ketgan. Yaqingacha uylar terak, archa, qayrag‘och, tosh, tuproq, somon kabi mahalliy ashyolardan qurilar edi. Yangi yerlarni o‘zlashtirish jarayonida obod qishloqlar, shaharchalar qad ko‘tardi.

Qarshi cho‘li mintaqasida ixtisoslashgan paxtachilik, mevachilik (120-rasm), chorvachilik xo‘jaliklari tashkil etilgan. Paxta yetishtirish majmuyi takomillashgan rayonga aylandi. Viloyat qishloq xo‘jaligida bahorikor don xo‘jaligi, yaylov chorvachiligi, ayniqsa, qorako‘lchilik katta salmoqqa ega. Viloyat bug‘doy yetishtirish bo‘yicha qadimgi mavqeyini tiklamoqda. Pillachilik, mevachilik va sabzavotchilik ixtisosli xo‘jaliklarning qo‘shimcha tarmoqlaridir.

Paxta, asosan, Kitob–Shahrisabz botig‘i va Qarshi vohasida ekiladi. Kuzgi don ekinlari yozgi issiq kunlar boshlanmasdan pishib ulguradi. Tabiiy sharoit tok hamda danakli meva daraxtlari uchun ham qulay. Qarshi uzumi, ayniqsa, uning «maska» navi shirinligi bilan mashhur. Olma, nok, anjir, anor kabi issiqsevar mevali daraxtlar ham o‘stiriladi. Mevazorlar, sabzavot va poliz ekin maydonlari ham, asosan, Kitob–Shahrisabz botig‘ida bo‘lib, ulardan shu yerning o‘zida sharob, meva-sabzavot konservalari ishlab chiqariladi.



Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: g‘allachilik, paxtachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, go‘sht-sut chorvachiligi, qo‘ychilik, pillachilik.

Sanoati. Qashqadaryo – mamlakat neft va gaz sanoatining tayanchi hisoblanadi. Qarshi cho‘lining janubi g‘arbiy qismida vodorod sulfatidan gaz ajratib oladigan ulkan gaz sanoati markazi joylashgan.


Qashqadaryo viloyatida 150 ga yaqin sanoat korxonasi faoliyat yuritmoqda. Ularning asosiy qismi neft va gaz, paxta tozalash, binokorlik, yengil hamda oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: yoqilg‘i (neft va gaz), kimyo va gaz-kimyo, elektroenergetika, yengil va oziq-ovqat.

Yirik sanoat korxonalari Qarshi, Shahrisabz shaharlarida hamda ba’zi yirik qishloq va shaharchalarda joylashgan (121-rasm). Mahalliy sanoat palos, do‘ppi, qandolat kabi milliy hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqaradi. Vohada neft, gaz, tuz kabi foydali qazilmalar negizida yoqilg‘i-energetika majmuasi shakllanib bormoqda. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning tarmoqlari tarkibida yoqilg‘i mahsulotlari katta qismni tashkil etadi (122-rasm).

Viloyatda yangi neft va gaz konlari ishga tushirilishi, «Toshg‘uzor–Boysun–Qumqo‘rg‘on» temiryo‘lida qatnov yo‘lga qo‘yilishi natijasida dashtlarda, adirlarda ham sanoat obyektlari bo‘y cho‘zmoqda. Jumladan, Dehqonobodda yiliga 200 ming tonna kaliy o‘g‘it beradigan zavod qad rostladi. Yaqin istiqbolda zavod mahsulotining deyarli yarmi eksportga jo‘natila boshlaydi.

Ijtimoiy sohalar. Qashqadaryo viloyatida 250 dan ortiq tarixiy-



121-rasm. Qashqadaryo viloyati.



122-rasm. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning tarmoq tarkibi (2017-yil).

me’moriy obida, 900 dan ortiq arxeologik yodgorliklar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati davlat muhofazasiga olingan.

Shaharlari. Viloyatda 12 ta shahar bor. ***Qarshi*** viloyatning ma’muriy, madaniy markazi. Qadimiy karvon yo‘li ustida bunyod bo‘lgan mazkur shaharning 2700 yillik tantanalari nishonlandi. Qarshi shahrining maydoni 75,5 kv. km ni tashkil etadi. Bugungi Qarshi ko‘p funksiyali shahar hisoblanadi. Shahardagi sanoat tarmoqlari tarkibida yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati yetakchi o‘rin tutadi. Paxta tozalash zavodi, yog‘-sut zavodi, tikuv fabrikasi, qurilish materiallari, metallga ishlov beruvchi kombinatlar viloyat iqtisodiyotining rivojiga munosib ulush qo‘shib kelmoqda. Hozirgi vaqtda Qarshi shahrida ko‘plab qo‘shma korxona faoliyat ko‘rsatmoqda. «Mevalar kamalagi» O‘zbekiston–Britaniya, «Qarshiyog‘» O‘zbekiston–Singapur qo‘shma korxonalari mahalliy xomashyoni qayta ishlash yo‘li bilan mahsulot ishlab chiqarmoqda.

Qarshi va uning tevaragida paxta, ipak, yog‘ zavodlari, metall ishlash korxonalari, tikuvchilik fabrikalari, binokorlik materiallari kombinati kabi korxonalar qurilib, Qarshi ***sanoat tuguni***ga aylandi. Cho‘lni o‘zlashtirishda Qarshi tayanch manzil hisoblanadi. Temiryo‘l va avtomobil yo‘llari Qarshida birlashadi. Bu hol Nishon, Talimarjon, Koson kabi shahar va shaharchalarning ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantiradi. Shaharda Qarshi davlat universiteti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, Toshkent axborot texnologiyalar universitetining Qarshi filiali va boshqa ta’lim muassasalari bor.

Shahrisabz. Shahar azaldan hunarmandchilikning yirik markazi bo‘lib kelgan. Shahrisabzning gilam do‘ppisi Parij ko‘rgazmasida yuqori baholangan. Paxta tozalash zavodi shahardagi yirik korxonalardan hisoblanadi. Shahrisabz buyuk jahongir Amir Temur tug‘ilgan yurt. Shahar qiyofasida

qadimiy me’morchilik obidalari, shu jumladan, Oqsaroy yodgorligi ko‘zga yaqqol tashlanadi.

1. Hunarmandchilikning qanday azaliy tarmoqlarini bilasiz? Ularning viloyat sanoat ishlab chiqarishidagi ahamiyatini tushuntiring.
2. Viloyatda sanoatning qaysi tarmog‘i yetakchi, bunga sabab nima?
3. O‘quv atlasidan viloyatdagi yirik sanoat markazlarini toping va ularning ixtisosligini aniqlang.
4. Yozuvsiz xaritadagi Qashqadaryo viloyatiga tegishli topshiriqlarni bajaring.

55-dars


SURXONDARYO VILOYATI

Iqtisodiy geografik o‘rni va tabiiy boyliklari. Surxondaryo O‘zbekistonning eng janubida joylashgan. Viloyatning Surxon–Sherobod vodiysidan bo‘lak qismi, asosan, tog‘lardan iborat. Tog‘lar shimoldan keladigan sovuq havo oqimini to‘sib turadi. Shu sababli viloyat O‘zbekistonning subtropik o‘lkasi hisoblanadi. Hududning yana bir o‘ziga xosligi janubdan issiq va quruq «afg‘on shamoli» esib, ekinlarga jiddiy zarar yetkazishidir. Ziroatchilikni tashkil etishda, albatta, bu omil e’tiborga olinadi.

Tekislik va tog‘lardan yaylov sifatida foydalaniladi. Tog‘lardagi mevali daraxtlar oziq-ovqat sanoati uchun qimmatli xomashyo yetkazib beradi.

Surxondaryo viloyatida foydali qazilmalar Qashqadaryo viloyati kabi ko‘p. Yer bag‘rida neft, gaz, ko‘mir, rangli metall va qurilish materiallarining borligi sanoatning bir qancha tarmoqlarini rivojlantirish uchun imkon beradi. Hududda sanoatni rivojlantirish, tabiiy boyliklarni oqilona va samarali ishlatish yuzasidan qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Sariosiyo tumanidagi Xonjiza konida polimetall rudalarni, ya’ni rux, qo‘rg‘oshin, mis va kumushning katta zaxirasini qayta ishlash bo‘yicha yirik loyiha amalga oshirildi.

Sobiq Ittifoq davrida Surxondaryo viloyati hududidan qazib olinadigan neftning tarkibida bitum qotishmasi ko‘pligi sababli u, asosan,



123-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Surxondaryo viloyatining salmog‘i (foiz, 2017-yil).

yo‘l qurilishida ishlatilar edi. Bu xomashyodan qo‘shimcha mahsulot olish uchun Jarqo‘rg‘on neftni qayta ishlash zavodi barpo etildi. Zavodda yiliga 80 ming tonna neft qayta ishlanib, benzin va dizel yoqilg‘isi olinmoqda.

Aholisi. Viloyat aholisining tabiiy ko‘payishi yuqori. Aholi zichligi har kv. km ga 112 kishidan to‘g‘ri keladi, ya’ni O‘zbekistonning o‘rtacha aholi zichligidan deyarli ikki baravar ortiq (123-rasm).

Qishloq xo‘jaligi. Viloyat xo‘jaligida agrosanoat majmuasi yetakchilik qiladi.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: g‘allachilik, paxtachilik (ingichka tolali), bog‘dorchilik (subtropik mevalar), uzumchilik, go‘sht-sut chorvachiligi, qo‘ychilik, pillachilik.


Vohaning eng issiq janubiy qismida ingichka tolali paxta yetishtiriladi. Pillachilik va go‘sht-sut chorvachiligi ham yo‘lga qo‘yilgan. Dehqonchilikni rivojlantirishda Surxon va Sherobod daryolari alohida ahamiyatga ega. Janubiy Surxon va Uchqizil suv omborlarining qurilishi talaygina yerlarni o‘zlashtirish imkonini bergan.

Aholining qishloq xo‘jaligidagi faoliyatida mevachilik, polizchilik, sabzavotchilik muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Denov va Oltinsoy tumanlarida bog‘lar va uzumzorlar ko‘p.

Chorvachilik keyingi muhim tarmoqdir. Sug‘orib dehqonchilik qilinadigan yerlarda go‘sht-sut uchun jaydari zot qoramollar boqiladi. Tog‘ yaylovlarida go‘sht va yog‘ uchun hisor zotli qo‘ylar boqiladi. Bu qo‘ylarning ba’zilari 150–160 (tirik vazni) kg keladi. Tog‘li tumanlarda go‘sht, tivit va dag‘al jun uchun angor echkilari boqiladi. Viloyatning cho‘l mintaqasida qorako‘l qo‘ylari boqish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Jahonga mashhur «Surxon suri» qorako‘l terisi shu hududda yetishtiriladi (124-rasm).



124-rasm. «Surxon suri» qorako‘l terilari.



125-rasm. Surxondaryo viloyati.

Sanoati. Mamlakat miqyosida viloyat sanoatining zalvori katta emas. Unga O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotining bor-yo‘g‘i 1–2 foizi to‘g‘ri keladi. Bu o‘tmishda viloyatga qishloq xo‘jaligi rayoni sifatida qaralishi oqibatidir. Natijada viloyatda ko‘plab ijtimoiy muammolar to‘planib qolgan.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: yengil sanoat (paxta tozalash), oziq-ovqat sanoati, un-yorma.

Viloyatda vujudga kelgan ijtimoiy muammolarni bartaraf etish, aholini ish bilan ta’minlash maqsadida yangi-yangi sanoat korxonalari, transport magistrallari barpo etilmoqda.

Viloyat sanoat tarmoqlari ichida yetakchi hisoblangan yengil sanoatni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda (125-rasm). Yaqin yillar ichida

Qumqo‘rg‘on, Sariosiyo, Denov, Sho‘rchi tumanlarida qator to‘qimachilik komplekslari tashkil etilib, viloyatda yetishtirilayotgan paxta tolasining qayta ishlash hajmini 20–25 foizga yetkazish mo‘ljallanmoqda.

Kon sanoatini ham rivojlantirish jadal ketmoqda. Hozirda Xovdog‘, Uchqizil, Lalmikor va Kakaydi yaqinida neft va gaz konlari ishlab turibdi. O‘zbekistondagi uchta yirik ko‘mir konining ikkitasi Surxondaryodadir (Sharg‘un va Boysun ko‘mir konlari). Bu konlardan sifatli ko‘mir olinadi. Viloyatda yillik quvvati 900 ming tonna ko‘mir yetkazib beradigan zamonaviy yoqilg‘i kompleksi barpo etish rejalashtirilmoqda.

Shaharlari. Termiz viloyatning ma’muriy hamda madaniy markazidir (*aholi mavzusidan shahar aholi sonini aniqlang)*.

U O‘rta Osiyoning qadimiy shaharlaridan hisoblanadi. O‘tgan asr boshlariga qadar Termiz harbiy va kichik chegara shahri edi. Unda yarim hunarmandchilik holatidagi bittagina paxta tozalaydigan zavod bo‘lgan. Hozirgi Termiz obod shahar. Amudaryo porti hamda temiryo‘l va avtomobil yo‘li qurilgach, shahar muhim transport tuguni bo‘lib qoldi. 1995-yilda Termizda yangi zamonaviy aeroport qurildi.

Afg‘onistonga va u orqali boshqa davlatlarga chiqariladigan hamda xorijdan keltiriladigan yuklarning talay qismi Termiz porti orqali o‘tadi. Demak, Termiz qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlovchi markaz hamda yirik daryo porti sifatida rivojlanmoqda. Shaharda paxta tozalash zavodi, sut-yog‘, non va go‘sht kombinatlari, limonad zavodi, binokorlik materiallari ishlab chiqaradigan va boshqa mahalliy sanoat korxonalari bor. Shaharda zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘lgan Termiz davlat universiteti viloyatda ilmiy, ma’rifiy va madaniy markaz hisoblanadi (126-rasm). Shaharda, shuningdek, kinoteatrlar, kutubxonalar, klublar, o‘lkashunoslik muzeyi faoliyat ko‘rsatmoqda. Termizda hayvonot bog‘i ham mavjud.



126-rasm. Termiz davlat universiteti.

Denov – qadimgi yirik savdo va hunarmandchilik qishlog‘i o‘rnida barpo bo‘lgan shahar. 1929-yilda Denovdan temiryo‘l o‘tgach, ishlab chiqarish tez rivojlana boshladi. Denov sanoati qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan. Unda paxta tozalash, sharob, moy-sut, motor ta’mirlash, g‘isht zavodlari bor. R.Shreder nomidagi Respublika

bog‘dorchilik, uzumchilik va sharobchilik ilmiy tadqiqot institutining tajriba stansiyasi shu shaharda.

1. Ilovadagi 2-jadvaldan viloyatdagi yer boyliklariga xos ma’lumotlarni aniqlang.
2. Surxondaryo viloyatidagi shahar va qishloq aholisi salmog‘ini ilovadagi 1-jadvaldan aniqlang.
3. Maktabingiz joylashgan xo‘jalikda yetishtirilgan mahsulot qaysi shaharlarga yuboriladi? Agar shaharda yashasangiz, qaysi rayondan qanday qishloq xo‘jalik mahsuloti keltirilishini aniqlang.
4. Yozuvsiz xaritadagi Surxondaryo viloyatiga tegishli topshiriqlarni bajaring.

56-dars QUYI AMUDARYO IQTISODIY RAYONI



Iqtisodiy geografik o‘rni. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni O‘zbekistonning shimoli g‘arbida joylashgan. Bu rayon Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatidan iborat.

Aholisi. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining obikor yerlari qadimdan aholi zich yashab kelgan vohalardandir. Xorazm vohasida qadim zamonlardan buyon dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelingan. Aholi rayon hududida notekis joylashgan. Tabiiy tafovutlar aholining joylashuviga ta’sir etgan. Aholi Orol dengiziga tomon kamayib boradi.

Nukus, Chimboy, Urganch, Mo‘ynoq, Taxiatosh, Xo‘jayli shaharlarining o‘sishi hamda qishloqlarda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi hisobiga shaharchalarning vujudga kelishi natijasida shahar aholisi tobora ko‘payib bormoqda.

Xo‘jaligi. Iqtisodiy rayon xo‘jaligining asosini qishloq xo‘jaligi tashkil etadi. O‘zbekistondagi qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarning 6 foizi shu rayon hissasiga to‘g‘ri keladi. Qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning deyarli 90 foizi yaylovlardan iborat. Sho‘rxok yerlar, qumlar, ko‘llar, botqoqliklar ham katta maydonlarni tashkil etadi.

Aholi paxtadan tashqari pillachilik, qorako‘lchilik, mevachilik, uzumchilik, polizchilik, sholi yetishtirish bilan ham shug‘ullanadi. Iqtisodiy rayon mamlakatda yetishtirilayotgan sholining yarmidan ko‘pini beradi (127-rasm).

Amudaryo etaklarida dehqonchilik negizida chorvachilik ham rivojlangan. Qadimgi va serdaromad tarmoqlardan biri pillachilik paxtachilik bilan bog‘liq holda obikor dehqonchilik xo‘jaliklarida olib boriladi. Cho‘l



127-rasm. Sholi o‘rimi.

yaylovlarida yil bo‘yi qorako‘l qo‘ylari boqiladi. To‘qaylarda yilqi boqiladi.

Sanoati. Iqtisodiy rayon sanoati oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlaridan iborat. Yengil sanoatda paxta tozalash zavodlarining salmog‘i katta.

Energiya tanqisligini bartaraf qilish, rivojlanayotgan sanoat va qishloq xo‘jaligini energiya bilan ta’minlash uchun Taxiatosh IES va tarkibida GES bo‘lgan Tuyamo‘yin gidrouzeli barpo etildi. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni mamlakat energetika tizimidan energiya oladi.

Mustaqillik yillarida bu zaminda amalga oshirilgan ulkan iqtisodiy-ijtimoiy o‘zgarishlar, qurilish va obodonchilik ishlarini sanab adog‘iga yetib bo‘lmaydi. O‘rta Osiyoda yagona bo‘lgan, sahro bag‘ridagi mo‘jiza deb nom olgan Qo‘ng‘irot soda zavodi, Xo‘jayli shisha zavodi, «Markaziy Osiyo bezak toshlari» qo‘shma korxonasi, Qo‘ng‘irotdagi karbid, Nukusdagi marmar va kabel zavodlari, O‘rga gaz koni, «Elteks» va «Kateks» majmualari kabi zamonaviy ishlab chiqarish obyektlari, 345 kilometrlik Navoiy – Nukus temiryo‘li, Nukus bilan Xo‘jaylini bog‘laydigan ulkan ko‘prik, Qo‘ng‘irot avtomobil yo‘li, o‘nlab umumta’lim maktablari, litsey va kollejlar, bolalar sporti, bolalar musiqa va san’at maktablari singari ko‘plab inshootlar – bularning barchasi istiqlol mevasidir.

Milliy avtomagistral qurilishida ro‘y bergan ulkan voqealardan biri – bu shu yo‘lning Nukus shahriga kiraverishida yangi ko‘prik va chorraha yo‘lning qurilishidir.

Ustyurt gaz-kimyo majmuaga gazni taqsimlaydigan, etilen, polietilen, polipropilen ishlab chiqaradigan va energiya manbalari bilan ta’minlaydigan jami beshta zavod, shuningdek, zamonaviy infratuzilma obyektlari barpo etilgan.

Iqtisodiy rayon ichki hamda tashqi aloqada transportning deyarli barcha turlaridan foydalanadi. Temiryo‘l va avtomobil transportining yuksalishi tufayli suv transporti ahamiyatini yo‘qotib bormoqda. Iqtisodiy rayonning mamlakatimizning boshqa hududlari va xorijiy davlatlar bilan aloqalari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

1. Rayonning iqtisodiy geografik o‘rni va tabiiy sharoitining xo‘jalikka ta’siri qanday?
2. Yozuvsiz xaritadagi Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoniga tegishli topshiriqlarni bajaring.
3. Aholining hududiy joylashuviga ta’sir etgan omillarni ayting.

57-dars

XORAZM VILOYATI

Xorazm viloyati mamlakatimiz hududini juda kichik qismini egallaydi (128-rasm). Xorazm viloyatining yer yuzasi tekis bo‘lib, daryo yotqiziqlaridan iborat. Viloyatning xo‘jalik hayotida Amudaryoning ahamiyati katta. Polvon, Yermish, Shovot va Qilichniyozboy kanallari Amudaryo suvini butun viloyatga tarqatadi. Viloyatda tuproq, suv va iqlim imkoniyatlaridan tashqari, shifobaxsh sho‘r ko‘llar, binokorlikda ishlatiladigan xomashyo (qum, tosh, qamish) ham mavjud.



128-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Xorazm viloyatining salmog‘i (foiz, 2017-yil).


Aholisi. Viloyat aholisi soni jihatidan mamlakat viloyatlari orasida oxirgi o‘rinlarda turadi. Xorazmliklar yozda havoning qurib, isib ketishini hisobga olib, uylarni qalin paxsa devordan keng va baland (4–5 m) qilib quradi. Qalin paxsa devor uy ichidagi harorat va namlikning bir me’yorda saqlanishini ta’minlaydi. Yerosti suvi yer yuzasiga yaqinligidan yerto‘lalar, turli maqsadga mo‘ljallangan o‘ralar bo‘lmaydi.

Xo‘jaligi. Viloyat iqtisodiyoti, asosan, agrosanoat majmuyidan iborat. Xiva, Shovot, Yangiariq tumanlarida paxtaning salmog‘i, ayniqsa, katta. Gurlan tumanida esa sholipoyalar katta maydonni egallaydi. Obikor yerlarda paxta bilan birga don, beda, makkajo‘xori, kartoshka va poliz ekinlari yetishtiriladi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan paxtachilikning qo‘shib olib borilishi suvdan va ishchi kuchlaridan oqilona foydalanishga imkon beradi. Viloyatning barcha tumanlarida poliz ekinlari ekiladi.



Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, polizchilik, sholichilik, go‘sh-sut chorvachiligi, pillachilik.
Sanoatning asosiy tarmoqlari: elektroenergetika, mashinasozlik, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat, un-yorma.

Asrlar bo‘yi davom etib kelayotgan xalq seleksiyasi tufayli Xorazmda ertapishar hamda kechpishar qovunlarning ajoyib navlari vujudga kelgan.



129-rasm. Xorazm viloyati.


Qadimda ularni maxsus idishlarga solinib, tuyalarda, hatto Bag‘dod va Hindistonga (o‘sha vaqtda uch oylik yo‘l) jo‘natilgan. Xiva, Yangiariq, Gurlan, Hazorasp tumanlarida bog‘lar birmuncha ko‘p. Kelgusida bog‘ va tokzorlar maydonini kengaytirish ko‘zda tutiladi.

Qishloq xo‘jaligining ikkinchi muhim tarmog‘i chorvachilikdir. Yozgi yaylovlar va suv tanqisligidan chorvachilikda cho‘lga moslashgan qorako‘l qo‘ylarning salmog‘i katta. Bu qo‘ylar, asosan, terisi va juni, shuningdek, go‘shti uchun boqiladi. Viloyatda yaylovlar kamligidan ayrim xo‘jaliklar o‘z qo‘ylarini Qoraqalpog‘iston yaylovlarida boqadi.

Sanoati. Viloyatda yengil va oziq-ovqat sanoatining yuzdan ortiq korxonalari mavjud (129-rasm). Sanoat paxta, pilla, meva, sabzavot hamda chorva mahsulotlarini qayta ishlashdan iborat. Shuningdek, tikuvchilik, poyabzal, gilamdo‘zlik, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoati korxonalari bor. Bu korxonalar shahar hamda tuman markazlarida joylashgan.

Turizm. Xorazm viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish, turistlar oqimini yanada ko‘paytirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, Urganch shahridagi Shovot kanali bo‘yida «Shovot» kichik turizm zonasini hamda Xiva shahrida «G‘ovuk ko‘l» kichik turizm zonasini tashkil etish hamda ularda zamonaviy mehmonxona komplekslari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va turizm ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa obyektlarni qurish rejalashtirilmoqda.



130-rasm. Xiva shahri.

Shaharlari. Urganch viloyatning ma’muriy, iqtisodiy va madaniy markazidir. Shaharda oziq-ovqat sanoati ahamiyatiga ko‘ra yengil sanoatdan keyingi o‘rinda turadi. Shahar elektr energiyani Taxiatosh IES va Tuyamo‘yin GESdan oladi. Shaharning shimoliy qismida, asosan, turar joy binolari, ilmiy va madaniy-ma’rifiy muassasalar, janubiy qismida esa ishlab chiqarish korxonalari joylashgan. Shaharda Urganch davlat universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Toshkent tibbiyot akademiyasining filiallari bor.

Xiva viloyatdagi qadimiy, milliy me’morchilik yodgorliklariga boy shahardir (130-rasm). Xiva badiiy hunarmandchilikning muhim markazidir. Bu yerda yog‘och va toshlarga naqsh solish, zargarlik, naqqoshlik, kashtachilik, miskarlik va kulolchilikdagi ajoyib mahorat avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Xiva mashhur o‘zbek matematigi, astronomi va geografi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning vatanidir.

1. Pillachilik, sholikorlik va chorvachilik qaysi tumanlarda yaxshi rivojlangan? Buni yozuvsiz xaritada belgilang.
2. Urganch bilan Xivani qiyosiy ta’riflang.
3. Tabiiy sharoitning iqtisodiyotga ta’siri yaqqol namoyon bo‘layotganiga misollar keltiring.

58-dars

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI

Qoraqalpog‘iston Respublikasi mamlakatimizning shimoli g‘arbida joylashgan. Temiryo‘l, avtomobil va havo transportining yo‘lga qo‘yilishi respublika ishlab chiqaruvchi kuchlarining uzluksiz yuksalishiga zamin hozirladi.

Qoraqalpog‘iston muxtor viloyat sifatida 1925-yilda tashkil topgan, 1932-yilda muxtor respublikaga aylantirilgan, 1936-yilda O‘zbekiston




131-rasm. Nukusdagi jundan o‘tov to‘qish kombinati.

tarkibiga kirgan. Qoraqalpog‘istonning O‘zbekiston tarkibiga kirishi qoraqalpoq va o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi qadimiy do‘stlikni, hudud, til va madaniyatdagi mushtaraklikni yanada mustahkamladi.

Aholisi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 1,8 mln dan ortiq kishi yashaydi. Aholining 1/3 qismini o‘zbeklar, deyarli yana shuncha qismini qoraqalpoqlar, qolganlarini qozoqlar va boshqa millatlar tashkil etadi (132-rasm). Oliy o‘quv yurtlarida minglab mutaxassislar tayyorlanmoqda. Nukusda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining filiali va bir qancha ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Qoraqalpog‘istonda olimlarning katta guruhi yetishib chiqdi. Ular fan va milliy iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, qishloq xo‘jaligi sohasida sug‘orishning yangi usullarini ishlab chiqmoqda.

Xo‘jaligi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jaligining asosi agrosanoat majmuyidan iborat. Bu yerda obikor dehqonchilik mehnat va mablag‘ni ko‘proq talab etadi. Jumladan, Amudaryo mansabida sug‘orish kanali qazilishi suv bosib ketishidan saqlovchi dambalar va botqoqliklarni qurituvchi zovurlar qazishga majbur etgan. O‘tgan yillarda irrigatsiya tarmoqlari qayta qurildi hamda kengaytirildi. Qizketgan, Paxta-arna kabi yangi kanallar qurildi. Amudaryoning har ikkala qirg‘og‘i bo‘ylab cho‘zilib ketgan toshqinga qarshi dambalar barpo etildi. Ulkan gidrotexnika inshooti – Taxiatosh gidrouzeli 1973-yilda ishga tushirildi.

Qoraqalpog‘iston ekin maydonining katta qismida paxta va g‘alla yetishtiriladi. Amudaryo mansabida beda va sholi yetishtirish qulay. Qoraqalpog‘iston O‘zbekistondagina emas, balki O‘rta Osiyoda urug‘lik beda yetishtiradigan eng yirik mintaqadir. Beda urug‘ining Qoraqalpog‘iston navi



132-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining milliy tarkibi (foiz hisobida).

eng sifatli hisoblanadi. G‘alla ekinlaridan sholi, oq jo‘xori va makkajo‘xori ko‘p ekiladi (133-rasm). Sholikorlik katta o‘rin tutadi. O‘zbekistondagi sholi maydonlarining katta qismi Qoraqalpog‘istondadir.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: sholichilik, paxtachilik, polizchilik, qo‘ychilik.


Chorvachilik Qoraqalpog‘iston Respublikasi xo‘jaligining muhim tarmog‘idir. Keng yaylovlar va Amudaryo mansabidagi o‘tloqlar chorvachilikning qadimdan yem-xashak bazasi bo‘lib kelgan. Mollarni boqish uchun beda, makkajo‘xori va oq jo‘xoridan tashqari, paxta tozalash, yog‘, sut-moy sanoati korxonalari chiqindilaridan ham foydalaniladi. Cho‘l yaylovlarida yil bo‘yi qorako‘l qo‘ylari boqiladi. Cho‘ldagi xo‘jaliklarda qisman tuya ham boqiladi. Qoramollar obikor dehqonchilik mintaqalarida – Amudaryo mansabida sut, go‘sht uchun boqiladi.

Qoraqalpog‘istonda parranda, ayniqsa, suv parrandalarini ko‘paytirish uchun keng imkoniyat bor. To‘rtko‘l tumanida xo‘jaliklararo parrandachilik fermasi barpo etildi. Pillachilik To‘rtko‘l va Amudaryo tumanlarida rivojlangan. Bu ikki tuman Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi jami pillaning asosiy qismini beradi.


Sanoati. Qoraqalpog‘iston sanoatining rivojlanishida Chorjo‘y–Qo‘ng‘irot temiryo‘lining ishga tushirilishi muhim rol o‘ynadi. Sanoatning energetika, metallsozlik, kimyo, binokorlik kabi yangi tarmoqlari vujudga kela boshladi (134-rasm). Qo‘ng‘irotda yiliga 160 ming tonna kalsiyli soda, 150 ming tonna kaustik soda, 20 ming tonna oziq-ovqat sodasi va 400 ming tonna osh tuzi ishlab chiqara oladigan ulkan zavod ishga tushirildi.

Oziq-ovqat sanoati jadal rivojlanmoqda. Qoraqalpog‘istonda umum foydalaniladigan va ayrim korxonalarga tegishli elektr stansiyalar bor. Taxiatosh IES shular ichida eng yirigidir. Korxona va aholi punktlari asosan gazlashtirildi. Taxtako‘pir tumanida suvni chuchuklashtirish qurilmasi ishga tushirildi.

Binokorlik materiallari sanoati g‘isht, ohak,



133-rasm. O‘zbekiston Respublikasida Qoraqalpog‘istonning salmog‘i (foiz, 2017-yil).



134-rasm. Qoraqalpog‘iston Respublikasi.

qamish, plita ishlab chiqaradi. Ular, asosan, Xo‘jayli, Nukus, Taxiatosh shaharlaridadir. Qoraqalpog‘istondagi sement xomashyosi binokorlik materiallari ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

Metallsozlik qishloq xo‘jaligi, sanoat va transport ehtiyojlariga xizmat qiladi. Taxiatoshdagi mexanika zavodida suzib yuradigan nasoslar tuzatiladi. Buxoro gazi va undan chiqqan neft, kaliyli, magniyli tuz konlari, ohak va fosforit konlari negizida kimyo sanoati rivojlanmoqda.

Sanoatning asosiy tarmoqlari: elektroenergetika, kimyo va gaz-kimyo, qurilish materiallari, yengil, oziq-ovqat, un-yorma.

Shaharlari. Respublikada 12 ta shahar bor. ***Nukus*** – Qoraqalpog‘iston Respublikasining poytaxti, sanoat va madaniyat markazi hisoblanadi. *(Aholi punktlari mavzusidan shaharda qancha aholi yashashini aniqlang.)*

Shahar 1932-yilda kichik ovul o‘rnida barpo bo‘ldi. Geografik o‘rnining qulayligi tufayli 1939-yilda respublikaning poytaxti To‘rtko‘ldan Nukus-

ga ko‘chdi. Amudaryoda qurilgan gidrotexnik to‘g‘on orqali Nukusga temiryo‘l va avtomobil yo‘li o‘tkazildi. Shaharda poligrafiya kombinati, motor tuzatish, g‘isht zavodlari, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati korxonalari bor. Nukusda 6 ta oliy o‘quv yurti, Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus davlat pedagogika instituti, shuningdek, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti hamda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Nukus filiallari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Taxiatosh shu nomdagi IES qurilishi munosabati bilan 1952-yilda qad ko‘tardi. U energetiklar, gidrotexniklar, muhandislar va suvchilar shahridir. Taxiatosh yaqinida Amudaryoga qurilgan yirik gidrotexnik to‘g‘on shahar xo‘jaligini yanada yuksaltirdi. Kelajakda Taxiatosh, asosan, binokorlik materiallari ishlab chiqaruvchi markaz sifatida yanada rivojlanadi, unda yangi korxonalar quriladi.

Mo‘ynoq Orol dengizi sohilidagi sobiq port shahar. Orol suv sathining keskin pasayib ketishi oqibatida shahar dengizdan uzoqda qolib ketdi. Natijada shahar xo‘jaligi butkul o‘zgardi.

Beruniy Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan muhim sanoat markazidir. Shahar avtomobil yo‘li orqali Nukus bilan bog‘langan. Paxta tozalash va yog‘ zavodlari shaharning asosiy korxonalari hisoblanadi.

1. Amudaryoning ikki qirg‘og‘ida joylashgan To‘rtko‘l bilan Urganch shaharlari o‘zaro qanday bog‘langanini o‘quv atlasdan aniqlang.
2. Aholining joylashuvi va milliy tarkibiga qanday omillar ta’sir etgan?
3. Qoraqalpog‘iston shaharlari qanday xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi?
4. Mamlakatimizning qaysi shaharlarida bo‘lishni orzu qilasiz? Nima uchun?
5. Nukusdan Toshkentga borish uchun qaysi viloyatlardan o‘tiladi?

59-dars

AMALIY MASHG‘ULOT

1. Darslik 1-ilovasidagi jadval ma’lumotlari asosida Andijon va Navoiy viloyatlari aholi zichligini aniqlang va qiyosiy taqqoslang.

2. 8-sinf yozuvsiz xaritasiga Buxoro viloyati qishloq xo‘jaligi zonalarini bo‘yang hamda bug‘doy, arpa, makkajo‘xori, shuningdek, parrandachilik va asalarichilik keng tarqalgan rayonlarni tushiring.

3. Samarqand viloyatida respublika aholisining 11,1 foizi yashaydi. Bu viloyat respublikada ishlab chiqarilayotgan don ekinlarining 17 foizini beradi. Ushbu mahsulot viloyat uchun iqtisodiy tarmoq bo‘la oladimi?

4. Iqtisodiy rayonni geografik tasniflash rejasini daftarga yozing.

5. Hudud ixtisoslashuvini belgilovchi omillarni birma-bir aytib bering.

6. Mamlakat hududiy mehnat taqsimotida Toshkent va Mirzacho‘l iqtisodiy rayonlari, Farg‘ona va Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonlarining bir-biriga o‘xshash va farqlanuvchi jihatlarini qiyosiy taqqoslang.

7. Sanoat bo‘yicha mehnat unumdorligi eng yuqori bo‘lgan iqtisodiy rayon qaysi?

8. Qishloq xo‘jaligi intensiv yo‘ldan rivojlanayotgan rayon qaysi?

9. Transport bilan yaxshi ta’minlangan iqtisodiy rayon qaysi?

10. Xo‘jalik yuritishning oddiy joylashishdan murakkabroq, progressivroq joylashishga o‘sib o‘tishini biror iqtisodiy rayon misolida ko‘rsating.

11. Shahringiz (tumaningiz, viloyatingiz)ning iqtisodiy geografik ta’rifini tuzing va unda xo‘jalik tarkibini xomashyo, energiya, tayyor mahsulotlar bo‘yicha hududiy ishlab chiqarish aloqalari chizmasini, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish va o‘zlashtirish tadbirlarini bayon qiling.

60-dars UMUMLASHTIRUVCHI TAKRORLASH

1. Mashinasozlikning iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan aloqadorligiga misollar keltiring.

2. Mashinasozlik majmuasida tarmoqlar nisbati kelajakda qanday bo‘ladi? Yanada jadal rivojlanuvchi tarmoqlarni aytib bering.

3. Metallurgiya majmuasi iqtisodiyotning qaysi tarmoqlari bilan aloqadorligini geografiya daftaringizga chizib ko‘rsating.

4. O‘z viloyatingizda joylashgan qanday to‘qimachilik korxonalarini bilasiz?

5. Eng muhim gaz va neft quvurlari qayerlardan o‘tganini yozuvsiz xaritaga belgilang.

6. Ishlab chiqarishning qanday tashkiliy shakllari bor?

7. Ishlab chiqarishni joylashtirish shakllariga misollar ayting.

8. 8-sinf geografiya atlasining Samarqand viloyati xaritasidan shaharlarning joylashgan o‘rnini aniqlang. Shaharlarda qanday sanoat tarmoqlari mavjudligiga ahamiyat bering.

9. O‘zbekistonda 1 yilda o‘rtacha ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 51 mlrd kW·h qismi issiqlik elektrostansiyalari hisobidan, 8 mlrd kW·h qismi gidroelektrostansiyalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan bo‘lsa, ularning ulushini foizlarda hisoblab toping.

1-ilova

Hududlar bo‘yicha asosiy ijtimoiy ko‘rsatkichlar

(2017-yil 1-yanvar holati)

Respublika va viloyatlar	Maydoni (ming kv. km)	Aholi soni (ming kishi hisobida)			Ma’muriy-hududiy tuzilishi		
		Jami	Shahar aholisi	Qishloq aholisi	Tuman-lar	Shahar-lar	Shahar-chalar
O‘zbekiston Respublikasi	**448,9**	**32656,7**	**16532,7**	**16 124,0**	**170**	**119**	**1071**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	166,6	1 842,3	905	936,8	15	12	26
Andijon viloyati	4,2	3 011,7	1 576	1 435,7	14	11	79
Buxoro viloyati	40,3	1 870,2	698,6	1 171,6	11	11	69
Jizzax viloyati	21,2	1 325,0	622,2	702,8	12	6	42
Qashqadaryo viloyati	28,6	3 148,4	1 357,5	1 790,9	13	12	117
Navoiy viloyati	111,0	958,0	467,6	490,4	8	6	47
Namangan viloyati	7,4	2 699,6	1 743,7	955,9	11	8	115
Samarqand viloyati	16,8	3 720,1	1 390,8	2 329,3	14	11	88
Surxondaryo viloyati	20,1	2 514,2	893,3	1 620,9	13	8	114
Sirdaryo viloyati	4,3	815,9	350	465,9	8	5	25
Toshkent viloyati	15,3	2 861,2	1 411,5	1 449,7	15	16	95
Farg‘ona viloyati	6,7	3 620,2	2 049,9	1 570,3	15	9	197
Xorazm viloyati	6,1	1 805,0	601,2	1 203,8	10	3	56
Toshkent shahri	0,3	2 464,9	2 464,9	–	11	1	1

2-ilova

Hududlar bo‘yicha ekin maydoni tarkibi


(2017-yil holatida, gektar hisobida)

Hududlar	Kartoshka	Paxta	Sabzavot-lar – jami	Oziqbop poliz – jami	Don
O‘zbekiston Respublikasi	78772	1201182	189696	52271	1655629
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	4764	94028	11342	12297	110653
Viloyatlar:					
Andijon	6875	89259	17762	1978	90882
Buxoro	4324	106124	10355	2276	91182
Jizzax	1610	90308	8444	6879	212545
Qashqadaryo	6588	153394	15730	6315	256673
Navoiy	1966	34538	4165	1340	49819
Namangan	5634	76348	14496	1901	92012
Samarqand	12873	87649	29068	2524	185778
Surxondaryo	9899	94539	14611	2788	118219
Sirdaryo	2001	96752	4352	3280	95563
Toshkent	7418	84079	25698	2899	142266
Farg‘ona	9912	98313	20304	2181	129316
Xorazm	4881	95851	13075	5613	81021
Toshkent sh.	27		294		

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

3-ilova

2017-yilda YAHMning tarmoqlari bo‘yicha tarkibi (hajmiga nisbatan % da)



www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

MUNDARIJA

I BOB. O‘ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI

1-dars. *Kirish* 3
2-dars. O‘zbekistonning geografik o‘rni 5
3-dars. O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi 8
4-dars. Ijtimoiy-iqtisodiy xaritalar 11

II BOB. O‘ZBEKISTONNING TABIIY BOYLIKLARI, AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

5-dars. O‘zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari 13
6-dars. Tabiiy sharoit va tabiiy boyliklarning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati 15
7-dars. O‘zbekiston aholisi 18
8-dars. O‘zbekiston aholisining tarkibi 20
9-dars. Aholi punktlari 22

III BOB. MILLIY IQTISODIYOTNING TARKIBIY TUZILISHI

10-dars. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining tuzilishi 27
11-dars. Sanoat – milliy iqtisodiyotning tayanch tarmog‘i 30
12-dars. Yoqilg‘i-energetika majmuasi 33
13-dars. Neft va gaz sanoati 35
14-dars. Ko‘mir sanoati 38
15-dars. Elektroenergetika 40
16-dars. Kimyo sanoati 45
17-dars. Qora metallurgiya 48
18-dars. Rangli metallurgiya 51
19-dars. Mashinasozlik va uning tarmoqlari 54
20-dars. Avtomobilsozlik 58
21-dars. Yog‘ochni qayta ishlash sanoati 62
22-dars. Qurilish materiallari sanoati 64
23-dars. Sanoat va ekologik muammolar 67
24-dars. Agrosanoat majmuasi 69
25-dars. Qishloq xo‘jaligi 71
26-dars. Dehqonchilik 73
27-dars. Chorvachilik 76

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

28-dars. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligining geografik tiplari 78
29-dars. Yengil sanoat 80
30-dars. Oziq-ovqat sanoati 83
31-dars. Sanoatni hududiy tashkil etish hamda joylashtirish shakllari 86
32-dars. Transport geografiyasi 88
33-dars. O‘zbekiston transportining zamonaviy rivojlanishi 90
34-dars. Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari 95
35-dars. O‘zbekistonda rekreatsiya va turizm 99
36-dars. Tashqi iqtisodiy aloqalar 102
37-dars. Amaliy mashg‘ulot 105

IV BOB. O‘ZBEKISTONNING REGIONAL TAVSIFI

38-dars. O‘zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish 106
39-dars. Toshkent iqtisodiy rayoni 110
40-dars. Toshkent viloyati 113
41-dars. Toshkent shahri 117
42-dars. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni 121
43-dars. Sirdaryo viloyati 123
44-dars. Jizzax viloyati 125
45-dars. Farg‘ona iqtisodiy rayoni 128
46-dars. Andijon viloyati 130
47-dars. Farg‘ona viloyati 132
48-dars. Namangan viloyati 135
49-dars. Zarafshon iqtisodiy rayoni 138
50-dars. Samarqand viloyati 140
51-dars. Navoiy viloyati 144
52-dars. Buxoro viloyati 148
53-dars. Janubiy iqtisodiy rayon 151
54-dars. Qashqadaryo viloyati 153
55-dars. Surxondaryo viloyati 157
56-dars. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni 161
57-dars. Xorazm viloyati 163
58-dars. Qoraqalpog‘iston Respublikasi 165
59-dars. Amaliy mashg‘ulot 169
60-dars. Umumlashtiruvchi takrorlash 170
Ilovalar 171

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

O‘quv nashri

MUSAYEV PAYOZ G‘IYOSOVICH
pedagogika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
MUSAYEV JAHONGIR PAYOZOVICH,
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

GEOGRAFIYA

O‘ZBEKISTONNING IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
8-sinfi uchun darslik

To‘ldirilgan oltinchi nashr

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent – 2019

Darslikda A.Jumayev, R.Sharipov, B.Rizoqulov, A.To‘rayev slaydlaridan foydalanildi. Undagi statistik ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo‘mitasidan olindi. Qayta nashrda darslikdagi aksariyat raqamli ma’lumotlar mazkur qo‘mita materiallari asosida yangilandi.

Muharrir *Qodirjon Qayumov*
Badiiy muharrir *Bahrom Bobojonov*
Dizayner va kartograf *Fazilat Sodiqova*
Texnik muharrir *Juldiz Kadirova*
Sahifalovchi *Mastura Atxamova*
Musahhihlar *Ma’mura Ziyamuhamedova, Shahlo Xoldorova*

Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08.2011

Bosishga ruxsat etildi 12.03.2019. Bichimi 70x90 $^{1}/_{16}$. «Times New Roman» garniturasi. Kegli 11,8; 10 shponli. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 11,70. Nashriyot-hisob tabog‘i 13,83. Adadi 506584 nusxa. Buyurtma № 451.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
100000, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41.**

www.idum.uz сайтидан юклаб олинди

Ijaraga berilgan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi, familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan-dagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilganda va o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning foydalanishga birinchi marotaba berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta ta’mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan, darslikni tiklab bo‘lmaydi.